O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:193.4(575.1)

***Qaxramon ALMANOV,***
*Guliston davlat universiteti dotsenti*
*E-mail: almanov20111988@gmail.com*

*O‘z FA MAM katta ilmiy xodimi, t.f.d G‘.Boboyorov taqrizi asosida*

## SOME COMMENTS ON THE ETHNO-ICONS OF THE JIZZAKH OASIS

Annotation
In the article, some ethnonyms that are common in the Jizzakh oasis, as well as the connection of ethnonyms with some clans and tribes in Uzbekistan, their etymology, meaning, and the collection of such clan-names that have been forgotten to this day cloak, collection, place names named with these ethnonyms are scientifically analyzed by the author.
**Key words:** Jilonli (snake), jilontamgali (snake-marked), kulon, aqbura, karabura (bura-buvra-bugra - unharnessed male camel), crow, shaghal (jackal-chiyabori), goat, horse, ox, camel, wolf, ungulate, ungulate, erganak, abdal Argin, Akhtachi, Achchi, chirq, bell, Abuz, Baganali, Kharakana.

## НЕКОТОРЫЕ КОММЕНТАРИИ К ЭТНОИКОНАМ ДЖИЗАКСКОГО ОАЗИСА

Аннотация
В статье рассмотрены некоторые этнонимы, распространенные в Джизакском оазисе, а также связь этнонимов с некоторыми родами и племенами в Узбекистане, их этимология, значение, а также сборник таких родоназваний, которые до сих пор забыты, коллекция, топонимы, названные этими этнонимами, научно проанализированы автором.
**Ключевые слова:** Джилонли (змея), джилонтамгали (змеиный), кулон, акбура, карабура (бура-бувра-бугра - распряженный верблюд-самец), ворона, шагал (шакал-чиябори), козел, лошадь, бык, верблюд, волк, копытное, копытное, эрганак, абдал аргин, ахтачи, аччи, чирк, колокольчик, абуз, баганали, Харакана.

## JIZZAX VOHASIDAGI ETNOOYKONIMLAR TO‘G‘RISIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya
Maqolada Jizzax vohasida ko‘p uchraydigan ayrim etnonimlar, shuningdek, etnooykonimlarning O‘zbekistondagi ba’zi bir urug‘-qabilalar bilan bog‘liqligi, ularning etimologiyasi, ma’nosi va bugungi kunga kelib unutilib borayotgan bu kabi urug‘-aymoq nomlarini to‘plash, yig‘ish, shu etnonimlar bilan atalgan joy nomlari muallif tomonidan ilmiy tahlil qilinadi.
**Kalit so‘zlar:** Jilonli (ilonli), jilontamg‘ali (ilon-tamg‘ali), qulon, oqbura, qorabura (bura-buvra-bug‘ra – bichilmagan erkak tuya), qarg‘a, shag‘al (shaqal-chiyabo‘ri), echki, taka, xo‘kiz, tuya, bo‘ri, tuyoqli, so‘loqli, erganak, abdal, arg‘in, axtachi, achchi, qirq, qo‘ng‘irot, abuz, bag‘anali, Xarakana.

**Kirish.** O‘zbek xalqi tarkibidagi turli urug‘ va to‘plar bilan ataladigan nomlarning o‘ziga xos kelib chiqish tarixi bor. Jizzax vohasi aholisi orasida har bir kishi o‘z urug‘ – ajdodini yetti otasigacha bilishi kerakligi ularning kundalik hayotining ajralmas bo‘lagiga aylangan.Vaqtlar o‘tishi bilan urug‘ va qabilalar nomlarining bir qismi unitilib, ular o‘zlarining yetti otasi bir bo‘lgan to‘plari nomi bilan atalish holatlari kuchaygan. Natijada qabila, urug‘ va ularning bo‘laklari nomlari bilan ataladigan etnonimlarning aksariyati bugungi kunda joy nomlariga ko‘chib etnotoponimga aylangan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**. Ma’lumki, ilk o‘rta asrlar Jizzax vohasini etnografik tadqiqotlari o‘rganilar ekan, Jizzax vohasining ijtimoiy-siyosiy davri bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgani ko‘zga tashlanadi. Biroq bu masalaga chuqurroq yondashilsa, Jizzah vohasining etnomadaniy tarixi nisbatan kam o‘rganilganligi ko‘zga tashlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning metodologiyasi analiz va sintez, tadrijiylik, tarixiy-qiyosiy, ob’ektivlik, davriy-muammoviy va retreospektiv tahlil etishga asoslanadi. Bugungi kunda dunyo fanida tarixiy tadqiqotlar bo‘yicha qo‘lga kiritilayotgan yutuq va yangiliklardan, ayniqsa, ko‘pchilik dunyo olimlari tomonidan qabul qilingan tadqiqot usullari va yondashuvlardan imkon qadar foydalanishga harakat qilindi. Tadqiqot yondashuvlariga asoslangan holda umumjahon tarixiy jarayonlar doirasida Ilk o‘rta asrlarda Jizzah vohasi tarixining kontseptual masalalari qarab chiqiladi. Tadqiqot vazifalarining amalga oshirilishi Markaziy Osiyo tarixida mavjud bo‘lgan etnomadaniy tadqiqotlar voha tarixini tadqiq etishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Ma’lumki, 92 bovli o‘zbek urug‘lari nomlari (etnonimlar)ning o‘ziga xos kelib chiqishi tarixi bor. Ularning eng qadimiylarining nomlanishi masalasida turli talqinlar bor bo‘lib ularning aksariyatida inson uchun do‘st bo‘lgan yoki ko‘makchi ro‘lini bajargan jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar ya’ni urug‘ning totemi hisoblanganlari, eng tarixiydir. Bunday etnonimlarning paydo bo‘lishi bevosita diniy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lib voha hududlaridagi etnooykonimlar majusiylik shamanizm bilan aloqador holda paydo bo‘lgan degan qarashlar borligini kuzatamiz. Ma’lumki har bir urug‘ va qabilalarning muqaddas hayvonlari (totemi) bo‘lib, odamlar o‘zlarini shu hayvonlardan tarqalgan, — yoki bevostita shu hayvonlar bilan aloqador bo‘lgan yoki homiy sifatida qarab kelish holatlari kuzatiladi. Vohadagi jilonli (ilonli), jilontamg‘ali (ilon-tamg‘ali), qulon, oqbura, qorabura (bura-buvra-bug‘ra – bichilmagan erkak tuya), qarg‘a, shag‘al (shaqal-chiyabo‘ri), echki, taka, xo‘kiz, tuya, bo‘ri etnonimlari shular jumlasidandir[1]. Shuningdek hayvon azolarining nomlari tuyoqli, so‘loqli, chorva bilan bog‘liq, erganak (erganakli) ham urug‘ yoki to‘p nomiga aylanib etnonimga aylangan. Hayvon nomlari va boshqa chorva bilan bog‘liq tarzda atalgan etnonimlar ba’zan shu urug‘

ajdodining laqabi ham bo'lishi mumkin. Voha etnonimlari orasida urug'-aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan etnonimlar ham ko'pchilikni tashkil etgan. (achamayli, oshamayli, qo'shtamg'ali, bolg'ali, kosovli, qaychili, taroqli, cho'michli, qirg'ili) Bu kabi urug'larning tamg'alari shaklan ana shu uy-ro'zg'or asboblariga o'xshash bo'lgan. Har bir so'zning etimologiyasi bo'lgani kabi o'zbek urug'lari va uning bo'laklari nomi bilan ataladigan joy nomlarining o'ziga xos etimologiyasi bor. Quyida Jizzax vohasida uchraydigan urug'lar va to'plar bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir joy nomlarini ko'rib chiqamiz.

Jizzax vohasidagi eng qadimgi etnooykonimlaridan biri eftaliylar bilan bog'liq bo'lgan abdal etnonimidir. Abdal (qorabdal) urug'i ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoga kirib kelgan chorvador halqlardan bo'lgan eftalitlar ya'ni haytallarning avlodidir. Turli yozma manbalarda haytal, heptal, heptalon kabi nomlar bilan atalgan eftalitlar Suriya, Yunon manbalarida abdel, arman manbalarida xeptal shaklida uchraydi[2]. Haytal so'zi etmologiyasi bo'yicha fors tarixchisi Bal'amiy (X asr) Tarix-i Tabari asarida, Buxoro tilida «pahlavon», «jasur odam» degan ma'noni bildiradi deb takidlaydi[3]. Shu bilan birga keyingi vaqtlarda abdal deganda «gadoy», «darvesh» kishilar tushunilgan degan fikrlarni S.Qorayev o'zining tadqiqotlarida takidlab o'tadi[4]. Forish tumani hududida abdal etnonimi bilan aloqador bo'lgan Qorabdol nomli aholi maskani bor.

Arg'in –Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida qayd qilingan arg'u qabilasidir. Arg'in (Arg'un) bu mintaqamizdagi qadimiy urug'lardan bo'lib, «Boburnoma» va, o'zbek urug'larning dastlabki yozma shajarasi hisoblangan Mulla Sayfiddin Axsikandiyning «Majmuat-tavorix» asarida keltirilgan o'zbek urug'laridan birining nomidir[5]. Bu etnonimning mo'g'ul va qirg'iz tillaridagi manosi bir hil bo'lib arg'in (o'zagi arg' – duragay) so'zidan kelib chiqqan. Bu urug'ning yashash joyini Mahmud Koshg'ariy O'zgand va Azg'ish shaxarlari orasidagi hududlarda edi deb ma'lumot berib o'tadi[6]. Bugungi kunda vohada bir ikkita bu urug' bilan bog'liq bo'lgan aholi maskanlari bor.

Axtachi – qadimgi urug'lardan biri. Bu urug' vakillari Boburnomada ham tilga olingan[7]. Axta mo'g'ul tilida, umuman «ot» (jumladan «bichilgan ot») demakdir. Axtachi esa «otboqar», «jilovdor» (xon oti jilovini ushlab yuruvchi kishi) ma'nosini beradi. Oxtaxona yoki axtaxona nomli axoli turar joylari Zomin tumani hududida bugungi kunda ham uchraydi.

Achchi (Ochchi) – qishlog'i Zomin tumanida joylashgan tarixiy qishloqlardan biridir. Achchi etimologiyasi to'g'risida bir qancha fikrlar bo'lib bazilar suvi sho'r bo'lganligi uchun shunday nom olgan deyishsa bazilar urug' nomi deya takidlashadi. Bugungi kunda bu qishloq hududida qirq urug'i vakillarining to'p bo'laklari yashaydi. "Abdullanoma" asarida (16-asr) bu qishloq nomi Ochik shaklida uchraydi. Qadimiy turkiylarda achchi qabilasi bo'lgan; o'zbeklarda ochchi, qirg'izlarda achi urug'i borligi qayd etiladi.

Abuz (Obiz) - G'allaorol tumanida joylashgan qishloq bo'lib bu qishloqda qirqlarning ma'lum bir tarmoqlari yashaydi. Shuningdek, qo'ng'irotlarning bir bo'lagi ham abiz, uz larning bir bo'lagi esa aviz deb atalganligini ko'rishimiz mumkin. Boshqa turkiy halqlar tarkibida ham bu urug' uchraydi hususan, qozoqlarning jetiuruv, qoraqalpoqlarning ashamayli kabilasi tarkibida abiz urug'i bo'lgan.

Achamayli (Oshamayli, Ashamayli) bu urug' ham turli xalqlar tarkibida uchraydigan urug' nomi bo'lib bazan mustaqil urug' bazan esa biror urug'ning tarmog'i sifatida keltirib o'tiladi. Ochamayli (Achamayli) – yuz urug'ining bir bo'lagi ekanligini turli nasabnomalarda keltirib o'tiladi. Ho'kiz yoki qo'tosga uriladigan tamg'a yoki bolalar minishi uchun mo'ljallangan egar ochamay deyilgan. Demak, bu urug'ning tamg'asi egar shaklida bo'lgan bo'lsa kerak. Etnograf N.A.Aristov ochamayli urug'i och (ach) degan qadimgi qabila nomi bilan atalgan bo'lsa kerak, deb taxmin qiladi. Bugungi kunda bu nomdagi etnonimlar voha va unga chegaradosh hududlarda (Baxmal, Bayovut, Bekobod) saqlanib qolgan. Bu hududlardagi ochamaylilar to'p to'p bo'lib o'zaro urug' bo'linishlarga bo'linib yashab kelishmoqda. Bizni Achaymayli urug'i "Navgondi" degan joyni O'ra-tepa bekligidan chorvasi uchun sotib olib joylashadi. 1870 yillari hozirgi Boyovut tumaniga qarashli bo'lgan Er-machit yoniga kelib o'troqlashib dehqonchilik va qisman chorvachilik bilan shug'ullanib yashay boshlaydi. Bu joylarni o'zlariga makon qilgan achamaylilar Sirdaryoni chap sohili bo'ylab o'zlarining nomi bilan bugungi kunda ataladigan Bekobod tumanidagi "Achamayli" aholi maskanini tashkil qilgan deb takidlab o'tadi keksa oqsoqol A.Ortiqboev o'zining biz bilan suxbatida[8].

Bag'anali – o'zbek urug'larining bir tarmog'i bo'lib bazan alohida urug' bazida nayman urug'ning bir bo'lagi sifatida eslanadi. Bag'anali «qorako'l teri», «yosh qo'zi terisi» demakdir[9]. Bag'anali nomli axoli maskanlari Zomin, Forish, G'allaorol tumanlarida bu nomdagi qishloqlar mavjud bo'lib , ularda yuz urug'i vakillarining bag'anali bo'lagi vakillari yashaydi. Forish tumani hududida Qorabag'anali nomli qishloq bor bo'lib bu ham qadimgi turkiy qavmlar nomi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Mintaqa halqlari tarixini o'rgangan M.H.Pardayev bilan olib borgan etnografik suxbatlarimiz davomida tarixiy Ustrushona rustoqlaridan biri bo'lgan Xarakana va uning bosh shaxri bo'lgan Xarakana shaxri qadimiy turkiylar shaxri bo'lib xara bu qora kan bu shaxar Qora shaxar manosini beradi bu bugungi kundagi Baxmal tumani markazi bo'lgan O'smatning o'rnidadir bu tuman ma'lum bir vaqtlar Qora qishloq rayoni deb atalganini ham bu turkiy qavmlarning vohada yashaganligi bilan aloqadordir deya takidlab, bu qora so'zi bilan bog'liq vohada o'nlab aholi maskanlari mavjudligini takidlaydi.Tarixiy Ustrushona bilan bog'liq bo'lgan Xarabug'ra Xaraxara kabi atamalar turli yozma manbalarda uchraydi[10].

Beshkubi - Zomin tumanidagi qishloqlardan biri bo'lib, "Beshta kuv" – yani qatiqdan sariyog' oladigan asbob deb izoxlashadi. Yuzlarning katta tarmoqlaridan biri bo'lgan Xitoyizi (xitoyuzi) ning bir bo'limi beshkubi deb atalgan. Bu qishloqda shuningdek beshkubining qorasiyroq,chig'iriq, qalmat,jalmat,qoshg'ar kabi to'plari yashashi kuzatildi. Bu urug' bo'linishlarga qaralganda bu mayda to'plar vohadagi qirq urug'ining ma'lum bir to'p va tarmoqlariga o'xshashligini kuzatamiz.

Barlos – O'zbekistonning katta qismida bu nomdagi etnooykonimlar ko'plab uchraydi. Jizzax vohasida, asosan Baxmal va Zomin tumani hududlarida yashovchi qadimiy turkiy urug'lardan biri bo'lib bu qabila to'g'risida Abulg'ozixonning Shajarai turk asarida keltirilishicha «qo'mondon», Navoiy tarificha «bahodir» degan ma'noni bildirgan[11].

Bahrin - bu nomdagi aholi makanlari vohada uchramasada bu urug' bilan aloqador bo'lgan maskanlar vohada uchraydi. Chingizxon va uning o'g'illari boshqaruvi davridayoq nufuzli urug' sifatida bilingan "baarin" (bahrin)lar Mo'g'ulistondan Markaziy Osiyoning ichki hududlariga ko'chib kelgan ko'plab turk-mo'g'ular urug'laridan biri sifatida keyingi asrlardagi siyosiy va etnomadaniy jarayonlarda faol qatnashganlar. Ayrim rivoyatlarga ko'ra, bahrin urug'i mo'g'ullarning afsonaviy ajdodi Bo'do'nchardan tarqalgan urug'lar orasida eng katta tarmoq bo'lib, Bo'do'ncharning to'ng'ich o'g'li Baaridayning avlodidir[12]. Shu tariqa, eski turk-mo'g'ul an'anasiga Baariday nomidan "baarin" etnonimi kelib chiqqan, deb taxmin qilinadi. Bahrinlar bir qator turk-mo'g'ul urug'lari bilan ittifoqchi urug' sifatida ham bilingan. Ayniqsa, ular o'zbek va qozoq urug'lari orasida "tama", "toma"

nomlari bilan tanilgan urug‘ bilan ittifoqchilik qilib, birga ko‘chib yurganliklari tufayli bo‘lsa kerak, yuqorida ham keltirib o‘tilganidek, Buxoro amirligining Xatirchi bekligida Tama-Bahrin degan qishloq paydo bo‘lgan[13]. Qizig‘i shundaki, Tama yoki Toma etnotoponimi ham Bahrin toponimi kabi respublikamizning asosan markaziy, shimoli-sharqiy va shimoli-g‘arbiy hududlarida – Xorazm, Navoiy, Jizzax vohalari hamda Farg‘ona vodiysida saqlanib qolgan. Ayniqsa, Jizzax viloyatining Jizzax tumanidagi aholi maskanlaridan biri Tomago‘zar deb atalishi diqqatga sazovordir[14].

Boyovut – respublikamiz hududida qadimdan yashab kelgan urug‘lardan biri bo‘lib bu urug‘ nomi bilan ataladigan Sirdaryo viloyati hududida alohida tuman bor. Bu urug‘ to‘g‘risida Rashididdinning «Jomeut-tavorix», Abulg‘ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» asarlarida Chingizxon qo‘shinlari bilan birga kelgan qabilalar orasida ham boyovut urug‘i tilga olingan. Boyovut so‘zi mo‘g‘ilcha «boy», to‘g‘rirog‘i «boylar ovuli» «mulkdor» degan manolarni bildiradi. Shuningdek, bayovutlar o‘zbeklarning bayot urug‘i bilan ham yaqin ittifoqchilikda bo‘lgan bo‘lishi mumkin bu ikki urug‘ning o‘zak so‘zlar o‘zaro o‘xshashlikga ega bo‘lib bu urug‘lar doimiy yonma yon yashab kelgan ko‘rinadi. Shuningdek Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanida Bahrin-bayot degan qishloq uchrab, tadqiqotchilar fikricha, bu qishloq aholisi bahrin va bayot urug‘laridan tashkil topgan. Boshqa tomondan esa unga qo‘shaloq etnonim sifatida qarash va har ikkala urug‘ning birlashmasi, deb talqin qilish mumkin[15].

Kerayt (Kerayit) – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Turli manbalarda kerayit so‘zi «qora qo‘y», «qora odam» yoki «qarg‘a» deb izohlangan (to‘g‘risi ham qarg‘a), etnonim oxiridagi -«t» harfi ko‘plik affiksidir. 1920—1926-yillardagi soni tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlariga ko‘ra, kerayitlardan Samarqand okrugining Jizzax uezdida 600 kishi, Kattaqo‘rg‘on uezdida 250 kishi va Buxoro vohasida 230 kishi yashaganligi kabi ma’lumotlar keltirib o‘tiladi[16]. "Nasabnomayi o‘zbek" va "Asomiyi navodu du firqayi o‘zbek" ("To‘qson ikki o‘zbek qabilasi ismi") asarlarida boshqa o‘zbek urug‘ qabilalari qatorida sanab o‘tilgan[17]. Dashti Qipchoqda qolgan kerayit qozoqlar, boshqirdlar va no‘g‘oylar tarkibiga kirgan. Bugungi kunda kerayitlar nomi bilan bog‘liq aholi maskanlari vohada uchramasada lekin qirq urug‘ining ma’lum bir tarmoqlari qora, qora qo‘yli, kabi urug‘ning bo‘laklar borligi ko‘zga tashlanadi bu urug‘larning o‘zaro urug‘ bo‘linishlaridagi o‘zaro o‘xshashligi qirq urug‘ining vohada XIX asrda nufuzi balandligi va sonining ko‘pligi natijasida bu kerayitlar urug‘ning tarkibidagi qora qo‘yli tarzida kirib singib ketgan bo‘lsa kerak. Qadimgi davrlarda Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalar dunyoning to‘rt tomonini ranglar bilan ataganlar. Masalan qora rang shimolni, qizil rang janubni, ko‘k rang sharqni, oq rang g‘arbni, sariq rang markazni ifodalagan[18].

Qirqqishloq, Qora, Qaropchi, Qayirma, Qorasiyroq kabi axoli maskanlari voha bo‘ylab keng tarqalgan bo‘lib, bu etnonimlar, qirq va yuz qabilalarining ma’lum bir tarmoqlari sifatida, turli ma’lumot va urug‘larning nasabnomalarida, shuningdek bu axoli maskanlarida yashayotgan yoshi ulug‘ oqsoqollarning bergan og‘zaki axbarotida bilinadi[19].

Qarapchi urug‘i ba’zi bir ro‘yxatlarda 92 bovli o‘zbek urug‘laridan biri qatorida tilga olingan; Surxondaryo viloyatida qarapchi 16 uruqqa bo‘linadi, ba’zan esa yuz urug‘ining katta bir bo‘lagi sifatida qayd qilingan. Baxmal tumani Qaropchi qishlog‘ida yashovchi urug‘ning keksa oqsoqollaridan olgan ma’lumotlarga ko‘ra bular qo‘qoni qarochi tarmog‘iga mansub bo‘lib, qarapchi so‘zi qarovchi nozir, nazorat qiluvchi deganidir, bular Qo‘qon xonligi hududlaridagi karvonlar va savdogarlarni turli qaroqchi va yolto‘sarlardan himoya qilish uchun tuzilgan biylar, beklar, qo‘mondonlar jamoasi bo‘lganligi uchun shunday nom olishgan[20].

Qurqozon – o‘zbeklarning bu urug‘i alohida mustaqil urug‘ sifatida etirof etilmay balki, yuz urug‘ining ma’lum bir tarmog‘i sifatida turli nasabnomalarda eslatilib o‘tiladi. Samarqand va Jizzax viloyatlarida bu nomdagi axoli maskanlari qayd etib o‘tiladi. Qurqozon asli qoraqozon bo‘lgan, degan fikrlar ham bor bo‘lib ularda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Qoraqozon so‘zi ikki ma’noda ishlatilgan: 1) bir necha qishloqni o‘z ichiga olgan jamoa, bu qishloqlar hashar, ariq tozalash kabi ishlarni birgalashib bajarishgan; 2) harbiy xizmatga chaqirilgan kishi. No‘kar (navkar)lar muntazam armiya hisoblangan, qoraqozon (yoki qora cheriklar) esa harbiy xizmatdan tashqari o‘z qo‘mondonlarining ekish-tikish ishlariga yordam bergan, mollarga qaragan[21].

**Xulosa va takliflar**. Biz yuqorida Jizzax vohasida ko‘p uchraydigan ayrim etnonimlar haqida, bu etnooykonimlarning O‘zbekistondagi ba’zi bir urug‘-qabilalar bilan bog‘liqligi ularning etimologiyasi, ma’nosi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tdik. Har qanday etimologiya, xususan aksari qadimiy so‘zlar bo‘lgan etnonimlar etimologiyasi murakkab xisoblanadi. Bugungi kunga kelib unutilib borayotgan bu kabi urug‘-aymoq nomlarini to‘plash, yig‘ish, shu etnonimlar bilan atalgan joy nomlarini, etnonimlar tahlil qilinishi tarix fani oldida turgan vazifalardandir.

## ADABIYOTLAR


1. Қораев С.Топономика дарслик Т. 2003 йил,б.169-171.
2. Қораев С. Узбекистон вилоятлари топонимлари /С.Кораев; Масъул мух,аррир А.Мухаммаджонов.-Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси, 2005. -240 б
3. Грязневича П. А. и А. Н. Болдырева) Текст воспроизведен по изданию: О двух редакциях «Та'рих-и Табари» Бал'ами // Советское востоковедение, № 3. 1957
4. Қораев С. Узбекистон вилоятлари топонимлари /С.Кораев; Масъул мух,аррир А.Мухаммаджонов.-Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси, 2005. -240 б
5. Маджму ат-Таварих как исторический источник (Полный перевод, анализ и комментарии) Б.: 2017.- 348 стр
6. Девони луготи турк М.Кошгарий
7. Baburname, Т., 1993.
8. Ўзбекистон Халқ таълим аълочиси Алисаид ОртиқбоевШирин шаҳри 2022 йил феврал ойи
9. Қораев С.Топономика дарслик Т. 2003 йил,б.169-171.
10. Алманов Қ.Ғарбий Турк хоқонлиги даврида Уструшона. Тарих фанлари фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати Қарши.2021- б 23.
11. Абулғози Баходирхон. Шажарайи турк. Ўзбекистан Фанлар академняси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар фонди, инв.’№ 7668.
12. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б. 35.
13. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) / Материалы к исторической географии Средней Азии. – С. 123.

14. Список_населенных_пунктов_Узбекской_ССР_1928_года_Округ_Самарканд.
15. Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Б. 49. С.Қораев Топономика дарслик Т. 2003 йил,б.169-171.
16. https://malumot.ru/kerayit/ 1.11.2023
17. https://genderi.org/microsoft-word----doc-v2.html?page=153. 1.11.2023
18. Шаниязов К.Ш. К этническо истории узбекского народа Т., 1974. 3-131. Ўша муаллиф: Қанғ давлати ва қанғлилар. Т., 1990 146 бет. Баскаков. Н А К вопросу о происхождении этнонима «киргиз»// СЭ 1964. № 2 .- С93-94
19. Алманов Қ.Жиззах воҳаси этномаданий муҳитида қирқ ва қанғлилар Science and innovation international scientific journal volume 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 https: //doi.org/10.5281/zenodo.7434293
20. С.Қораев Топономика дарслик Т. 2003 йил,б.169-171. Бахмал тумани дала тадқиқотлари Қаропчи қишлоғи оқсоқоллари берган маълумотлар.2023 йил
21. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Б. 35-36.
22. Nematov, R. A., & Almanov’s, Q. O. (2022). The role of historical sources in the study of the history of the Turkish Empire. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(10), 25-31.
23. Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. Марказий Осиё тарихи ва маданияти, 1(1), 122-125.
24. Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрларда хоразмда кечган этномаданий жараёнлар. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(6), 14-23.
25. Неъматов, Р. (2023). Хоразм Африғийлар сулоласи - турк хоқонлиги сиёсий алоқалари. Journal of Fundamental Studies, 1(7), 16-23.
26. Obid N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(1), 86-94.
27. Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. Bulletin of Gulistan State University, 2020(4), 45-49.
28. Ne’matov, R. (2023). ILK O ‘RTA ASRLARDA XORAZM TARIXSHUNOSLIGINING O ‘ZIGA XOS JIHATLARI. Interpretation and researches, 1(21).
29. Неъматов, Р. А. У. (2020). Интеллектуальное и культурное наследие узбекского народа. Наука, образование и культура, (4 (48)), 85-87.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK :9.433**

***Umida AXMEDOVA,***
*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti*
*E-mail: kmuhammadrahim1212@gmail.com*

*ADU professori, t.f.d O.Komilov taqrizi asosida*

## KOLXOZ VA SOVXOZLARNING TUGATILISHI – QISHLOQDA XAQIQIY YER EGASINING VUJUDGA KELISHI

Annotatsiya
Mazkur maqolada Mustaqillikdan keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish sohasida olib borilgan dastlabki ishlar, ya’ni kolxoz va sovxozlarning tugatilishi, dehqon va fermer xo‘jaliklarining shakllanishi haqida yozilgan..
**Kalit so‘zlar:** Kolxoz va sovxozlar, mulkchilik, shirkat xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi, agrar islohotlar, fermer xo‘jaligi, shirkat xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi.

## LIQUIDATION OF COLLECTIVE FARMS AND SOVKHOZES-THE EMERGENCE OF A REAL LANDOWNER IN THE VILLAGE

Annotation
This article describes the preliminary work carried out in the field of agricultural development in the Republic of Uzbekistan in the years after independence, namely the liquidation of collective farms and sovkhozes, the formation of farmers and farms.
**Key words:** collective farms and sovkhozes, ownership, company farms, Agriculture, Agrarian Reform, Farm, Company farm, farm.

## ЛИКВИДАЦИЯ КОЛХОЗОВ И СОВХОЗОВ – ПОЯВЛЕНИЕ В ДЕРЕВНЕ НАСТОЯЩЕГО ЗЕМЛЕВЛАДЕЛЬЦА.

Аннотация
В этой статье рассказывается о первых работах в области развития сельского хозяйства в Республике Узбекистан в годы после обретения независимости, а именно о ликвидации колхозов и совхозов, формировании крестьянских и фермерских хозяйств.
**Ключевые слова:** Колхозы и совхозы, собственность, товарищеские хозяйства, Сельское хозяйство, аграрная реформа, хозяйство, товарищество, крестьянское хозяйство

**Kirish.** O‘zbekistonda istiqlol yillari ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda erishgan ulkan yutuqlarning hech biri osonlikcha qo‘lga kiritilmadi. Bu muvaffaqiyatlar zamirida mamlakat rahbariyati tomonidan amalga oshirilgan va oshirilajak iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar mujassam ekanligiga, nafaqat respublika, balki dunyo hamjamiyati bunga iqror bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida iqtisodiy jabhani mustahkamlashga qaratilgan eng muhim strategik dasturlar ishlab chiqilib, hayotga izchil tatbiq etildi va ular o‘zining yuksak samarasini berdi. Buni iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri bo‘lgan qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlarda ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, bugungi kunda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarlicha ta’minlash vazifasi dunyodagi barcha mamlakatlarning asosiy vazifalaridan biriga aylanib qoldi. BMTning “Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti” (FAO) hamda “Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti” (BJSST) ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda dunyoda 800 milliondan ortiq kishi, ya’ni deyarli har 8 odamning biri to‘yib ovqatlanmaydi, dunyo aholisining 30 foizidan ortig‘i to‘laqonli ravishda ovqatlanmaslik, mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosi bilan hayot kechirmoqda[1].

2015 yilda mamlakat BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ga a’zo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo‘lgan 14 ta davlatdan biri sifatida O‘zbekiston e’tirof etildi[2].

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (inglizcha, Food and Agriculture Organization of the United Nations, FAO) 1945 yil 16 oktabrda tashkil topgan. FAOning faoliyati qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ko‘maklashish, ovqatlanishni yaxshilash va oziq-ovqat xavfsizligini hal etish yo‘li orqali dunyoda ochlik va qashshoqlik muammosining keskinligini kamaytirishga yo‘naltirilgandir.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbekiston sharoitida o‘zbek xalqining iqtisodiy va ijtimoiy hayotida qishloq xo‘jaligining o‘rni va roli kattadir. Ma’lumki, mamlakatning iqtisodiy hayoti samaradorligini oshirishda, shuningdek, aholining turmush darajasini yaxshilash va ko‘tarish, uni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash va boshqa ko‘plab masalalarni hal etishda qishloq xo‘jaligining taraqqiyoti muhim ahamiyat kasb etadi. Hammani boqadigan, ozuqa beradigan soha – qishloq xo‘jaligi tarmog‘i hisoblanadi.

Mana shuning uchun ham O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichi qishloq xo‘jaligi sohasini isloh qilishga qaratildi. Bunga qishloq xo‘jaligi hamda qishloq xo‘jalik xomashyosini qayta ishlash bilan bog‘liq tarmoqlarni respublikamizning bugungi iqtisodiyotida o‘ynayotgan roli sabab bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Qishloq xo‘jaligi respublika sanoatini xomashyo bilan ta’minlash, shuningdek, eksport salohiyati va valyuta

tushumining muhim manbai hisoblanadi. Respublika sanoatining ko‘pgina tarmoqlari, jumladan, paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil sanoat, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi va boshqalarni rivojlantirish istiqbollari qishloq xo‘jaligiga bog‘liqdir. Aynan agrar sektor O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlikning qudratli omili ham hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, ayniqsa paxta, asosiy valyuta resursi, respublika uchun hayotiy muhim bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari, ya’ni dori-darmonlar, texnika va texnologiya uskunalarining importi bo‘yicha sotib olishni ta’minlaydigan asosiy manbadir.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrda qishloq xo‘jaligida va uning boshqaruvida ma’muriy-buyruqbozlik tizimi mavjud bo‘lgan. Mulkchilik va xo‘jalik yuritishning asosiy shakllari kolxoz va sovxozlar hisoblangan. Bizga ma’lumki, kolxozlar 1929 yildan boshlab sovet hukumati tomonidan agrar sohani rivojlantirish maqsadida qishloqda yoppasiga jamoalashtirish sari yo‘l orqali tuzila boshladi[3]. Kolxozlarni tuzishdan maqsad agrar siyosatni rivojlantirishgina emas, balki sobiq Ittifoq rahbariyati tomonidan mulkdorlar sinfini tugatilishi ham nazarda tutilgan. Kolxozlar bilan bir qatorda davlat xo‘jaliklari – sovxozlar yuzaga kela boshlagan. O‘zbekistonda 1932 yilda paxta yetishtiradigan rayonlarda yalpi kolxoz va sovxozlarga o‘tkazish tugallangan. Bu davrda kolxoz va sovxozlarga qishloq aholisining 81,7 foizini birlashtirgan va 880 ming dehqon xo‘jaligi negizida 9734 ta kolxoz va 94 ta sovxoz tashkil etilgan[4]. Kolxozchiga dehqonchilik qilish uchun bir oz tomorqa yer berilib, unda oilalar o‘zlarining bola-chaqalarini boqishga bir oz sharoitlar yaratilgandek bo‘ldi. Ammo dehqonlar yerdan foydalanish va olingan hosilga egalik qilish huquqidan mutlaqo mahrum edilar. Ma’joziy ma’noda aytsak, ular avval quldorlik xo‘jaliklariga (jamoa xo‘jaligidan chiqish huquqidan mahrum bo‘lgan) keyin esa yollanma ishchilarga aylangan edi. Dehqonlar ham, kolxoz va sovxoz rahbarlari ham qishloq xo‘jaligi korxonalari mulkdorlari emas edilar, chunki ular hukumat topshiriqlari asosidagina ish yuritganlar.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan XX asrning 90 - yillar o‘rtalaridan boshlab mamlakat iqtisodiyotini, xususan, qishloq xo‘jaligi sohasini eski usullar bilan rivojlantirish mumkin emasligini, sobiq Ittifoq davridagi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish usullari bizning sharqona tabiat va mentalitetga to‘g‘ri kelmasligi sabab keng ko‘lamli islohotlar olib borildi. Mustaqillikning ilk yillari, ya’ni 1992 yil oxiriga kelganda, O‘zbekistonda 1100 dan ortiq “sovxoz” va 900 ga yaqin “kolxoz” deb nomlanuvchi xo‘jalik yuritish shakli bo‘lgan.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov ham shunday degan edi- “Endi bir zum “kolxoz”, “sovxoz” degan so‘zlarning atamalarining ma’no-mazmunini chaqib ko‘raylik. Xalqimiz shunchalik soddaki, mohiyatan Sharq tabiatiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan begona so‘zlarga ham o‘rganib qolgan.

Yodingizda bo‘lsa, har bir viloyatda kamida yigirmata Lenin nomli kolxoz, kamida o‘ttizta Lenin nomli sovxoz bo‘lardi. O‘zi aslida “kolxoz”-“kollektivnoe xozyaystvo” degani, “sovxoz”- “sovetskoe xozyaystvo” degani. Ikkalasi ham – sovetlar zamonida qolgan sarqit tushunchalar”[5].

Sobiq ittifoqning O‘zbekistonga nisbatan qishloq xo‘jaligidagi kolxoz va sovxozlar usuli o‘z natijasini bermay, ajdodlar dehqonchilik madaniyatida qo‘lga kiritilgan ming yillab yig‘ilgan tajribaga zid kelganligi barchaga ma’lum bo‘ldi. Bu holat 1970- yillarda yaqqol ko‘zga tashlandi. 1989 yilda kolxoz va sovxozlarning foydasi oldingi yilga nisbatan 6,7 mln. so‘m miqdorda qisqardi, zarar ko‘rishi esa 8,6 mln. so‘mni tashkil etdi[6]. Ushbu nomlari tilga olingan xo‘jalik yuritish shakllari mamlakat iqtisodiyotini sobiq Ittifoqning Markaziy respublikalariga birlamchi xomashyo yetkazib beruvchi sifatida rivojlanishiga olib keldi. Bu esa O‘zbekistonda “paxta yakkahokimligi” deb atalmish ko‘plab ijtimoiy – iqtisodiy va ekologik muamolarni yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgan holatni yuzaga keltirgan. Deyarli barcha mahsulotni davlat tortib olar edi.

Respublika mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng, iqtisodiy merosga qaytish imkoniyati paydo bo‘ldi. O‘zbekiston mustaqil respublika sifatida tan olingandan so‘ng agrar sektorni tubdan isloh qilishga va jadal rivojlantirishga alohida ahamiyat berildi. Istiqlolning dastlabki yillarida asosiy e’tibor mulkchilik sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratildi.

Aytish joizki, jahon qishloq xo‘jaligini rivojlantirish tajribasidan shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi korxonalarining (kolxoz va sovxozlar) mulklari davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiylashtirilmasdan turib sog‘lom bozor munosabatlarini hamda undagi raqobat muhiti va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitini yaratib bo‘lmaydi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab agrar sohani rivojlantirish, yerga mulkchilik masalalariga asosiy e’tibor qaratildi. Aytish joizki, Sobiq Ittifoq davrida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida tuzilgan kolxoz va sovxozlar o‘z ishini oqlamaganligi sababli tugatildi.

Respublika mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng, iqtisodiy merosga qaytish imkoniyati paydo bo‘ldi. O‘zbekiston mustaqil respublika sifatida tan olingandan so‘ng agrar sektorni tubdan isloh qilishga va jadal rivojlantirishga alohida ahamiyat berildi. Istiqlolning dastlabki yillarida asosiy e’tibor mulkchilik sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratildi. Pirovardida dehqonning mulkka, o‘z mehnati natijalariga amalda egalik qilishini ta’minlash vazifasi qo‘yildi. Ushbu vazifani hal etish uchun mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va shu asosda xususiy mulkchilikning turli shakllarini barpo etish orqali amalga oshirish ko‘zda tutilgan edi.

Mustaqillikning ilk yillarida qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlardan biri 1993 – 1998 yillar mobaynida sobiq “sovxoz” va “kolxoz”larning nomi o‘zgartirilgan va ular “shirkat xo‘jaliklari”, deb atala boshlandi. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo‘jaligida mulkdorlar sinfini shakllantirish, mulkchilik masalalariga keng e’tibor qaratish, qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Respublikamizda qishloq xo‘jaligida vujudga kelayotgan yangi xo‘jalik yuritish shakllari orasida dehqon va fermer xo‘jaliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Dehqon va fermer xo‘jaliklari xo‘jalik yuritishning shaxsiy manfaatdorlik, tashabbuskorlik va mulkiy javobgarlik tamoyillariga tayanib, qishloq xo‘jaligida mulk shakllarining teng huquqlilik va sog‘lom raqobat asosida rivojlanib borishiga asoslanadi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar o‘rnida shuni aytish kerakki, sobiq sovet tuzumi davrida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida tuzilgan kolxozlar va sovxozlar o‘z faoliyatini oqlay olmadi. Kolxoz va sovxozlarga yuklatilgan rejalar bajarilmaganligi, o‘sha davrda qishloq xo‘jaligi sohasiga e’tiborsizlik bilan qaraganligi iqtisodiyotni inqirozga olib kelishiga sababchi bo‘lgan omillardan biri bo‘ldi. Istiqlolning dastlabki davridanoq qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi va shu munosabat bilan u isloh qilindi.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Bosh maqsadimiz – iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy o‘zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik va kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berishdir” nomli ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-ommabop risola. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016. – B.262.
2. https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-islom-karimovning-mamlakat-16-01-2016
3. Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: Jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun: (O‘rta Osiyo respublikalari misolida). – Toshkent: Sharq, 2003. –B.28.
4. Xaitov Sh.I. O‘zbek fermerlik maktabi falsafasi.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.-B.67.
5. Karimov I.A.Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo‘lida.-T.6.-Toshkent: O‘zbekiston, 1998.-B.423-424
6. Тухлиев Н.Т. Регионалный агропромышленный комплекс Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1990. – С.39.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:947 (575.1)

***Muhammadjon BOLTABOYEV,***
*Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti*
*E-mail: m_boltaboyev@mail.ru*

*TATU Farg‘ona filiali katta o‘qituvchisi, PhD I.Tishabayeva taqrizi asosida*

## THE SOVIET AUTHORITY'S ATTITUDE TO THE ACTIVITIES OF RELIGIOUS INSTITUTIONS IN THE NSRB AND NSRK IN 1920-1924

Annotation
This article reveals the current government's attitude towards the activities of religious institutions and organizations in the three governing powers that formed in Central Asia at the beginning of the 20th century. Also, the activities of religious institutions and organizations in the NSRB and the NSRK are covered.
**Key words:** Turkestan ASSR, religious institution, Khorezm People's Soviet Republic, Bukhara People's Soviet Republic, Soviet system, Koshchi alliance, Dahrist policy, propaganda and agitation.

## ОТНОШЕНИЕ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ К ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕЛИГИОЗНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В БСР И ЧСР В 1920-1924 ГГ

Аннотация
В данной статье раскрывается отношение действующей власти к деятельности религиозных учреждений и организаций в трех правящих державах, сформировавшихся в Центральной Азии в начале XX века. Также освещена деятельность религиозных учреждений и организаций в НСРБ и НСРХ.
**Ключевые слова:** Туркестанская АССР, религиозное учреждение, Хорезмская Народная Советская Республика, Бухарская Народная Советская Республика, советская система, Кошчинский союз, политика даризма, пропаганда и агитация.

## SOVET HOKIMIYATINING 1920-1924-YILLARDA BXSR VA XXSRDA DINIY MUASSASALAR FAOLIYATIGA MUNOSABATI

Annotatsiya
Ushbu maqolada XX asrning boshlarida O‘rta Osiyoda tarkib topgan uch boshqaruv hokimiyatida diniy muassasa va tashkilotlar faoliyatiga doir mavjud hukumat munosabati ochib berilgan. Shuningdek, BXSR va XXSRda diniy muassasa va tashkilotlarning faoliyati yoritilgan.
**Kalit so‘zlar:** Turkiston ASSR, diniy muassasa, Xorazm xalq Sovet Respublikasi, Buxoro xalq Sovet Respublikasi, Sovet tuzumi, Qo‘shchi soyuzi, dahriylik siyosati, propaganda va agitatsiya.

**Kirish.** XX asrning boshlarida Markaziy Osiyoda tarixan tarkib topgan uch hukumat: Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm xalq Sovet Respublikalari o‘rniga milliy-hududiy chegaralanishi o‘tkazish orqaliyangi davlatlar tuzish fikri 1920-yilning boshlaridayoq o‘lka va markazning yevropalik rahbar xodimlari tomonidan rejalashtirilgan edi. O‘rta Osiyo davlatlarining har birida o‘zbek, turkman, tojik, qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoq millati vakillarining qo‘shilib yashashi, uzoq vaqt davom etgan tarixiy hodisa edi. Lekin, shunga qaramasdan markaz talabi va xohish irodasi bilan 1924-yilning kuzidayoq O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilib, Sovet tuzumidagi yangi respublikalarga asos solindi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** A.Adhamovning “Din ham sho‘rolar hukumati” nomli risolasida islom dini qoralanib, sovet hukumatining dinga qarshi siyosati yoqlangan. RSFSR hukumati tomonidan 1918-yil 23-yanvarda chiqarilgan “Cherkovni davlatdan, maktabni cherkovdan ajratish to‘g‘risida” gi dekreti, uning 13 moddadan iborat ekanligi asarda ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birgalikda muallif mazkur dekret e’lon qilinishini hamda maktab, madrasalarning tugatilishini ijobiy voqea sifatida e’tirof etadi[1].

I.Alimov maqolalarida diniy muassasalarning o‘lka ma’naviy-madaniy hayotidagi o‘rniga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, muallif izlanishlarida madrasalarga tegishli vaqflar masalasi ham yoritilgan[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston tarixiga oid qarorlari ushbu tadqiqot ishida nazariy-uslubiy asos vazifasini bajardi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlari, ma’ruza va nutqlarida ilgari surilgan milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi, millat ma’naviyati, milliy, diniy qadriyatlar, vijdon erkinligi, diniy marosimlar, urf-odatlar to‘g‘risidagi fikrlari, yo‘l-yo‘riqlari tadqiqotning metodologik asosi bo‘lib xizmat qildi.

Maqolada qo‘yilgan masalalarni tadqiq qilishda umuminsoniy milliy qadriyatlar ustuvorligiga asoslanib, milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda yondashildi. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, xolisonalik tamoyillariga asoslandi. Bu ilmiy-nazariy, metodologik uslublar tarixiy jarayon va voqealarni bir-biri bilan bog‘liq ravishda, ularni keltirib chiqargan tarixiy shart-sharoit bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishga yordam berdi.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbekiston SSR tashkil topishi arafasida RKP(b) Markaziy Komiteti va RSFSR hukumati diniy muassasa va tashkilotlarga munosbatda o‘zining 1920-1922-yillardagi nisbatan «yumshoqlik» siyosatini o‘zgartirib, RKP (b)ning XII syezdida (1923-yil aprel) dinga qarshi keskin tashviqotni yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida mahsus rezolyutsiya

qabul qilib, unda respublikaning o‘n millionlab fuqorolari diniy xurofotlardan uzil-kesil va tamomila forig‘ bo‘lishi alohida qayd qilingan edi[3].

Bu dahriylik siyosatini ommaviy ravishda yuritishga turtki bo‘lgan rezolyutsiya ko‘p o‘tmay O‘zbekistonga ham yetib keldi. Holbuki, 1922-yilning yozi va kuzida qabul qilingan, tadqiqotimizning birinchi bandida tahlil qilingan Turkiston avtanom Sovet Respublikasi Ijroiya qo‘mitasining “Vaqflar to‘g‘risida”gi №75, №164, №173-raqamli buyruqlari bilan diniy muassasa va tashkilotlar hamda ularning moddiy asosi bo‘lgan vaqf mulklarini tiklash masalasi kun tartibiga qo‘yilgan edi.

Milliy davlat chegaralanishi tufayli vujudga kelgan O‘zbekiston SSR tarkibidagi sobiq Buxoro va Xorazm xalq Respublikalari ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ham vaqflar hamda diniy muassasa va tashkilotlar ta’sirli mavqega ega bo‘lganligini qayd qilish o‘rinlidir.

Turkiston ASSR vaqf mulklarini tiklash bilan bog‘liq Turkiston ASSR MIQning I dekreti bilan deyarli bir paytda (1922-yil iyun №75) Buxoro xalq Respublikasida Abdurauf Fitrat tomonidan 19 moddadan iborat “vaqf ishlari” haqidagi maxsus loyiha ishlab chiqilgan edi[4].

Loyihada vaqf mulklari o‘tmishda Buxoro xalqining yuksalishiga sabab bo‘lgan muhim omil bo‘lganligi, vaqfni ahamiyatsiz qoldirmoq xalqimiz manfaati, ruxiyatiga mos kelmasligi bayon qilingan. Vaqf mulklarini (yer, do‘kon, saroy, bozor, hovli-joylar...) hukumat solig‘idan ozod etib, faqatgina “ushr” solig‘i olishligini saqlab, Maorif Nozirligi huzurida Markaziy vaqf mudirligini tuzish, uni besh sho‘baga bo‘lish (diniy, ilmiy, ijara, moliya, xo‘jalik) asosiy vaqflarni 6 qismga taqsimlash (masjid va masjid ishlari, maktab va kutubxona, mahkama, oshxona, avlodiy, Makka va Madina vaqflari), mutavallilar faoliyatini nazorat qilib turish, vaqf mudiriyati xazinasini vujudga keltirish (oltin oqcha hisobida) masalalari loyihadan o‘rin olgan[5].

Fitrat loyihasi bo‘yicha vaqf idoralari har oyda bir marta Maorif Nozirligiga hisobot taqdim etib turishi kerak edi. Milliy davlat chegaralanishi arafasida ham 1924-yilning kuzigacha Respublikadagi vaqf mulklarini to‘la hisobga olish uchun imkoniyat bo‘lmadi. Bu masala 1923-yil 5-oktabrda bo‘lib o‘tgan Butun Buxoro vaqf qurultoyi tomonidan vazifa qilib qo‘yilgan edi.

To‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarga ko‘ra sobiq BXSRning o‘n viloyatidan to‘rttasida (Buxoro, Chorjo‘y, Qarshi, Karmana) vaqf idorasiga qarashli 276737 tanob yer bo‘lgan, ulardan 2.445.753 tanga, hamda 11.418 botmon bug‘doy olingan. Vaqf qaramog‘ida quyidagi diniy muassasalar: 19 ta jome masjidi, 187 ta mayda masjidlar, 201 ta katta-kichik madrasalar, 57 ta saroy, 10 ta hammom, 23 ta tegirmon, birgina Buxoro shahrini o‘zida 1769 ta do‘kon, 262 ta hovli-joy, Buxoro shahri va uning atrofida 24 ta bozor joylari bo‘lgan[6].

Arxiv hujjatlarining ma’lumoticha XXSRda ham vaqf mulklarining salmog‘i milliy davlat chegaralanishi arafasida 471438 tanob yerni tashkil etgan, shundan 70 foiz vaqf yerlari madaniy-ma’rifiy, 30 foizi esa diniy vaqflar bo‘lib, umuman Respublikaning ekin maydonlari 1mln 900 ming tanobni tashkil etgan, 1924-yilga kelib, vaqf qaramog‘ida 126 ta madrasa, 105 ta qorixonalar bo‘lgan[7].

1923-yil oktabrida bo‘lib o‘tgan Umumxorazm qurultoyi XXSRini XSSR deb nomladi. Qurultoyda qabul qilingan yangi konstitutsiya barcha yerlarni shuningdek, vaqf mulklarini ham umumxalq mulki deb e’lon qildi. Ayniqsa, vaqf mulklarini musodara qilinishi xalq ommasi ichida noroziliklarni keltirib chiqardi. 1924-yilning yanvarida sovet hokimiyatiga qarshi ko‘tarilgan umumxalq qo‘zg‘aloni harbiy kuchlar yordamida bostirildi. Ushbu voqealar Xorazmda kommunistlarni o‘zgacha siyosat yuritishiga majbur etdi. 1924-yil aprelda XSSR Markaziy Ijroiya qo‘mitasining II sessiyasi IV qurultoy qarorini bekor qilib, vaqf yerlari yana masjid va madrasalar ixtiyoriga qaytarildi.

O‘zbekiston SSR tashkil topgandan keyin RKP(b)ning XII syezdida qabul qilingan propaganda, matbuot va agitatsiya masalalari yuzasidan rezolyutsiyasi[8] (1923 yil aprel) va RKP(b)ning XIII syezdida tasdiqlangan “qishloqda ishlash” to‘g‘risidagi rezolyutsiyasi asosida O‘zbekiston kompartiyasining I syezdida “dinga qarshi propaganda va turmush xurofotlariga qarshi kurash”[9] kabi rezolyutsiyalar qabul qilinadi.

Jumladan, “dinga qarshi propaganda” rezolyutsiyasida “partiya va komsomol yacheykalarida, shuningdek partiya klub ishlarida (to‘garaklarida) dinga qarshi bevosita propagandani yo‘lga qo‘yish uchun vaqt keldi deb hisoblaydi” kabi jumlalar qayd qilingan edi.

Agitatsiya va propaganda ishlariga partiya a’zolari va komsomollarni, partiya va sovet apparati tarkibida faoliyat ko‘rsatayotgan ayollarni keng jalb qilish muhimligi alohida uqtirilgan.

Sovet hukumati hali o‘zining siyosiy va ma’muriy asoslarini mustahkamlashga ulgurmagan 1920-yillarda, kishilar ongidan dinni chiqarib tashlash siyosatini u qadar targ‘ibot va tashviqot qilishga jur’at qilmagan, dahriylik siyosatini ijrochilari hisoblangan kommunistlar tarkibida ham asosan diniy e’tiqoddan yuz o‘girmagan xodimlar ko‘pchilikni tashkil qilar edi. Jumladan, 1923-yilda Buxoro kompartisi a’zolarining 65,5 foizi dinga e’tiqod qiluvchilar bo‘lgan. 1923-yil aprel RKP(b) XII syezdi rezolyutsiyasida 30 millionli O‘rta Osiyo aholisining asosiy qismi diniy e’tiqod bilan bog‘liqligi alohida ta’kidlanadi[10].

Aslida diniy muassasa va tashkilotlarga sinfiycha yondashuv markazdan 1920-yildayoq avj oldirilgan bo‘lib, bu frontga sovet hukumati va kompartiyaning yetakchi arboblari: N.K.Krupskaya, I.I.Skvorsov, B.S.Stepanov, A.V.Lunacharskiy, V.D.Bonch-Bruyevich, P.A.Krasikov, Y.Yaroslavskiy, Y.Rudzutak, A.I.Rikov, N.I.Buxarin, proletar shoir va yozuvchilardan A.M.Gorkiy, V.V.Mayakovskiy, D.Bedniy va hokazolar safarbar qilingan edi.

Dahriylikka da’vat qiluvchi har qanday diniy e’tiqodlarga qarshi kurashga qaratilgan bolsheviklarning dastlabki matbuot organi 1921-yildayoq “Revolyutsiya i serkov” (Inqilob va cherkov), P.A.Krasikov muharrirligi ostida juda katta nusxada chop etila boshlangan edi.

Ushbu jurnalda har qanday dinning xalq uchun zararli ekanligi, “inqilobiy” vazifalarni ado etishda muhim g‘ov bo‘lishi, dindorlarning monarxiya va eski jamiyat tarafdorlari ekanliklari, diniy muassasa va tashkilotlar faoliyatini qattiq nazorat qilish, ularni qo‘poruvchilik, buzg‘unchilik o‘chog‘iga aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik va ayrim ruhoniy namoyondalarning shaxsini tahqirlovchi maqola, xabarlar e’lon qilib turildi. Nasroniy, islom, yahudiy dinlarini, ayniqsa, diniy bayramlar arafasida “fosh etuvchi” minglab nusxalarda varaqa va plakatlar chop etilib, barcha o‘lkalarga tarqatildi.

1922-yilda dahriylik siyosatini targ‘ib qiluvchi ikkita gazeta: “Ateist” (15 ming nusxada chiqarilgan, muxarriri A.I.Shpitsberg bo‘lgan), “Bezbojnik” (muxarriri Y.Yaroslavskiy) chop etilib, sovet ittifoqining barcha shahar va qishloqlariga ko‘p nusxada tarqatilar edi.

1922-yilning oxirida dindor va dinga e’tiqod qiluvchilarni xo‘rlash va qo‘pol o‘rta asrcha haqoratlash tashviqotiga qaratilgan “Bezbojnik” (Xudosiz) jurnalining birinchi soni nashrdan chiqdi.

M.Kostelovskiy muharrirligida chop etilgan mazkur jurnal muqovasida nasroniylik e’tiqodining payg‘ambari Iso Masihni masxaralovchi satirik tasvir bo‘lib, din va diniy

e’tiqodga ishonuvchilar, ruhoniy arboblar “ablax” deb haqoratlangan edi.

20-yillar boshida vujudga kelgan ushbu matbuot organlarining nashrlari diniy tashviqot va targ‘ibot olib borishda ish usul va shakllarini o‘zaro muvofiqlashtirib bordi. Xudosizlik harakatini tig‘i musulmon tashkilotlariga ham qarshi qaratilgan bo‘lib, ishchi, dehqon, qizil armiya jangchilariga murojaatlar qabul qilindi. Y.Yaroslavskiyning “Bezbojnik” gazetasi ta’siri kuchayib, uning turli hududlardagi muxbirlari 1924-yilda “Obshestva druzey gazeti Bezbojnik (ODGB)”, («Bezbojnik gazetasi jamiyati do‘stlari») uyushmasini tuzdilar[11].

1924-yildan Xorazm viloyatida masjidlar faoliyatiga chek qo‘yish boshlanganligini ko‘ramiz. Bunga sabab dahriylik siyosatining sovet hokimiyati tomonidan yildan-yilga kuchayib borishi edi. Qayd qilingan masjidlarda 15 kishidan 600 kishiga qadar musulmonlar nomoz o‘qish uchun tashrif buyurishgan. Yopib qo‘yilgan masjidlarga yaqin masofalarda musulmon muassasasi yo‘qligi alohida ta’kidlanadi. Diniy muassasalarga munosabat, kommunistlar qurmoqchi bo‘lgan jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan birga yonma-yon bordi. 1920-yillar boshidagi ocharchilik natijasida vaqf mulklari, masjid va madrasalardagi boyliklar musodara qilingan bo‘lsa, 1925-yilda boshlangan sanoatlashtirish siyosatining asosiy dushmanlaridan biri diniy ullomalar deb qaraldi. Dahriylik tavsifdagi adabiyotlar nashri yildan-yilga ko‘payib boraverdi.

1924-1925-yillarda vaqf mulklari va ularning O‘zbekiston SSR viloyatlaridagi holati bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar va vaqflarga tegishli bo‘lgan diniy muassasa va tashkilotlarning anchagina salmoqqa ega ekanligi hujjatlarda qayd qilingan.

Buxoro viloyatida vaqflarga qarashli yer maydoni juda katta salmoqqa ega bo‘lib, sovet hokimiyatining O‘zbekiston SSRda yer-suv islohoti o‘tkazish davrida o‘z ta’sirini o‘tkaza boshlagan.

1924-1925 budjet yilida Buxoro diniy vaqflariga qarashli yer miqdori 161 tanob bo‘lib, bu yerlar vaqfchi dehqonlarga ijaraga berilgan, ulardan esa hosilni 10 foiz miqdorida yagona qishloq xo‘jaligi solig‘i olingan. Umuman bu yillarda Buxoro vaqflarining daromadi 882 889 so‘m bo‘lgan[12].

Buxoro vaqf mulklariga qarashli diniy muassasa va tashkilotlarning soni ham salmoqli bo‘lib, 231 ta madrasa, 429 ta eski usuldagi diniy maktablar, 133 ta qabriston, 199 ta qorixona binolari, 2306 ta masjid, 66 ta mahsuri vaqflar hamda 4 ta aralash vaqf muassasalari bo‘lgan.

Bundan tashqari 1925-yil 1-yanvardan Buxoroda diniy maktab va madrasalar uchun 60 ta o‘quvchi ta’lim oladigan o‘qituvchilar tayyorlov kurslari tashkil qilingan.



Buxoro diniy maktab o‘quvchilari.

Bu davrda Xorazm viloyati vaqf mulklari va ularga tegishli bo‘lgan muasssasa va tashkilotlarning ham madaniy-maorifiy rivojida mavqeyi past bo‘lmagan.

Xorazmda Buxoroga nisbatan son jihatidan diniy muassasalar va vaqf mulklar miqdori barcha sohalarda oz miqdorni tashkil etgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, sovet hukumati oktabr to‘ntarishining dastlabki kunlaridan boshlab bolsheviklar partiyasi dasturidan, marksizmning materialistik dunyoqarashi g‘oyasidan, ya’ni dinni inkor etish, tugatish g‘oyasidan kelib chiqib dinga munosabatda bo‘ldi. Chor hukumati Turkistonda islomni ijtimoiy-siyosiy hayotdan siqib chiqarish siyosatini amalga oshirgan bo‘lsalar-da, amalda bu siyosatni juda ehtiyotkorlik bilan qo‘llaganlar va musulmon ruhoniylarga oshkora qarshi chiqishdan o‘zlarini tiyganlar. Lekin asosan chor hukumatining Turkistonda amalga oshirgan yo‘lini davom ettirgan sovet hukumati din sohasida boshqacha siyosat yurgazdi, dinni ochiqdan-ochiq ta’qiqladi. Eski maktab, madrasa, masjidlarni qo‘llab-quvvatlashdan bosh tortdi. Bunday siyosat natijasida diniy tashkilotlarni moddiy asosi hisoblangan vaqf mulklari, maktab, madrasalar tugatildi. Ko‘plab masjidlar yopildi, ayrim qolgan masjidlar davlat tomonidan tan olinmadi, ularning faoliyat ko‘rsatishiga rasman ruxsat berilmadi.

## ADABIYOTLAR


1. Адҳамов А. Дин ҳам шўролар ҳукумати. Тошкент-Самарқанд: Ўзнашр, 1929. – Б. 24-42.
2. Алимов И.А. Левацкие перегибы в решении религиозного вопроса в ТАССР // Общественные науки в Узбекистане.- Ташкент, 1991. – №1. С. 31-40; Унинг ўзи. Из истории решения вакфного вопроса в первые годы Советской власти в Узбекистане // Октябрьская революция в Средней Азии и Казахстане: теория, проблемы, переспективы изучения. -Т.: Фан, 1991. – С. 239-254; Унинг ўзи. Эски мактаб ислоҳоти ташаббускори // Халқ таълими.-Тошкент, 1993. – № 10-12. Б. 5-8; Унинг ўзи. Отношение Советского правительства Туркестанской АССР к религиозным мактабам и медресе (1917-1924 гг) // Вестник Ошского Государственного Университета, Ош., 2004. – С. 211-219.
3. Қонун, дин, черков. Т.: Ўзбекистон, 1987. – Б. 49-50.
4. Бухоро ахбори. 88 сон, 1922, 29 июнь (араб имлосида). 88 сон, 1922, 5 июль
5. Бухоро ахбори. 90 сон, 1922, 8 июл; 90 сон, 1922, 15 июль.
6. Бухоро ахбори. 212 сон, 1923, 10 октябрь рўйхат, Озод Бухоро, 1-сон, 1923, 16 октябрь.
7. Казаков Э. Политика привотельства Хорезмской Республики в отнашении исламиской веры и служителей культа (19201924 гг.) Автореф. дис. ... кан. ист. наук. Т., 2001. – С. 21,25.

8. КПСС съездлари, конференциялари ва Марказий комитет пленумларининг резолюция, қарорлари. Т., 1981, II-том. – С. 492-493.
9. Ўзбекистон комммунистик партияси съездалирининг резолюция ва қарорлари. Т., 1957, I-том. – С. 48, 50, 51.
10. Алексеев В. Илюзия и догмы. М.: Политиздат, 1991.– С. 275.
11. Наука и религии. 1985. № 12. – С. 19.
12. ЎзР МДА, 94-фонд, 1-рўйҳат, 332-иш. 14-варақ.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:327.58(430+470)«18/19»

***Sofya GABRIELYAN,***
*O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, DSc*
*E-mail: gabsofya@yandex.ru*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, t.f.n O.Mahmudov taqrizi asosida*

## XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYA VA ROSSIYANING TASHQI SIYOSATI

Annotatsiya
Maqolada XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida, Yevropa davlatlari o'rtasida mustamlakalarni va yangi tovarlar bozorlarini egallash va kapitalni investitsiya qilish bilan bog'liq keskinlik kuchaygan davrda xalqaro munosabatlarning asosiy tashqi siyosiy jihatlari ochib berilgan.
**Kalit so‘zlar:** Germaniya, Rossiya, iqtisodiy raqobat, koloniyalar, Bag'dod temir yo'li, uchlik Ittifoqi, Antanta, birinchi jahon urushi.

## FOREIGN POLICY OF GERMANY AND RUSSIA IN THE LATE XIX - EARLY XX CENTURY

Annotation
The article reveals the main foreign policy aspects of international relations at the end of the 19th – beginning of the 20th century, when tensions between European states increased over the acquisition of colonies and new markets for goods and investment of capital.
**Key words:** Germany, Russia, economic rivalry, colonies, Baghdad Railway, Triple Alliance, Entente, The First World War.

## ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА ГЕРМАНИИ И РОССИИ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация
В статье раскрываются основные внешнеполитические аспекты международных отношений конца XIX – начала XX в., когда усиливается напряженность между европейскими государствами за получение колоний и новых рынков сбыта товаров и приложения капиталов.
**Ключевые слова:** Германия, Россия, экономическое соперничество, колонии, Багдадская железная дорога, Тройственный союз, Антанта, Первая мировая война.

**Введение.** События, происходившие на рубеже 60-70-х годов XIX в. создали новую ситуацию в Европе. Первым ее моментом было появление в 1871 году в центре континента единой Германии, взамен конгломерата немецких государств. Объединенная Германия по своей военной мощи превосходила другие европейские страны, а господство в ней милитаризированной Пруссии создавало постоянную опасность.

**Анализ литературы.** История международных отношений в конце XIX – начале XX века привлекала внимание историков. Весь пласт литературы трудно проанализировать в рамках данной статьи, однако, необходимо остановиться на нескольких исследованиях. В монографии А.Б.Широкорада освещается становление Германской империи и претензии нового государства на мировое господство. В исследованиях А.С.Ерусалимского автор прослеживает политическую деятельность рейхканцера, который был главной политической фигурой и де-факто создателем Германской империи.

**Методология исследования.** В процессе исследовательской работы использованы статистический, сравнительный и метод системного анализа. Научная статья написана исходя из цивилизационного подхода, опираясь на принципы исторической объективности, что позволило на основе информации полученной из исторических источников максимально раскрыть объективные и субъективные факторы в изучении основных вопросов исследования.

**Результаты исследования.** Одной из главных целей внешней политики Германии была изоляция Франции. Германия навязала Франции мирный договор, отторгнувший от нее Эльзас и Лотарингию. Это не могло не привести к реваншу. Возникла постоянная опасность новой войны между Францией и Германией, которая не осталась бы локальной, в ее горнило были бы втянуты и многие страны Европы. Правители Германии упорно старались лишить Францию возможных союзников, связывая европейские государства различными обязательствами, исключавшими сближение с Францией.

Канцлер Бисмарк понимал, что расположение Германии в центре Европы теперь предопределяет ее стратегическую уязвимость. Поэтому в мыслях Бисмарка о внешней политике царил «страх коалиций», который заставлял его постоянно ощущать гнетущую опасность для Германии войны на два фронта. Он был дальновидным политиком и мастерски старался поддерживать «европейское равновесие сил». Он все больше оттеснял политику Австрии на Балканы. Он не мешал ни Англии, ни Франции создавать и расширять в 70-х годах мощные колониальные империи.

В 60-е годы XIX в. главное внимание России было сосредоточено на восстановлении утраченных в результате Крымской войны позиций на Востоке. Благодаря реформам Россия укрепляла свое положение в Европе. Россия стремилась укрепить свои позиции на Балканах, но встретила противодействие держав Запада. Усиливала свои позиции на Балканах Франция. Антирусские действия Франции поддерживала Англия и Австрия. Только Пруссия, в связи с воссоединением Германии, нуждалась в

помощи России, обещала ей поддержку в ее восточной политике.

Германия активно шла на укрепление связей с Россией и на установление договорных отношений. В 1873 г. была заключена военная конвенция между Россией и Германией. Эта конвенция предусматривала взаимопомощь между Германией и Россией во внешней политике и укрепление положения в Европе[1]. Германия стала инициатором соглашения трех императоров - Германии, России и Австро-Венгрии, которое было заключено в 1873 г. Соглашение «трех императоров» декларировало общность политики и предусматривало взаимные консультации в случае осложнения международной обстановки. Это соглашение на реакционной основе, напоминающей принципы «Священного союза»[2]. Отношения между Германией и Россией ухудшались, но Германия еще не готова была к войне с Россией, а России нужен был обеспеченный тыл в связи с ухудшением отношений с Англией на Ближнем Востоке и в Средней Азии. Это соглашение предусматривало благожелательный нейтралитет договаривающихся сторон в случае войны одной из них с какой-либо великой державой. Таким образом, Германия получала свободу рук в случае войны с Францией, а Россия в случае войны с Турцией или Англией. Однако оно теряло свою силу в связи с противоречиями России с Германией и Австро-Венгрией, что давало Германии возможность стать арбитром между Россией и Австро-Венгрией, которых разделяли острые разногласия по вопросу о политике на Балканах и дальнейшей судьбе балканских народов, находившихся под владычеством Турции.

В это время обостряется положение на Балканах в результате восстания в Боснии и Герцеговины против турецкого господства. Бисмарк помогал России все более втягиваться в балканские дела, подталкивая ее на войну с Турцией, что неминуемо должно было до крайности обострить противоречия России не только с Австро-Венгрией, но и с Англией. Разжигание противоречий и соперничества других государств было одним из наиболее эффективных методов германской дипломатии. Русско-турецкая война окончилась победой России. 3 марта 1878 г. в местечке Сан-Стефано был подписан мирный договор, предусматривавший создание Болгарского государства.

Англия и Австро-Венгрия не желая примириться с возрастанием сферы влияния России, потребовали пересмотра договора на Берлинском конгрессе, состоявшемся в Берлине в 1878 г. Из Берлинского трактата видно, что Англия и Австро-Венгрия добивались от России отказа от территориальных приобретений, полученных по Сан-Стефанскому договору.[3].

Не менее важную роль в осложнении германо-русских отношений сыграло сближение Германии с Австро-Венгрией. В результате такого сближения был заключен в октябре 1879 г. австро-германский союз. Договор предусматривал военную помощь в случае нападения России на одного из союзников, т.е. на Германию и Австро-Венгрию, в случае же нападения какой-либо иной державы на одного из союзников другая договаривающаяся сторона обязана была соблюдать благожелательный нейтралитет. Формально австро-германский союз носил оборонительный характер, но в нужный момент превращался в агрессивный военный блок. Косвенно он был направлен и против Франции, ибо с случае начала франко-германской войны Австро-Венгрия была обязана соблюдать нейтралитет, благожелательный для Германии, а если бы на помощь Франции пришла Россия - объявить ей войну.

В связи с ухудшением отношений Италии и Франции на почве колониального соперничества, чем воспользовался Бисмарк, был заключен 20 мая 1882 г. Тройственный союз между Германией, Австро-Венгрией и Италией. Договор предусматривал оказание Германией и Австро-Венгрией военной помощи Италии в случае нападения на нее Франции и помощь Италии при нападении Франции на последнюю.

Военная мощь Англии настораживала Бисмарка, но он ясно осознавал, что попытка догнать Великобританию в области морских вооружений была бы для Германии предприятием бессмысленным и безнадежным. Такая гонка вооружений только провоцировала бы Англию, эту традиционно морскую державу и могла кончиться лишь катастрофой для Германии.

В июне 1887 г. был подписан русско-германский договор, получивший название «перестраховочного». При подписании этого договора Германия предусматривала нейтралитет России, а также появление русско-французского союза. На это сближение влияли такие факторы, как обострение франко-германских и австро-русских противоречий.

В результате франко-русского сближения в 1892-1894 г. был оформлен франко-русский союз. Германия оказалась перед перспективой войны на два фронта. Перед ее дипломатией была поставлена задача добиться уничтожения этого союза.

Внешняя политика России с 1881 по 1894 г. проводилась в период правления Александра III и эта политика не случайно принесла ему титул «миротворца»: в его правление страна не вела ни одной войны. Действительно, при Александре III практически не было войн, что положительно отразилось в развитии экономики страны. Но, с другой стороны, западные государства пользовались этим и укрепляли свои позиции на Балканах. В его правление были заключены мирные договора 1881, 1884, 1891-1894 гг.

В это время отношения России с Германией и Австро-Венгрией были натянуты в связи с проводимой ими антирусской политикой. Русско-французский союз на время привел к восстановлению «равновесия» в Европе, нарушенного образованием Тройственного союза. Но в дальнейшем оба эти лагеря усиливали напряженность в Европе. Вне союзов оставалась Англия. До середины 90-х г. XIX в. она склонялась к сближению с Германией, а с начала XX в. перешла на сторону ее противников.

Опираясь на развитую промышленность, германская торговля все больше вытесняла английскую не только из различных европейских и азиатских стран Ближнего и Среднего Востока, стран Южной Америки, но и даже из Английских колоний; конкуренция германских товаров сказывались и в самой Англии. Но не в англо-германской торговой конкуренции следует искать главную причину тех острых, непримиримых противоречий между двумя странами, которые привели их к вооруженной схватке. Особое значение приобрела борьба за колонии. Германия стремилась к расширению своих колониальных владений и в этом стремлении наталкивалась на сопротивление мощных колониальных держав.

С 1890 г. у власти в Германии находится кайзер Вильгельм II, который во многом и определял политику Германии. Он провозгласил «новый курс» политики, осуществлявшийся новым канцлером Каприви. Главная цель Германии состояла в том, чтобы создать группировку держав, которая превосходила бы по силе Россию и Францию вместе взятых. Этот курс осуществлялся без какой-либо последовательности. Начался он с отказа от

продления «договора перестраховки», ибо Германия считала войну с Россией неизбежной [4].

Несмотря на противоречия с Англией, в Германии в 1890-х годах XIX в. предпринимаются попытки сближения с ней. В 1890 г. Германия и Англия договорились об обмене некоторыми владениями, что представлялось весьма благоприятной прелюдией к более крупным и важным соглашениям.

В 1891 г. возник замысел возобновления Тройственного союза. При этом имелось в виду осуществить то, что не удалось Бисмарку, то есть привлечь к нему Англию. Однако правителей Англии и Германии гораздо больше разделяло, чем связывало. Общим у них была лишь вражда к России, желание помешать экспансии царизма. Однако сговориться на этот счет оказалось невозможным. Это касалось рынков сбыта для товаров германской промышленности, источников сырья и продовольствия, колониальных владений. Англия же стремилась убрать с дороги Германию, так как она являлась угрозой для Европы и Англии.

В начале XX в. в Германии существовали две группировки. Одна из них (Кайзер, военные круги, часть крупной буржуазии) считала, что надо приблизить к себе Россию и вместе бороться против английской гегемонии и Франции. Их интересам противоречил разрыв с Россией, ибо они стремились использовать ее как гигантский рынок сбыта, что было невозможно без поддержания нормальных отношений. Другая группировка, в которую входили банкиры, крупные магнаты электротехнической и химической промышленности, юнкерство имела проанглийский уклон и не считала опасным английскую конкуренцию на рынках. По ее мнению, гегемонию в Европе можно установить посредством захватов на Востоке, а потом уже взяться за приобретение новых территорий. Обе группировки, в сущности, отстаивали концепции «мировой политики».

Другой угрозой миру со стороны Германии была начатая ею постройка Багдадской железной дороги, которая в будущих планах должна была превратиться в орудие их мировой экспансии в странах Ближнего и Среднего Востока. Постройка железной дороги имела важнейшее значение, так как создавала угрозу крупнейшей английской колонии - Индии.

Активная деятельность Германии в Турции вызвала тревогу в России, Франции и Англии. Германские деловые и политические круги , которые считали себя «обделенными», преследовали более обширные задачи: захват английских, французских и бельгийских колоний, установление протектората над Бельгией, захват французского железнодорожного бассейна Бриэ, русской части Польши, прибалтийских губерний, Литвы, Белоруссии и Украины. Сложные отношения Германии были также и с Францией, она готовила реванш, не смирившись с поражением в войне 1870-1871 г.

В конце XIX - начале XX в. началось сближение между Францией и Англией. Они поставили своей главной целью разгром наиболее опасного конкурента - Германии. Англо-французские переговоры о сближении были ускорены русско-японской войной, которая отвлекла силы России от европейского района. 8 апреля 1904 г. между Англией и Францией было подписано соглашение о разделе колоний в Африке.

В дальнейшем Англия начала делать попытки привлечь на свою сторону Россию. Она понимала, что исход будущей схватки с Германией во многом будет зависеть от того, на чьей стороне будет Россия с ее многомиллионной армией. Эта задача для Англии облегчалась тем, что Россия находилась в политическом союзе с Францией.

В конце XIX в. приоритеты внешней политики связаны с ее традиционными направлениями: Балканский регион, проблемы черноморских проливов, дальневосточный узел противоречий. У России в этот период имелись два равноценных врага - Англия и Германия.

В этот период с самой России произошли серьезные политические события, такие как русско-японская война 1904-1905 г. и революция 1905-1907 г., которые во многом повлияли на внешнюю политику России. Она потерпела поражение в русско-японской войне и С.Ю. Витте по этому поводу сказал: «И не Россию разбили японцы, не русскую армию, а наши порядки, или правильней, наше мальчишеское управление 140-миллионным населением» [5].

Также революция в 1905-1907 г. повлияла на расстановку сил и во внешней политике. Черносотенное дворянство, крупные помещики считали, что активная внешняя политика может отвлечь от главной задачи - борьбы с революционным движением. И, по их мнению, следует проводить осторожную внешнюю политику, без риска и конфликтов. Дворянство, помещики стояли за тесные отношения с Германией, против сближения с Англией: такое положение обеспечило бы спокойствие на западных границах и вооруженную помощь в случае революции. Кроме того, часть русских помещиков, связанная с германским рынком, боялись его лишиться. Часть дворянства и помещиков ориентировалась на Антанту, стояла за союз с Францией и Англией, была связана с их капиталом и биржами. Русская буржуазия считала, что именно такой союз может привести к успеху в войне с Германией и Австро-Венгрией. У буржуазных и помещичьих партий было два главных постулата. Во-первых, восстановление и упрочнения положения России на международной арене. Во-вторых, большинству партий правительственного и либерального лагеря было присуще ясное осознание того, что англо-германское соперничество являлось в то время доминирующим фактором международных отношений. Победа Англии сопровождалось бы меньшим нарушением европейского равновесия, нежели победа Германии, которая грозила России низведением ее до уровня второстепенной державы. Поэтому в политических лагерях царило единодушие все они выступали за укрепление союза с Францией и отношений с Англией при сохранении свободы балансирования между Антантой и Тройственным союзом[6].

На внешнюю политику России влияли два главных сдерживающих фактора: во-первых, неподготовленность армии к военным акциям крупного масштаба, во-вторых, революционное движение в России, грозившее в случае войны перерасти в революционный взрыв.

Важным этапом в истории международных отношений начала XX в. явилось англо-русское соглашение от 31 августа 1907 г. по средневосточным вопросам. Это соглашение явилось важнейшим этапом в оформлении Тройственного согласия. Все более вырисовывались контуры двух враждебных друг другу военно-политических группировок - Тройственного союза и Антанты, политика которых в течении целого ряда десятилетий состояла в непрерывном экономическом соперничестве из-за того, как господствовать над всем миром, как душить маленькие народности, как обеспечить себе тройные и десятерные прибыли банковского капитала, захватившего весь мир в цепь своего влияния.

**Выводы.** В результате агрессивной политики Германии значительно портятся русско-германские отношения, что влияет на еще большее сближение с Англией. За 1906-1914 г. России удалось улучшить свои отношения с Францией, Англией, Японией, Сербией, Черногорией, частично с Румынией и Италией и ей не грозила дипломатическая изоляция и был обеспечен тыл. Но русской дипломатии так и не удалось усилить свое влияние в Болгарии и Турции. Отношения же с Германией и Австро-Венгрией обострились до крайней степени, так, что неизбежность войны стала реальностью.

**ЛИТЕРАТУРА**

1. Сборник договоров России с другими государствами 1856-1917 гг. Москва, 1952. - С. 124.
2. Ерусалимский А. С. Бисмарк. Дипломатия и милитаризм. Москва, 1968. - С. 102.
3. Из Берлинского трактата. Практикум по новой истории. Москва, 1989. - С. 36-39.
4. Широкорад А. Б. Германия: противостояние сквозь века. Москва, 2008. - С. 78.
5. Радциг Е.С. Николай II в воспоминаниях приближенных // Новая и новейшая история. 1999. № 2. - С. 134-146.
6. Аветян А.С. Русско-германские дипломатические отношения накануне Первой мировой войны (1910-1914 гг.) Москва, 1975. - С. 33.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UO‘K:: 94(47)**

***Ikmatulla YELMURATOV,***
*Qoraqalpoq davlat universiteti O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston tarixi kafedrasi mudiri, PhD*
*E-mail: elmuratov.ikmet@mail.ru*

*T.f.d., prof. D.Urakov taqrizi asosida*

## THE HISTORY OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN (1991-2018)

Annotation
This article describes the changes in the field of education in the Republic of Karakalpakstan over the years of independence, specific areas of development, reforms, expansion of education, opening of higher educational institutions, faculties, specialties, postgraduate studies, doctoral studies, student admission quotas, the possibility of staff expansion, major reconstruction, repair work, qualified specialists, information about councils is described.
**Key words:** Higher education, reforms, KSU, NSPI, Nukus branch of TPMI, Agrarian University, Nukus branch of TUIT, scientific research. Scientific schools.

## ИСТОРИЯ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН (1991-2018 ГГ.)

Аннотация
В данной статье описываются изменения в сфере образования в Республике Каракалпакстан за годы независимости, конкретные направления развития, реформы, расширение образования, открытие высших учебных заведений, факультетов, специальностей, аспирантура, докторантура, квоты приема студентов, возможность расширения штата, капитальная реконструкция, ремонтные работы, квалифицированные специалисты, описана информация о советах.
**Ключевые слова.**: Высшее образование, реформы, КГУ, НДПИ, Нукусский филиал ТОШПМИ, Аграрный университет, Нукусский филиал ТУИТ, научные исследования. Научные школы.

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM MUASSASALARI TARIXI (1991-2018 YILLAR)

Annotatsiya
Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida mustaqillik yillarida ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar, o‘ziga xos rivojlanish yo‘nalishlari, islohotlar, ta’lim sohalarining kengayishi, Oliy ta’lim muassasalarining ochilishi, fakultetlar, mutaxasisliklar, aspirantura, doktorantura, talabalarning qabul kvotalari, kadrlarga bo‘lgan extiyoj, kapital-rekonstrusiya, ta’mirlash ishlari, malakali mutaxasislar, Kengashlar haqida ma’lumotlar bayon etiladi.
**Kalit so‘zlar:** Oliy ta’lim, Islohotlar, QQDU, NDPI, ToshpMI Nukus filiali, Agrar universiteti, TATU Nukus filiali, Ilmiy tadqiqot. Ilmiy maktablar.

**Kirish**. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilganligida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora- tadbirlar ko‘rsatilib o‘tilgan. Sababi Oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash davlat istixboli hisoblanadi. Oliy ta’lim tizimi mamlakat taraqqiyotini va yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**. Muayyan davrning tarixiy sharoitlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari tarixi, ularning faoliyati qonunchilik asoslarining shakllanishi bog‘liq masalalar bir qator tadqiqotchilarning izlanishlarida tahlil qilingan. Muammoni o‘rganilganlik darajasini tahlil qilish, mavzu bo‘yicha birlamchi arxiv hujjatlari, XXI asr ilm fan sohasidagi o‘zgarishlar, o‘ziga xos rivojlanish yo‘nalishlari, islohotlar, ta’lim sohasida o‘zgarishlar, Oliy ta’lim muassasalari tarixi, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ilmiy xulosalar chiqarish zarurligini ko‘rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Tarixiy-qiyosiy hamda umumiy tahlillar asosida xulosa berish, holislik, ilmiylik, tarixiy yondoshuv, tizimlashtirish tadqiqotning metodologik asosini tashkil qiladi.

**Tahlil va natijalar**. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti respublikamizdagi eng yirik oliy ta’lim muassasasi hisoblanib[1], 1992 yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengashining 274 sonli Qarori bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti (Bundan keyin: QDU. – U. X ) deb qayta nomlandi [2].159 QDU da 1993-1994-o‘quv yilida 32 nafar fan doktori va professorlar, 146 nafari fan nomzodi va 52 nafar dotsentlar, jami 389 nafar professor- o‘qituvchilar faoliyat yuritdi [3].160 2000-2001-o‘quv yilida QDU da 12 fakultet, 47 ta kafedra mavjud bo‘lib, ularda 414 professor-o‘qituvchi, 18 nafari fan doktori, 12 nafari professor, 162 nafari fan nomzodi va 98 nafari dotsent.Talabalar soni esa 5296 nafar, shulardan 3955 nafari kunduzgi bo‘limda, 1341 nafari sirtqi bo‘limda ta’lim olishgan [4]. 2011-2012-o‘quv yilida jami 7 ming 127 nafar talabaga 612 nafar professor-o‘qituvchilar ta’lim tarbiya berdi. 2018 yilga kelib bu oliy o‘quv yurtida 49 ta bakalavr ta’lim yo‘nalishi va 24 ta magistr mutaxassisiligi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlandi.

Universitetda 10 ta fakultet, 40 ta kafedra va magistratura bo‘limlari mavjud bo‘lib, 9000 dan ortiq talabalarga 600 nafar professor-o‘qituvchilar ta’lim berishdi. Ulardan 27 nafari fan doktori va professorlar, 9 nafari falsafa doktori (PhD), 169 nafari fan nomzodlari va dotsentlardir [5]. Agar 1992-1993-o‘quv yilida universitet o‘quv bazasida 48 ta

kabinet, 34 ta laboratoriya, 4 ta lingafon kabinetlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2000- 2001-o‘quv yilida 62 ta kabinet, 47 ta umumiy laboratoriya, yana qo‘shimcha Nukus harbiy garnizonida 4 ta laboratoriya va 16 katta auditoriyadan iborat bo‘lgan, kompyuterlar soni oshdi va ular 209 taga yetdi [6].165Innovatsion xarakterga ega axborot-kommunakatsiya texnologiyalari bilan taminlash o‘sib borgan. 2011-2012-o‘quv yiliga kelib 1 ming 51 ta zamonaviy kompyuterlarga ega bo‘ldi. Ulardan 815 tasi bevosita o‘quv jarayonida foydalanildi [7].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi 2011 yil 20 maydagi PQ-1533-son Qarori asosida 2014-2016 yillar davomida universitetda 13 mlrd 150 mln so‘m mablag‘ga kapital-rekonstrusiya, ta’mirlash ishlari olib borildi.168 1990 yil Nukus davlat universitetining 4 ta fakulteti asosida Nukus davlat pedagogika instituti tashkil topdi. Dastlab mazkur o‘quv yurtida 2271 talaba tahsil olgan va 116 o‘qituvchi 17 nafar texnik xodimlar faoliyat yuritgan bo‘lsa [8],1991-1992-o‘quv yilida institutda 3391 nafar talaba tahsil olgan, shundan 2177 nafar talaba kunduzgi, 1214 nafar talaba sirtqi bo‘limda ta’lim olgan [9]. Kafedralar soni 39 taga yetdi.

Kafedralarda 2 ta O‘zbekiston Respublikasi FA muxbir a’zosi, 9 nafar fan doktori, 89 nafar fan nomzodi, 9 nafar professor va 27 nafar dotsent faoliyat yuritgan. Institut moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, kafedralar zaruriy asbob-uskunalar bilan ta’minlanganligi mazkur davrda 3 baravarga ortdi. Institutni innovatsion texnologiyalar bilan ta’minlashga katta e’tibor qaratildi va 54 ta laboratoriya xonalari, 5 ta lingafon kabineti, 4 ta dialog kabineti, 2 ta “KUVT”, “Tashkent” tipidagi 2 ta “OSIYO” tipidagi 1 ta “ISKRA” tipidagi, 60 o‘ringa mo‘ljallangan 5 ta displey sinfi, 56 o‘ringa mo‘ljallangan 2 ta kalkulyator sinflari tashkil qilindi [10].172 2009-2010 o‘quv yiliga kelib institutda 9 fakultet, 28 ta kafedra, bo‘lib, ularda 490 nafar professor-o‘qituvchilar faoliyat olib bordi. 173 Mazkur o‘quv yilida institutda 33, 5 miln so‘m mablag‘ga 24 dona kompyuter, 6 ta printer, 2 dona ko‘p funksiyali nusxa ko‘chirish apparati olindi [11].174 Innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’minlashga keyingi yillarda ham e’tibor ortib bordi.

Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Nukus filiali Orol bo‘yi aholisining sog‘lig‘ini saqlash va yuqori malakali tibbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, pediatriya mutaxassislarini tayyorlash maqsadida tashkil qilinib, 1991 yil 1 oktabridan faoliyat ko‘rsata boshladi [12].

Filialning ochilishi ekologik inqiroz markazi bo‘lgan Orol mintaqasini bolalar shifokorlari bilan ta’minlash imkonini kengaytirdi. Filialda bolalar shifokori (pediatr), bolalar jarrohligi va boshqa mayda tarmoq shifokorlari tayyorlanmoqda. Mazkur o‘quv dargohi Orolbo‘yi xalqlarini davolashning yangi usullarini izlab, ekologik talofatning oldini olish yo‘llarini topib, tibbiyotni yangi bilimlar bilan boyitishga xizmat qilmoqda.

Institut bolalarni ekologik talofat ta’siridan saqlash bo‘yicha ishlar olib boradi, ularga tashxis qo‘yish usullarini ilmiy tadqiq etadi. Bu yerda bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi tadqiq qilindi, ularning immunologik, bioximik, genetik o‘sishi o‘rganiladi.

1996-1997-o‘quv yillarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Nukus filiali Berdaq nomidagi QDUning meditsina fakulteti bo‘lib qayta qo‘shildi. 1998-1999 o‘quv yilidan e’tiboran u Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Nukus filiali bo‘lib qayta tuzilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tassarrufiga o‘tkazildi [13]. Mazkur yilda “Davolash ishi” fakulteti tashkil qilinib, yillik qabul 160 nafar talabaga yetdi.177 Filial professor-o‘qituvchilari 1997-1999-yillarida Respublika fan va texnika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan “Orol bo‘yi mintaqasida yosh bolalarda ko‘p uchraydigan kasalliklarda ikkinchi darajali immunitet yetishmovchiligining klinik-immunologik xususiyatlari, ularni davolash va prognoz qilish uslublarini ishlab chiqish” kabi 7 ta mavzuda ilmiy ish ustida ilmiy tadqiqot olib borildi. Ilmiy ishlari natijalari bo‘yicha 1ta patent va 1 ta sertifikat olindi [14]. Professor-o‘qituvchilar tomonidan 3 ta monografiya, 14 ta uslubiy qo‘llanma chop etildi. 20 dan ortiq ilmiy maqolalar e’lon qilindi.

2000-2001-o‘quv yilida ToshpMI Nukus filialida 20 ta kafedra mavjud bo‘lib, ularda 167 nafar o‘qituvchi, shulardan 10 nafari fan doktorlari, 42 nafari fan nomzodlari 2008-2009 o‘quv yilda esa 24 ta kafedra mavjud bo‘lib, ularda 180 nafar professor-o‘qituvchi ish faoliyatini olib borishgan. Talabalar soni esa 1100 nafarni tashkil qilgan.

Filialdagi mavjud o‘quv-laboratoriyalari zamonaviy asbob uskunalar bilan jihozlangan [15]. Bu ta’lim muassasasini 27 yil davomida 3700 nafardan ortiq talaba bitirib va ular bugungi kunda 10 dan ortiq davlatlarda o‘z ish faoliyatlarini yuritishmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 28 fevraldagi “Respublikaning yangi oliy o‘quv yurtlarini tashkil qilish to‘g‘risida”gi PF-356-son Farmoni [16] asosida 1992 yil Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining agrar fakulteti bazasida Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filiali tashkil qilindi. Filialning 2 ta (“Agronomiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish”, “Zootexnika”) fakultetida 9 ta kafedra, 12 ta laboratoriya va 20 ta kabinet faoliyat yuritadi, ularda 14 ta bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi [17].

2010-2011-o‘quv yilida bu bilim dargohida 958 nafar talaba bilim olishgan, ularga 71 nafar professor-o‘qituvchi, shundan 8 nafari fan doktori va professorlar, 29 nafari fan nomzodlari va dotsentlar,talabalarga ta’lim berishdi. Filialida o‘quv, ilm va ishlab chiqarishni integratsiyalash maqsadida 7 ta innovatsion guruh faoliyat olib bormoqda va 19 ta karxona bilan hamkorlik shartnomalari tuzilib, tegishli ishlar yuritilmoqda.

Bugungi kunda bu ta’lim dargohida 1635 nafar talabaga 160 nafar professor-o‘qituvchi ta’lim berishmoqda. Shundan 7 nafari fan doktori va professor, 60 nafari fan nomzodlari va dotsentlar. Filialning ilmiy salohiyati 41,9 foizni tashkil qiladi.

Toshkent Axborot Texnologiyalari universitetining Nukus filiali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 2 iyundagi «Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi PQ-91-son Qarori asosida tashkil qilindi. Oliygoh tashkil qilingan vaqtda «Axborot texnologiyalari» fakulteti bilan birga «Axborot va axborot texnologiyalari», «Tabiiy va umumiy kasbiy fanlar», «Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar» kafedralari mavjud bo‘lib, ularda 4 ta bakalavriyat yo‘nalishi bo‘yicha 452 nafar talabalarga 32 nafar professor-o‘qituvchilar malakali bilim berishdi. [18] Bugungi kunda filialda 2 ta fakultet, 6 ta kafedra, 8 ta bo‘lim, 2 ta markaz va 1ta sektor ish faoliyatini olib bormoqda va bakalavriyatning 6 yo‘nalishi bo‘yicha magistraturaning 2 ta ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Qoraqalpog‘istonda madaniyat va san’atni rivojlantirish, iqtidorli yoshlarning sahna mahoratini yuksaltirish maqsadida 2008 yil 28 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Davlat san’at institutining Nukus filialini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-845-son [19] Qarori asosida Nukus shahrida O‘zbekisiton davlat san’at institutining Nukus filiali ochildi! Bu o‘quv dargohi tashkil qilingan yili 2 ta yo‘nalishga 25 nafar talaba qabul qilindi. 192

2011-2012 o‘qish yilida ta’lim muasasasini 2 ta mutaxassislik “Drama teatri va kino aktyorligi” va “Sahna va san’at dramaturgiyasi” bo‘yicha ilk bitiruvchilar o‘qishni bitirishdi. Bugungi kunda oliygohda 8 ta yo‘nalish bo‘yicha 228 nafar talaba ta’lim olmoqda.Shuningdek, filialda 2 ta “Rejissyor va aktyorlik mahorati” va “Ijtimoiy-gumanitar va san’atshunoslik” kabi kafedralar mavjud.

Filialning ochilishi respublikada teatr, kino, televideniye, radio yo‘nalishlari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda muhim voqea bo‘ldi.

Filial tashkil qilingan davrda 1 nafar ham fan nomzodi yo‘q edi. Hozir kunda bu dargohda 7 nafar fan nomzodi, 1 nafar dotsent, 19 nafar katta o‘qituvchi faoliyat yuritmoqda. Filial ilmiy salohiyati 31,8 % ni tashkil etadi [20]. So‘nggi besh yil ichida filialning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti tomonidan 1 mlrd 432 mln 260 ming so‘mlik innovatsion xarakterga ega o‘quv- texnik anjomlari, darsliklar va o‘quv-laboratoriya anjomlari, zamonaviy kompyuter sinflari yetkazib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 13 noyabrdagi Nukus shahrida yana 3 ta oliy ta’lim muassasalari “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filialini” [21] “Navoiy davlat konchilik institutining Nukus filialini” [22] “Samarqand veterinariya meditsinasi institutining Nukus filialini” [23] tashkil qilish to‘g‘risida Qaror qabul qilindi.

**Xulosa.** Qoraqalpog‘iston Respublikasida 1991 yil 3 ta oliy ta’lim muassasasi, shundan 1 ta universitet, 1 ta institut, 1 ta filial faoliyat yuritgan. Ularning zamonaviy o‘quv-laboratororiya jihozlari bilan ta’minlanganligi 23 foizni, kompyuter va innovatsion axborot texnologiyalari bilan ta’minlanganligi 13,3 foizni tashkil qilgan[24]. Bu oliy ta’lim yurtlarida 604 nafar professor-o‘qituvchi, shundan 2 nafar akademik, 10 nafar fan doktori va professor, 86 nafar fan nomzodlari va dotsentlar, 9865 nafar talabaga ta’lim berishgan.200 2010 yilga kelib, Respublikada oliy ta’lim muassasalari soni 6 taga yetdi. Shundan 1 ta universitet, 1 ta institut, 4 ta oliy o‘quv yurtlari filiallari faoliyat ko‘rsatib, ularning o‘quv- laboratoriya jihozlari bilan ta’minlanganligi 78 foizni, kompyuter va axborot texnologiyalari bilan ta’minlanganligi 80 foizni tashkil qildi.

Professor-o‘qituvchilar miqdori esa 1412 nafarga yetdi, ulardan 4 nafari akademik, 64 nafari professor, 12 nafari fan doktori, 373 nafari fan nomzodlari bo‘lib, ulardan 16296 nafar talaba ta’lim olishgan.201 Hozirgi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan 9 ta oliy o‘quv yurtida barcha sohalar bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda.

## ADABIYOTLAR


1. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 11 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 91. – Бердақ номидаги ҚДУ 1976 йили Нукус шаҳрида Қорақалпоқ педагогика институти негизида ташкил қилинган
2. Абдиназимов Ш. Қарақалпақ мәмлекетлик университети. – Нөкис: Билим, 2017. – Б. 10.
3. Уразбаева Р., Утениязов Қ., Ибрагимова У. Қарақалпақ мәмлекетлик университетине 25 жыл.–Нөкис: Билим, 2004. – Б. 26.
4. Ортиқбоев А. Истиқлол берган имконият.// Қорақалпоғистон тонги. – 2012. – 7 июнь
5. Реймов А. Ийгиликли ислер уллы мақсетлерди гөзлейди. // Еркин Қарақалпақстан. – 2018. – 30 августь.
6. Халқназаров М. Халқ билимлендириўи - Ғәресизлик жылларында. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2001. – Б. 20.
7. Ортиқбоев А. Истиқлол берган имконият.// Қорақалпоғистон тонги. – 2012. – 7 июнь.
8. Уразбаева Р. Дж. Из истории высшего и среднего специального образования в Каракалпакстане. – Нукус: Каракалпакстан, 1994. – С. 80.
9. ЎзР МДА, М. 26 – жамғарма, 1 – рўйхат, 29 – йиғма жилд. 10 – варақ.
10. Базарбаев Б., Алламбергенов К., Аяпов Ш., О. Юсупов. Әжинияз атындығы Нөкис мәмлекетлик techinститутына 60 жыл. – Нөкис: Билим, 1994. – Б. 90
11. Теберик билим дәргайы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2010. – Б. 62.
12. ҚР МДА, 469-жамғарма, 1 –рўйхат, 49-йиғма жилд, 3- варақ.
13. Мамбетов Ж. Шыпакерлер таярлаў мектеби. //Қарақалпақстан жаслары. – 2012. – 23 феврал.
14. ҚР МДА, 469-жамғарма, 1-рўйхат, 16-йиғма жилд, 104- варақ.
15. Алексеева Г. Дорога в медицину. // Вести Каракалпакстана. – 2015. – 11 апрель.
16. Республиканинг янги олий ўқув юртларини ташкил қилиш тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 28 февралдаги ПФ-356-сон Фармони // https://www.lex.uz/docs/643035
17. Турғанбаев Р. Ауыл хожалығына жетик қәнигелер зәрур. // Еркин Қарақалпақстан. – 2011. – 11 апрель.
18. Қайпбергенов Б. Информациялық технологиялар турмысымиздың ажыралмас бөлеги //Еркин Қарақалпақстан. – 2011. – 28 апрел.
19. Ўзбекистон Давлат санъат институтининг Нукус филиалини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 28 апрелдаги ПҚ-845-сон Қарори // http://www.lex.uz/docs/1348649
20. Палуаниязов П. Биз ушын ең әзиз дәргай. // Ўзбекиистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиалининг “Мустақиллик йилларида театр санъатининг ривожланиш йўллари” мавзусидаги республика илмий-назарий конференция материаллари. – Нукус, 2018. – Б.3-4-5
21. Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университетининг Нукус филиалини ташкил этиш тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 13 ноябрдаги 924-сон Қарори // http://www.lex.uz/docs/4058447
22. Навоий давлат кончилик институтининг Нукус филиалини ташкил этиш тўрисида: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 13 ноябрдаги 925-сон Қарори // http://www.lex.uz/docs/4058455
23. Самарқанд ветеринария медицинаси институтининг Нукус филиалини ташкил этиш тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 13 ноябрдаги 926-сон Қарори // http://www.lex.uz/docs/4058518
24. Елмуратов, И. Г. (2020). История реформ в сфере образования республики Узбекистан. In Астраханские Петровские чтения (pp. 49-50).

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 575.176

***Nosirjon JO‘RABOYEV,***
*Toshkent Davlat transport universiteti dotsenti, tarix fanlar nomzodi*
*E-mail: juraboyevnosir4@gmail.com*

*TDTrU professori, A.Dadasheva taqrizi asosida*

**THE PARTICIPATION OF EASTERN COUNTRIES IN THE FAIR FAIR TRADE AND THE PROBLEM OF ORGANIZING AN INTERNATIONAL FAIR IN CENTRAL ASIA (1920s)**

Annotation
This article examines the participation of Eastern countries in Soviet trade fairs in the 20s of the last century, the activities of economic departments of Central Asia in this matter, that is, the organization of an international trade fair in the region, as well as the position of central foreign trade organizations in relation to it. This is explained in historical materials of that period.
**Key words:** The Great Silk Road, Xi'an, trade, economics, fair, Nizhny Novgorod Fair, Baku Fair, Tashkent, Eastern Chamber of Commerce and Industry of Russia, Chamber of Commerce and Industry of Central Asia, Central Asian Economic Council, trading companies.

**УЧАСТИЕ СТРАН ВОСТОКА В ЯРМАРКЕ ЯРМАРОЧНАЯ ТОРГОВЛЯ И ПРОБЛЕМА ОРГАНИЗАЦИИ МЕЖДУНАРОДНОЙ ЯРМАРКИ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (1920-е гг.)**

Аннотация
В данной статье рассмотрено участие стран Востока в советских торговых ярмарках в 20-е годы прошлого века, деятельность экономических ведомств Центральной Азии в этом вопросе, то есть организация международной торговой ярмарки в регионе, а также позиция по отношению к ней центральных внешнеторговых организаций.Это объясняется в исторических материалах того периода.
**Ключевые слова:** Великий шелковый путь, Сиань, торговля, экономика, ярмарка, Нижегородская ярмарка, Бакинская ярмарка, Ташкент, Восточная торгово-промышленная палата России, Торгово-промышленная палата Средней Азии, Среднеазиатский экономический совет, торговые фирмы.

**SHO‘RO YARMARKA SAVDOSIDA SHARQ MAMLAKATLARINING ISHTIROKI VA O‘RTA OSIYODA XALQARO YARMARKA TASHKIL ETISH MASALASI (XX ASRNING 20-YILLARI)**

Annotatsiya
Mazkur maqolada Sharq mamlakatlarining o‘tgan asrning 20-yillarida Sho‘ro savdo yarmarkalaridagi ishtiroki, O‘rta Osiyo iqtisodiy idoralarining ushbu masalada, ya’ni mintaqada xalqaro savdo yarmarkasini tashkil etish borasidagi faoliyati va markaziy tashqi savdo tashkilotlarining unga nisbatan tutgan pozitsiyasi o‘sha davr tarixiy materiallari aosida yoritib berilgan.
**Kalit so‘zlar:** Buyuk ipak yo‘li, Sian, savdo, iqtisod, yarmarka, Nijegorod yarmarkasi, Boku yarmarkasi, Toshkent, Rossiya Sharq Savdo Palatasi, O‘rta Osiyo Savdo Palatasi, O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi, savdo firmalari.

**Kirish.** XIX oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator savdo yarmarkalari – Kuyandin, Sergipol, Kuchalin, Vernen, Qarqara, Qorako‘l, Otboshi, To‘qmoq, Pishpak, Uilsk, Temir va Avliyoota kabilar faoliyat yuritgani iqtisodiyotimiz tarixidan bizga ma’lum. Turkiston jo‘g‘rofiy jihatdan Buyuk ipak yo‘lining muhim yo‘nalishida joylashgan bo‘lib, qadimdan g‘arbu sharq savdosida katta o‘rin tutgan. Ko‘hna Sian shahridan yo‘lga chiqqan karvonlar G‘arbiy Xitoy orqali Sharqiy Turkistonning Qashg‘ar va Urumchi shaharlariga kelganlar hamda bu yerdan Shimolga – Rusiyaga yo‘l olganlar. Shu o‘rinda Rusiyaning Sharq mamlakatlari bilan olib borgan savdo-iqtisodiy munosabatlarida Turkistonning vositachilik mavqei g‘oyat diqqatga sazovordir. Sharq mamlakatlarining Rusiya hududidagi xalqaro yarmarkalardagi qizg‘in ishtiroki, asosan, o‘tgan asrning (XX) 20-yillari boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu o‘rinda, 1922 yil qayta tashkil qilingan Nijegorod (Nijnыy Novgorod) savdo yarmarkasining ahamiyatini alohida ta’kidlash kerak (Nijegorod yarmarkasi 1817-1822 yillar oralig‘ida tashkil topgan bo‘lib, 1918 yilgi fuqarolar urushi yillarida o‘z faoliyatini to‘xtatgan edi– J.N.).

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur yarmarkaning qayta tashkil etilgan birinchi yilida (1922 yil) 29 ta xorijiy Sharq firmasi ishtirok etdi. Bular, asosan, Eron savdo firmalari edi. RSFSR tashqi savdo xalq komissarligi tomonidan 1923 yil Afg‘oniston va Eron bilan bo‘ladigan savdoda litsenziyasiz tartibni joriy etilishi natijasida sharqlik savdogarlarni yarmarkadagi ishtiroki ham faollashib bordi. Shu yili unda qatnashgan Sharq firmalari soni 76 taga, keyingi yili (1924 yil) 237 taga, 1925 yili 259 taga, 1926 yili esa 361 taga yetdi [1]. Yoki, 1925 yilda yarmarka savdosining umumiy miqdori 150 million so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, shuning 13,2 million so‘mi Sharq – Xitoy, Turkiya, Mongoliya va Iroq hissasiga to‘g‘ri keldi [2].

**Tadqiqot metodologiyasi**. Shu bilan birga, xorijiy Sharq mamlakatlarini Nijegorod yarmarkasiga yanada faol jalb qilish maqsadida Turkiston miqyosida ham bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Chunki, Turkistonning jo‘g‘rofiy jihatdan xorijiy Sharq mamlakatlari bilan qo‘shni ekanligi, qolaversa, ular o‘z mollarini shu yerdan olib o‘tganliklarini nazarga olsak, masala o‘z-o‘zidan ravshan bo‘ladi.

**Tahlil va natijalar**. Ana shular e’tiborga olinib, SSJI Mehnat va Mudofaa Kengashining O‘rta Osiyo vakilligi (UpolSTO) tashabbusi bilan 1925 yilgi Nijegorod yarmarkasida Sharq mamlakatlarining izchil ishtirokini ta’minlash maqsadida Rusiya Sharq Savdo Palatasi (RShSP)ning O‘rta Osiyo bo‘limi

qoshida yarmarkaga ko‘maklashuvchi byuro tashkil etildi. Byuro tarkibiga Toshkentdagi Eron va Afg‘oniston elchilari kirgan bo‘lib, ularga yarmarkaga oid ma’lumotlar yetkazib turildi. Shuningdek, RSShPning O‘rta Osiyo bo‘limi o‘zining maxsus nashri – “O‘rta Sharqning savdosi” oynomasiga uch tilda (o‘zbek, rus, fors) “1925 yilda Nijegorod yarmarkasi” degan alohida ilova chop etib, uni Sharq mamlakatlariga bepul tarqatdi. Keyinroq, Toshkent mol birjasi Nijegorod yarmarkasiga hamkorlik qiluvchi qo‘mita tuzdi. “O‘rta Osiyo savdo byulleteni”ning bergan ma’lumotiga ko‘ra, mazkur qo‘mita zimmasiga O‘rta Osiyo savdo tashkilotlari va sharqlik savdogarlarni yarmarka shart-sharoitlari, berilga imtiyozlar, mollar miqdori va sado-sotiqqa doir boshqa masalalar bilan tanishtirib borish vazifasi yuklatilgan edi [3].

Xulosa qilib aytganda, Rusiya savdo-iqtisodiy tashkilotlari O‘rta Osiyo vositachiligida uddaburonlik bilan ish tutib, xorijiy Sharq firmalarini jo‘g‘rofiy jihatdan ancha olisda joylashgan Nijegorod yarmarkasida qizg‘in ishtirok etishlarini ta’minlashga muvaffaq bo‘ldi. 1926 yili o‘tkazilgan Nijegorod yarmarkasida 361 Sharq savdo firmasi qatnashganligi buning dalili bo‘la oladi.

Xo‘sh, tashqi iqtisodiy aloqalar borasida bir qator erkinliklar bergan Yangi Iqtisodiy Siyosat (YaIS-NEP) sharoitida O‘rta Osiyo iqtisodiy idoralari mazkur masalaga qanday munosabatda bo‘lgan edilar? Umuman, bu vaqtda tashqi savdo sohasida ahvol qanday edi?

Dastavval shuni afsus bilan qayd etish lozimki, mintaqada o‘tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi (1924 yil), bu hududda asrlar bo‘yi tarixan tarkib topgan iqtisodiy birlikni parchalab yuborishni boshlanishi bo‘ldi. Ammo shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmas edi. 1926 yil noyabrda markazga batamom bo‘ysinuvchi idora – O‘rta Osiyo Iqtisodi Kenggashi tuzildi. Biroq bu Kengashning uzoq yashamagani ma’lum, u VKP(b) MKning Siyosiy Byurosi tashabbusi bilan 1934 yilda tugatildi. Buning ustiga, mazkur Kengash tashqi savdo sohasida mustaqil huquqqa ega bo‘lmagandi. Shunga qaramasdan, ba’zi iqtisodiy idoralarimizda markazning tazyiqidan qatiy nazar tashqi savdo aloqalarida erkinlikka intilish mayllari ham bo‘lganligini ta’kidlamaslik mumkin emas. Axir, ular busiz xalqaro bozorga chiqishning hech qachon iloji bo‘lmasligini tushinib yetgan edilar.

Xususan, RShSPning O‘rta Osiyo bo‘limi mustaqil Palata maqomini olganligi bu boradagi dastlabki yutuq bo‘lgan edi. O‘rta Osiyoning qo‘shni Sharq mamlakatlari bilan 20-yillarda olib borilgan savdo-iqtisodiy munosabatlar tarixida mazkur Palataning benihoya ulkan o‘rni borki, bu alohida mavzuni taqozo etadi. Birgina biz qalamga olayotgan yarmarka masalasi ham ayna shu Palatağa tegishli tashabbus bilan bevosita bog‘liqdir.

Nijegorod va Boku xalqaro yarmarkalarida Sharq savdo firmalarining qizg‘in ishtiroki shuni ko‘rsatar ediki, ularda sanoat mollariga ehtiyoj g‘oyat katta bo‘lib, agar jo‘g‘rofiy jihatdan yanada qulayroq joyda yarmarka tashkil etilsa, u shubhasiz, muvaffaqiyat qozonishi mumkin edi. Ana shu ma’noda O‘rta Osiyo hududida xalqaro ahamiyatga molik savdo yarmarkasi tashkil etish kun tartibiga qo‘yildi [4].

Bunday iqtisodiy tadbirni o‘tkazish yana shuning uchun ham muhim ediki, Nijegorod yarmarkasidan keyin – yilning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo chegarasida Eron, Afg‘oniston va G‘arbiy Xitoy bilan molayirboshlash darajasi ma’lum miqdorda qisqarib ketardi. Chunki, Sharq savdo firmalari yarmarkadan katta miqdorda mol xarid qilar va bu hol kelasi oylarda O‘rta Osiyo eksport mollariga bo‘lgan ehtiyojni sezilarli darajada pasayib ketishiga olib kelar edi. Bundan tashqari, mazkur masalada turli xil qarashlar ham mavjudligi tez orada ma’lum bo‘lib qoldi. RShSPning O‘rta Osiyo bo‘limi ushbu masala bo‘yicha mavjud savdo tashkilotlari fikrini bilish maqsadida maxsus so‘rov (anketa) uyushtirdi. Unda O‘rta Osiyo hududida amal qilayotgan 31 ta savdo-iqtisodiy tashkilotidan ma’lumotlar olindi. Shundan 26 tasi xayrixoh, qolganlari rad javoblari bo‘lib chiqdi. Shunga qaramay, RShSPning O‘rta Osiyo bo‘limi xalqaro savdo yarmarkasi tashkil etish lozim deb topdi [5].

“Qizil O‘zbekiston” ro‘znomasida e’lon qilingan “O‘rta Osiyo yarmarkasi” nomli bir maqolada yarmarka tashkil etish uchun o‘lkada zarur shart-sharoitlar mavjud ekanligi to‘g‘risida quyidagi mulohazalar bayon qilingan edi:”O‘rta Osiyo yarmarkasini muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yish uchun uni Nijegorod yarmarkasidan ilgari chaqirish kerak. Uning rivojlanishi va muvaffaqiyatiga quyidagi narsalar kafillik bo‘la olurlar: 1) bizning jo‘g‘rofiy holatimiz; O‘rta Osiyog‘a qo‘shni bo‘lg‘on mamlakatlarning SSSRga yuboradurg‘on va undan sotib olg‘on mollari O‘rta Osiyo ustidan o‘tadur; 2)O‘rta Osiyoning Nijnыy yarmarkasiga qarag‘onda yaqinroq bo‘lishi o‘rta va mayda Sharq savdogarlari uchun juda qulaydur; 3)O‘rta Osiyodagi savdo odatlarining Sharq mamlakatlaridagi savdo odatlarig‘a o‘xshag‘onligidur. Yana Toshkent Boku va boshqa yarmarkalarni Sharq savdomiz bo‘yicha bir-birig‘a bog‘lag‘usidur” [6].

Darvoqe, bordi-yu yarmarka tashkil etilsa, uni qaerda chaqirish masalasi ham keskin tortishuvlarga sabab bo‘lganligini aytib o‘tish kerak. Bir qancha tashkilotlar Turkmanistonning Afg‘oniston va Eron bilan chegaradoshligini nazarda tutib, yarmarkani Marv yoki Chorjo‘yda chaqirishni taklif etgan bo‘lsalar, boshqalar Poltaraskiy (Ashxobod)da, ayrimlar Buxoroni Sharq bilan savdodagi qadimiy shuhratini e’tiborga olib, uni shu yerda chaqirishni tavsiya etdilar [7]. Biroq RShSPning O‘rta Osiyo bo‘limi Nijegorod va Boku yarmarkalari tajribasidan kelib chiqib, ya’ni sharqlik savdogarlar keng ko‘lamda sanoat mollarini sotib olayotganliklarini qayd etib, yarmarkani O‘rta Osiyoning yirik sanoat markazlaridan biri - Toshkentda chaqirish har jihatdan maqsadga muvofiqdir, degan xulosaga keldi [8].

Yarmarka masalasini qat’iy hal etish vazifasi SSJI Mehnat va Mudofaa Kengashi tashabbusi bilan bilan 1926 yilning may oyida Toshkentda o‘tkazilishi lozim bo‘lgan O‘rta Osiyo savdo s’ezdiga topshirildi [9]. Mazkur s’ezdni chaqirish shuning uchun ham zarur ediki, O‘rta Osiyoda ayni vaqtda, tashqi va ichki savdoni tashkil etuvchi yagona tashkilot yo‘q edi. Holbuki, ichki savdo respublika Ichki Savdo Xalq Komissarligi qo‘lida, tashqi savdo esa, SSJI Tashqi Savdo Xalq Komissarligining O‘rta Osiyo vakilligi tasarrufida edi. Boshqacha qilib aytganda, O‘rta Osiyoda mustaqil ish yurutuvchi tashqi savdo tashkilotining o‘zi yo‘q edi. Buning ustiga, makur masalalarni, shuningdek, yarmarka masalasini ko‘rib chiqishi kutilayotgan bu s’ezdni tashkiliy jihatlari hali tayyor emas, degan bahonada ikki marta kechiktirildi. Bu vaqt ichida ichki va tashqi savdoda o‘zgarishlar yuz berib, O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashida mazkur s’ezdni chaqirish endi maqsadga muvofiq emas, degan fikr bildirildi. O‘zbekiston Iqtisodiy Kengashi ham o‘zining 1925 yil noyabrda o‘tkazgan majlisida yangi tashkil topgan O‘rta Osiyo jumhuriyatlarining o‘ziga xos savdo xususiyatlari yuzaga kelayotganligini ro‘kach qilib, bunday s’ezd chaqirishga hojat yo‘qligini ta’kidladi [10].

Shunday qilib, s’ezd chaqirilmadi. Ammo O‘rta Osiyoda xalqaro yarmarka tashkil etish masalasi kun tartibida qolaverdi. Aslida, markaziy savdo idoralari s’ezdni o‘tkazmaslik barobarida, bir yo‘la, yarmarka masalasini ham o‘z foydalariga hal qilmoqchi bo‘lganliklarini tushunish qiyin emas, albatta. Negaki, Nijegord yarmarkasi tashkilotchilariga, qolaversa, RShSP amaldorlariga, basharti O‘rta Osiyoda xalqaro yarmarka chaqirilgudek bo‘lsa, sharqlik mijozlardan mahrum bo‘lishlari sira tinchlik bermasdi. Lekin Sharq bilan bo‘ladigan savdoda O‘rta Osiyo jumhuriyatlarining erkinlikka

intilish mayllari bilan ham hisoblashmaslik mumkin emas edi. 1926 yili RShSPning O‘rta Osiyo bo‘limi mustaqil Palata maqomini olgach, SSJI Mehnat va Mudofaa Kengashining O‘rta Osiyo vakilligi va O‘rta Osiyo jumhuriyatlari Davlat Reja Qo‘mitalari oldiga shu yildayoq mintaqada xalaro savdo yarmarkasini chaqirish masalasini ko‘ndalang qo‘ydi [11].

Afsuski, o‘sha yillarda markazda ham, ayrim mahalliy savdo tashkilotlarimizda ham bu masalani amaliyotga ko‘chirishga jiddiy e’tibor berilmadi. Shunday qilib, 20-yillar iqtisodiy tariximiz sahifasini to‘ldirishi lozim bo‘lgan ajoyib tadbir – O‘rta Osiyo xalqaro savdo yarmarkasi chaqirilmadi. Bu xayrli ish, sirasini aytganda, markaziy savdo idoralarining chekka milliy o‘lkalar tashqi iqtisodiy manfaatlariga bepisandligi, ba’zi mahalliy tashkilotlarimizning esa bu borada tutgan murosasozligining qurboni bo‘ldi.

Mana, oradan qariyb 100 yilcha o‘tdi. Endi, O‘zbekiston mustaqil va ozod. U sobiq Ittifoqning totalitar va o‘ta markazlashtirilgan byurokratik tizimi iskanjasidan qutilib, tashqi va ichki savdo munosabatlarda erkin faoliyat yuritmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston rivojlanish va taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘ydi. U iqtisodiy hamkorlik sohasida ko‘pgina nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a’zosi bo‘lishga erishdi. Biz endilikda tashqi iqtisodiy aloqalar bilan bog‘liq zarur me’yoriy hujjatlarga, o‘z vaziriligimizga egamiz. Respblikada hukm surayotgan ijtimoiy-siyosiy barqarorlik biz bilan jahonning ko‘plab mamlakatlarini dadil sur’atdada iqtisodiy munosabatlarga kirishishiga kafolat bermoqda. Ayni kunlarda esa O‘zbekiston Xalqaro Savdo Tashkilotiga kirish tadorigini ko‘rmoqda

**Xulosa**. Har qanday tashqi iqtisodiy aloqalarni jonlantirish bilan bog‘liq masalalarni hal etish uchun barcha asoslar bor. Agar respublikamizning qilni qirq yoradigan hozirgi iqtisodchilari o‘tgan asrning 20-yillarida o‘z hamkasblari tomonidan ko‘tarilgan – O‘rta Osiyoda xalqaro ahamiyatga molik savdo yarmarkasi tashkil etish to‘g‘risidagi masalani jiddiy o‘ylab ko‘rsalar, foydadan holi bo‘lmas, qolaversa, bu tadbir Xitoy, Hindiston, Eron, Afg‘oniston, Turkiya, Indoneziya, Malayziya va boshqa Sharq mamlakatlari bilan tobora yuksalib borayotgan iqtisodiy aloqalarimizni yanada mustahkamlagan bo‘lur edi. Shu o‘rinda, respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil, 16 sentyabr Samarqandda bo‘lib o‘tgan ShHT sammitida so‘zlagan nutqidagi har yili ShHT yirik savdo yarmarkasini o‘tkazishga, uning asosida yagona elektron platforma yaratishga doir taklifi bu boradagi amaliy qadam bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi [12].

## ADABIYOTLAR


1. “Қизил Ўзбекистон”, 1926 йил, 12-ноябрь.
2. «Торговля Среднего Востока», №9-12, Ташкент, 1925, с.35.
3. ЦГА УзССР. Ф.9., оп.1, ед.хр.2441, л.5.
4. Ўша жойда.
5. Защук С. Проблема международной ярмарки в Средней Азии. – «Торговля Среднего Востока», №9-12, 1925, с.33.
6. “Қизил Ўзбекистон”, 1926 йил,12-ноябрь.
7. “Туркестанская искра”, №4, 5 января, 1926 г.
8. «Торговля Среднего Востока», №9-12, 1925, с.33.
9. Журабаев Н.Ю. История торгово-экономических отношений Средней Азии с Афганистаном и Ираном (1917-1937) – Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Ташкент, 1990 г.
10. ЦГА УзССР. Ф.9, оп.1, ед.хр. 2407, л.3-6.
11. ЦГА УзССР. Ф.9, оп.1, ед.хр. 2441, л.11.
12. Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Шанхай ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатлар раҳбарлари кенгашининг мажлисидаги нутқи. – “Халқ сўзи”, 17-сентябрь, 2022 й.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 94(575.1)

***Ilxom JO‘RAYEV,***
*GulDU Tarix kafedrasi o‘qituvchisi*
*E-mail: ijurayev90@gmail.com*

*O‘z FA MAM katta ilmiy xodimi, t.f.d. G‘.B.Boboyorov taqrizi asosida*

## HISTORICAL VILLAGE OF NAKURT IN ETNOGRAPHIC PLATES

Annotation
In the article, the author analyzes the history of the first village of Nakurt, its geographical location, the way of life of the villagers in the early and developed middle ages, trade-craft relations, as well as historical evidence in the works of scientific researchers, and makes important conclusions.
**Key words:** Nakurt, Nurota, Garasha, Okhum, Sintob, Kuvkalla, Nakurutsoy, Garashasoy, "Russian Turkestan" collection, Morguzar, Koytash, Oktog and Karatog, Bogdon, Sintob, Savruk, Kyzylkum, Otakurgan, Sartkurgan.

## ИСТОРИЧЕСКАЯ ДЕРЕВНЯ НАКУРТ В ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ ПЛАСТИНАХ

Аннотация
В статье автор анализирует историю первого села Накурт, его географическое положение, быт жителей села в раннем и развитом средневековье, торгово-ремесленные отношения, а также исторические свидетельства в трудах ученых. исследователей и делает важные выводы.
**Ключевые слова:** Накурт, Нурота, Гараша, Охум, Синтоб, Кувкалла, Накуруцой, Гарашасой, сборник «Русский Туркестан», Моргузар, Койташ, Октог и Каратог, Богдон, Синтоб, Саврук, Кызылкум, Отакурган, Сарткурган.

## TARIXIY NAKURT QISHLOG‘I ETNOGRAFIK LAVHALARDA

Annotatsiya
Maqolada ilk Nakurt qishlog‘i tarixi, geografik joylashuvi, ilk va rivojlangan o‘rta asrlardagi qishloq aholisining turmush tarsi, savdo-hunarmandchilik aloqalari, shuningdek, ilmiy tadqiqotchilar asarlaridagi tarixiy dalillar asosida muallif tomonidan tahlil qilinadi va muhim xulosalar bildiriladi.
**Kalit so‘zlar:** Nakurt, Nurota, Garasha, O‘xum, Sintob, Quvkalla, Nakurutsoy, Garashasoy, “Russkiy Turkestan” to‘plami, Morguzar, Qo‘ytosh, Oqtog‘ va Qoratog‘, Bog‘don, Sintob, Savruk, Qizilqum, Otaqo‘rg‘on, Sartqo‘rg‘on.

**Kirish.** Nurota tog‘ tizmasining janubiy-g‘arbiy tarmog‘ida, Nakrutsoy havzasida joylashgan qadim tarixga ega bo‘lgan tarixiy qishloq bu Nakrutdir. Nakurt deganda asosan baland tog‘lar bilan o‘ralgan o‘ziga xos go‘zal maydonni egallagan soy va jilg‘a bo‘ylari ko‘z oldimizga keladi. Bu qishloq bugungi kunda ma’muriy-hududiy jihatdan Samarqand viloyati Poyariq tumaniga qarashli[1]. Nakurt qishlog‘i Jizzax vohasiga chegaradosh hududlarda joylashgan bo‘lib bu qishloq tarixi bevostita Jizzax bilan bog‘liq holda kechgan. Asosiy aholisi o‘zbeklarning turkman urug‘i vakillari bo‘lib fanda ularni umumiy bir nom bilan “turkman juzlar” yoki “Nuroto turkmanlari” deb atashadi. Qishloq janub va janubiy - sharq tomondan Ko‘lto‘sin, shimol va shimoliy - g‘arb tarafdan asosan tojik etnosi yashaydigan O‘xum, Sintob, sharq tomondan Garasha, g‘arb tomondan Quvkalla qishloqlari bilan chegaradosh[2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**. Ma’lumki, ilk o‘rta asrlar Jizzax vohasini etnografik tadqiqotlari o‘rganilar ekan, Jizzax vohasining ijtimoiy-siyosiy davri bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgani ko‘zga tashlanadi[1]. Biroq bu masalaga chuqurroq yondashilsa, Jizzah vohasining etnomadaniy tarixi nisbatan kam o‘rganilganligi ko‘zga tashlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Tadqiqotning metodologiyasi analiz va sintez, tadrijiylik, tarixiy-qiyosiy, ob’ektivlik, davriy-muammoviy va retreospektiv tahlil etishga asoslanadi. Bugungi kunda dunyo fanida tarixiy tadqiqotlar bo‘yicha qo‘lga kiritilayotgan yutuq va yangiliklardan, ayniqsa, ko‘pchilik dunyo olimlari tomonidan qabul qilingan tadqiqot usullari va yondashuvlardan imkon qadar foydalanishga harakat qilindi. Tadqiqot yondashuvlariga asoslangan holda umumjahon tarixiy jarayonlar doirasida Ilk o‘rta asrlarda Jizzah vohasi tarixining kontseptual masalalari qarab chiqiladi. Tadqiqot vazifalarining amalga oshirilishi Markaziy Osiyo tarixida mavjud bo‘lgan etnomadaniy tadqiqotlar voha tarixini tadqiq etishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar**. Ilk o‘rta asrlarda Jizzax vohasining tarixida muhim o‘rin egallagan Nakrut qishlog‘i hududlarida istiqomat qilgan aholi eng qadimgi tarixi haqidagi ma’lumotlar bizgacha kam yetib kelgan. Chunki shu paytga qadar qishloq va unga tutash hududlarda maxsus arxeologik izlanishlar olib borilmagan. Ammo, uning atrofidagi soy irmoqlarining toqqa tutash qismlaridagi o‘ydim-chuqur bo‘lib ketgan tepaliklar, tosh uylar, qadimgi qabrlarning qoldiqlari bu yerlarda tarixning uzoq davrlarida ota bobolarimiz, uzoq ajdodlarimiz yashaganligidan dalolatdir[3]. Ilk o‘rta asrlarda Nurota tog‘i va uning atrofidagi qishloqlar qadimgi So‘g‘diyona va Ustrushona davlatining chegara hududlari bo‘lib kelgan. O‘z navbatida tog‘ uzoq tarixiy davrlarda shimol va janub, sharq va g‘arbni bog‘lovchi o‘ziga xos bar’er vazifasini o‘tab kelgan. O‘rta asrlarda ushbu mintaqalarda istiqomat qilgan aholi turk xoqonligi, arab xalifaligi, Chig‘atoy ulusi, temuriylar davlati tarkibida bo‘lganlar[4]. So‘ngi o‘rta asrlarning boshiga kelib, ya’ni XVI – XVII asrlarda Nakrut va unga tutash qishloqlar shayboniylar, ashtarxoniylar davlatlari qo‘l ostida bo‘lgan. XVIII asr o‘rtalarida ya’ni, 1753-1756 yillarda Buxoro amirligi rasman o‘z faoliyatini boshlagach, qishloq amirlikning Nurota bekligi tasarrufiga kiritiladi. Nurota tog‘ining shimoliy va

janubiy tarmog‘idagi barcha qishloqlar Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashganligi bois, tog‘ning shimoliy tarmog‘ida yastanib yotgan bepoyon Qizilqum cho‘llari bo‘ylab harakatlangan savdo karvonlari toqqa tutash qishloqlardan oqib tushuvchi buloqlar va soylardan suv jamlab, yana o‘z yo‘llarida davom etganlar. Bunda Beshbarmoq ota, Rozmas, Bobomo‘la cho‘qqilaridan oqib tushuvchi Nakurutsoy, Garashasoy hamda O‘xumsoy suvlari karvondagi savdogarlar va yo‘lovchilar uchun hayot manbai bo‘lganligi shubhasiz[5]. Qishloq tarixi haqidagi yozma manbalarning aksariyati XIX asrning ikkinchi va XX asr birinchi yarmiga taaluqli. Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran chor Rossiyasi hukumatining alohida mutaxassislari o‘lkani o‘rganish uchun maxsus izlanishlar olib bora boshlaydilar. Bu jarayon XX asr 30 yillarigachа davom etgan. Ana shunday ekspeditsiyalar Nurota, Oqtog‘ va Qoratog‘, Zarafshon, Morguzar tog‘ tizmalari etaklarida joylashgan qishloqlarga ham uyushtiriladi. Tarixiy manbalar va hujjatlarda qayd etilishicha, ushbu mutaxassis-larning aksariyati qishloqlarning topografik va geologik tuzilishi, joylashishi, aholining etnik va joylashuv xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni o‘sha davrda Turkiston o‘lkasida chop etilgan va mahalliy matbuotlarda taqdimnomalar, hisobotlar, statistik ma’lumotlar ko‘rinishida yoritib borganlar. Shunisi e’tiborga molikki, mavjud tarixiy manbalar va arxiv ma’lumotlarini o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, Nakrut qishlog‘i o‘z davrida uning atrflarida joylashgan qishloqlarni birlashtirib turuvchi o‘ziga xos etnokontakt hududi bo‘lgan[6]. Tadqiqotlar jarayonida Turkiston o‘lkasini o‘rganish uchun yuborilgan qator mutaxassislar, olimlar, harbiylarning hisobotlarida Nakrut qishlog‘i haqida tarxiy hujjatlar, statistik ma’lumotlar talaygina ekanligi aniqlandi. Jumladan, o‘lka xalqlari tili, urf-odatlari hamda turmush tarzining yetuk bilimdonlaridan biri A.D.Grebenkinning “Russkiy Turkestan” to‘plami (sbornik) dagi “Uzbeki” maqolasda Nakrut qishlog‘i haqida ilk tarixiy etnorgafik ma’lumotlar uchraydi. Unda muallif qishloqda istiqomat qiluvchi turkman urug‘iga mansub o‘zbeklar haqida ayrim ma’lumotlarni berib o‘tadi. Nurota vohasi aholisi turmush tarzi, madaniyati, aholining etnik tarkibi haqidagi ma’lumotlar qatorida rus mutaxassisi A.P.Xoroshxinning bergan ma’lumotlari anchagina salmoqli. U tog‘ning har ikki tarmog‘ida joylashgan nayman, saroy, turkman, burqut, mang‘it kabi o‘zbek urug‘lari haqida yozar ekan, o‘zbek-turkmanlar haqida ham anchagina ma’lumotlarni berib o‘tadi[7]. Xususan, 1871-yilda Toshkentda chop etilgan markaziy nashrlardan biri “Turkestanskie vedomosti” gazetasida “Istoriko-etnograficheskie etyudo‘. Narodo‘ Sredney Azii” maqolasida aynan o‘zbek-turkmanlarning etnogenezi va boshqa ayrim etnik xususiyatlariga urg‘u beradi va birinchi marotaba Nakrut qishlog‘i haqida tarixiy etnorgafik qaydlarni berib o‘tadi[8]. Nurota tog‘ tizmasi atrofida istiqomat qiluvchi aholi etnik tarkibi haqidagi ma’lumotlar XIX asr oxiri – XX asr 20 yillariga doir ba’zi statistik ma’lumotlarda ham uchraydi. Ular qatorida Nakrut qishlog‘i va unga tutash mintaqalarda istiqomat qiluvchi o‘zbek-turkmanlar haqidagi ma’lumotlar anchagina e’tiborga molik. Jumladan, XX asrning 20 - 30 yillaridan boshlab Turkiston Xalq komissarligi tashabbusi bilan Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on, Jizzax uezdlariga maxsus etnografik ekspeditsiyalar uyushtirilgan[9]. Xuddi shunday ekspeditsiyalar M.S.Andreev boshchiligida Nurota tog‘ tizmasi atroflaridagi aholi punktlarida va unga tutash Qizilqum cho‘liga amalga oshirilgan. I.I.Zarubin boshchiligida esa Jizzax uezdining Forish, Sintob, Qoratosh, Nakrut, Bog‘don, To‘sin volostlariga uyushtirilib, anchagina statistik hamda etnografik ma’lumotlar to‘plangan. Ma’lumki 1867-yilda o‘lkada Turkiston general-gubernatorligi tashkil etiladi[10]. Masalaning e’tiborga molik jihati shundaki, Nakrutning Nurota, Morguzar, Qo‘ytosh, Oqtog‘ va Qoratog‘ oralig‘idagi aholi punktlarini bog‘lab turuvchi yo‘l chorrahasida joylashganligi inobatga olinib, shu yili Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on uezdi tarkibida Nakrut volosti tuziladi. Tez orada u alohida strategik markaz sifatida ish boshlaydi. 1886-yilda “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq uning Kattaqo‘rg‘ondan uzoqligi inobatga olinib, “Turkiston o‘lkasi statistik boshqarmasi” qaroriga asosan Jizzax uezdi tarkibiga o‘tkaziladi. O‘sha paytga oid arxiv ma’lumotlarida keltirilishicha, u Sintob, Bog‘don, Urdo‘n, To‘sin, Yangiqo‘rg‘on volostlari bilan chegaradosh bo‘lgan. Shu tariqa o‘z tarkibida 40 yaqin qishloqlarni birlashtirgan Nakrut alohida volost sifatida 1920 yilgacha faoliyat ko‘rsatgan. 1904-1905 yillardagi “Samarqand viloyati aholi punktlari” (Naselenno‘e punkto‘ Samarkandskoy oblasti) ma’lumotlariga ko‘ra Jizzax uezdi tarkibida Nakrut, Bog‘don, Sintob, Savruk, Qizilqum, Otaqo‘rg‘on, Sartqo‘rg‘on volostlari bo‘lgan. To‘sin volosti Kattaqo‘rg‘on uezdi tarkibida bo‘lgan bo‘lsa, Nakrut esa Jizzax uezdidagi yirik volostlardan biri hisoblangan[11]. Unga Ilonli, Qoraabdal, Garasha, Sag‘ishmon va Urdo‘n qishloq jamoalari (selskie obhino‘) biriktirilgan. Hujjatlarda qayd etilishicha Nakrut volostida o‘sha paytda 880 ta hovli va 1073 ta o‘tovlar bo‘lgan. Jami aholi 14 ming 964 kishi bo‘lib, shundan erkaklar 8158 ta, ayollar 6806 tani tashkil etgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra Nakrut volostiga jami 36 qishloq qarashli bo‘lgan. 1926-yilda O‘z SSR Xalq komssarligi Kengashi qaroriga muvofiq O‘zbekistonda qaytadan rayonlashtirish tadbirlari o‘tkaziladi. Ushbu qarorga asosan Samarqand viloyati tarkibida Poyariq tumani tuziladi. O‘lkada yangicha sovet ma’muriy tuzilmalarining tashkil topishi munosabati bilan, Nakrutning volost sifatidagi faoliyati ham tugatiladi[12]. Shu yildan e’tiboran Nakrutning Jizzaxdan uzoqligi inobatga olinib Poyariq tumani tarkibida Nakrut qishloq kengashi (s/o Nakrut) tuziladi. 1920-yilgi aholi ro‘yxati ma’lumotlariga ko‘ra Nurota tumanida 8000 dan oshiq o‘zbek-turkmanlar istiqomat qilgan bo‘lsa, Samarqand viloyati bo‘yicha 20 mingdan ortiq turkman urug‘iga mansub o‘zbeklar ro‘yxatga olingan. Nakurt va uning atroflarida o‘zbek turkmanlar asosan utrli urug‘ va to‘plarga bo‘linib qarindoshlardan iborat bo‘o‘lgan alohida qishloq va mahallalarda istiqomat qilishgan. O‘zbek-turkmanlar aksariyat qishloqlarda g‘uj (kompakt) holda yashab kelganlar. XX asr o‘rtalariga kelib to‘la o‘troqlik tarziga o‘tgan o‘zbek turkmanlar xo‘jalikning ushbu turlari bilan shug‘ullanib kelgan vohaning boshqa etnoslari va etnik guruhlari bilan mushtarak etnomadaniy aloqada bo‘lib kelganlar[13]. Zero, ushbu xalqlarning mintaqa etnomadaniy muhitga to‘la moslashishlari uchun ularning ko‘p yillar davomida bir hududda yashab, o‘zaro xo‘jalik aloqada bo‘lishlari muhim omil hisoblangan. Bu davrda turkmanlar garasha xo‘jalari bilan jadal madaniy va xo‘jalik-savdo aloqalari o‘rnatganlar. Chorvador turkmanlar o‘z qoramol, tuya, yilqilarini Garasha xo‘jalariga ayriboshlash yoki naqd pulga sotish uchun Garashaga olib kelganlar va mahalliy bozordan xo‘l meva, tamaki, hunarmandchilik mahsulotlarini sotib olganliklari to‘g‘risida Nurota tarixining jonkuyar izlanuvchisi N.Tolipov o‘z tadqiqotlarida ko‘plab ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Shuningdek qishloq oqsoqollarining og‘zaki axborotiga qaraganda Garasha qishlog‘ining Qo‘rg‘on hududidagi bozorda XX asr 50-60-yillarigacha doimiy qoramol, ot, tuya savdolari bo‘lib turgan[14]. Asosan xo‘jalikning turli ko‘rinishlari Nakurt va uning atroflarida qishloqlarida mavjud bo‘lib aholi bining natijasida turli etnos va sub etnoslar o‘rtasida o‘ziga xos madaniy aloqalarni yuzaga keltirgan. Nuroto tog‘ yon bag‘rlaridagi qishloqlarda xo‘jalikning ikki turi vohaning sug‘orma dehqonchiligi va dasht yaylov chorvachiligi o‘zaro bir-birini to‘ldirib, uyg‘unlashib borishi natijasida etnik guruhlararo (turkman, saroy, xo‘ja, nayman, mang‘it va

boshqalar o‘rtasida) o‘zaro iqtisodiy, madaniy aloqalarni yuzaga keltirgan. Bu tog‘ atroflarida o‘ziga xos xo‘jalik-madaniy tipni shakllanishiga turtki bo‘lgan.

**Xulosa va takliflar**. Ilk o‘rta asrlarda Jizzax vohasini davlatchiligini tahlil qilish Markaziy Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixi, shu jumladan, mazkur mintaqaning davlatchilik an’analari, aholi turmush tarzi haqida muayyan xulosalar qilish imkonini beradi. Avvalo, shuni ta’kidlash joizki, Jizzax vohasini davlat tuzumi Markaziy Osiyo va unga qo‘shni hududlarda mavjud bo‘lgan davlat uyushmalarining davlatchilik an’analari asosida shakllanishi barobarida, ularni yanada boyitdi va mintaqadagi keyingi siyosiy uyushmalar uchun tamal toshi bo‘lib xizmat qildi[15].

**ADABIYOTLAR**


1. Гребенкин А.Д. Узбеки …. – С. 105-106;
2. Хорошхин А.П. Кызыл-кумский дневник // Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. – Спб., 1876. – С. 398-402;
3. Мошкова В.Г. Некоторые общие элементы о родоплеменном составе узбеков каракалпаков и туркмен // Труды института археологии и этнографии. – Т., 1950. Т. II. – С. 155-159; Туркмены в Среднеазиатском междуречья. – Ашхабад: Ылым, 1989. – С. 12;
4. Шевяков А. И. О коренном населении Нуратинских гор и прилегающих районов (материалы полевых исследований 1998 - 1999) // Восток. – 2000. – № 2-3;
5. Кармышева Б.Х. Пешерева Е.М. Материалы этнографического обследования таджиков Нуратинского хребта // СЭ. – М., 1964. – С. 22-23.
6. Нурота туркманларининг Нурота тоғларига келиб жойлашиши ҳамда ўзбек халқи таркибидан ўрин эгаллаганлиги ҳақида маълумот олиш учун қаранг: Толипов Файзулла. Мозийга бўйлашган маскан (Гараша қишлоғи ҳақида тарихий этнографик лавҳалар). Т., 2008. Туркмены в Среднеазиатском междуречье. – Ашхабад: "Ылым". 1989. – С. 12-31.
7. Всероссийская перепись населения 1920 году. – Т.: ЦСУ Туркестанской Республики, 1926. – С. 24-56.
8. Толипов Ф.С. Мозийга бўйлашган маскан. (Гараша қишлоғи ҳақида тарихий этнорафик рисола). Тошкент. 2008.
9. Абдуллаев У. Этнологияда терминология муаммоси // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндошувлар. – Т., 2004. – Б. 13.
10. Nematov, R. A., & Almanov’s, Q. O. (2022). THE ROLE OF HISTORICAL SOURCES IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE TURKISH EMPIRE. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(10), 25-31.
11. Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. Марказий Осиё тарихи ва маданияти, 1(1), 122-125.
12. Неъматов, Р. (2023). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(6), 14-23.
13. НЕЪМАТОВ, Р. (2023). ХОРАЗМ АФРИҒИЙЛАР СУЛОЛАСИ–ТУРК ХОҚОНЛИГИ СИЁСИЙ АЛОҚАЛАРИ. Journal of Fundamental Studies, 1(7), 16-23.
14. OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(1), 86-94.
15. Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. Bulletin of Gulistan State University, 2020(4), 45-49.
16. Ne’matov, R. (2023). ILK O ‘RTA ASRLARDA XORAZM TARIXSHUNOSLIGINING O ‘ZIGA XOS JIHATLARI. Interpretation and researches, 1(21).
17. Неъматов, Р. А. У. (2020). Интеллектуальное и культурное наследие узбекского народа. Наука, образование и культура, (4 (48)), 85-87.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK:94(470.67)+929+930.2**

***Husniddin JURAYEV,***
*Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, PhD*
*E-mail: user7367690@gmail.com*

*QDPI dotsenti, PhD R.Axmedova taqrizi asosida*

## THE LATE XIX CENTER - EARLY XX CENTURIES, THE CARE RELATIONS AND AGRICULTURE OF THE EMIRATE OF BUKHARA

Annotation

This article discusses the agricultural relations of Bukhara Emirate, in particular, farming, livestock, land relations, tax system and hydrotechnical structures. Also, the article reveals the true essence of the agricultural policy conducted in Turkestan during the years of the Russian Empire.

**Key words:** Agrarian, farming, animal husbandry, land ownership, agricultural crops, irrigation facilities, labor tools, tax system, horticulture.

## ЗЕМЕЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ЗЕМЛЕДЕЛИЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются сельскохозяйственные отношения Бухарского эмирата, в частности земледелие, животноводство, земельные отношения, налоговая система и гидротехнические сооружения. Также в статье раскрывается истинная суть аграрной политики, проводившейся в Туркестане в годы Российской империи.

**Ключевые слова:** Аграрное хозяйство, земледелие, животноводство, землевладение, сельскохозяйственные культуры, ирригационные сооружения, орудия труда, налоговая система, садоводство.

## XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA YER EGALIGI MUNOSABATLARI VA QISHLOQ XO‘JALIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxoro amirligining qishloq xo‘jalik munosabatlari, xususan dehqonchilik, chorvachilik, yerga bo‘lgan munosabatlar, soliq tizimi va gidrotexnik inshootlar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, maqolada Rossiya imperiyasi yillarida Turkistonda yuritilgan qishloq xo‘jalik siyosatning asl mohiyatini ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Agrar, dehqonchilik, chorvachilik, yer egaligi, qishloq xo‘jalik ekinlari, sug‘orish inshooatlari, mehnat vositalari, soliq tizimi, bog‘dorchilik.

**Kirish.** XIX asr oxirida Buxoro amirligi agrar davlat ko‘rinishida bo‘lganligi sababli mamlakat iqtisodiyotining asosini qishloq xo‘jaligi, shu jumladan, dehqonchilik va undan olinadigan soliqlar tashkil etganligini kuzatish mumkin. Amirlik aholisining aksariyat qismini dehqonlar tashkil qilgani holda, dehqonchilik uchun qulay hududlarda ziroatchilik bilan mashg‘ul aholi vakillarini, dasht hamda cho‘l mintaqalarda esa chorvachilik va yilqichilik bilan shug‘ullanuvchi kishilar istiqomat qilishgan. Amirlikning tog‘oldi hududlarida yashovchi aholi vakillari esa ham dehqonchilik, ham chorvachilik bilan shug‘ullanib kelishgan.

Ma’lumki, dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi vakillari yashaydigan o‘troq maskanlar suv zahiralariga egaligi, serunum tuproqlari bilan bir qatorda nisbatan yaxshi turmush darajasi bilan mamlakatning boshqa mintaqalaridan ajralib turgan. Sun’iy sug‘orish inshooatlari mavjud bo‘lmagan yoki takomillashmagan hududlarda dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi vakillarining hayoti qiyinchiliklarga to‘la bo‘lishi bilan bir qatorda mazkur joylarda dehqonchilik mahsulotlarining yetishmovchiligi kuzatilganligini ta’kidlash lozim.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida o‘rganishlar olib borgan Y.K.Meyendorf amirlik aholisining juda katta qismi qoloq dehqonchilik xo‘jaligi bilan shug‘ullanishini qayd etadi. Mazkur tarmoqdagi muammolar sifatida kuzatuvchi amirlikning bir qancha manzillarida suv yetishmovchiligini qayd etgan bo‘lsa, ayrim hududlarda dehqonchilikdagi eskirgan tizimlar tufayli suv isrofining yuqori ekanligini ko‘rsatib o‘tadi. Dehqonlar yuqori hosildorlikka erishish uchun asosan ekstensiv usullardan foydalanib kelayotganligini o‘z esdaliklarida xotirlaydi[1].

Tadqiqotchi I.A.Remezning ma’lumotlariga ko‘ra, umumiy Buxoro amirligi bo‘ylab 200 ming desyatina maydonga makkajo‘xori ekilib, undan mo‘l-ko‘l hosil olingan. Amirlikdagi umumiy ekin maydonlarining 20 foizga yaqin qismiga ekilgan makkajo‘xori mahalliy dehqonlarni dukkakli mahsulotlar bilan ta’minlanishiga sabab bo‘lganligini qayd etish lozim[2].

Tadqiqotchi S.Gulishambarov amirlikda qorako‘l qo‘ychilikni rivojlantirishga rus tadbirkorlari o‘z hissalarini qo‘shib kelganligini qayd etadi. Xususan, cho‘l va dasht maskanlarida quduqlar qazilib, chorva mollari suv bilan ta’minlanganligini ko‘rsatib o‘tadi[3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot ilmiy xolislik va adolat tamoyillari, umumbashariy qadriyatlar asosida har bir manbaning mazmun hamda mohiyatidan kelib chiqib yaratildi. Tadqiqotni tayyorlashda tarixiylik, tizimlilik tamoyillariga tayanildi. Bayon qilingan tarixiylik, vorisiylik va tadqiqot olib borishda yagona obyektiv usuldan foydalanish, tarixga xolisona yondoshish mazkur ilmiy izlanish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotda ilgarilab ketayotgan Yevropa mamlakatlaridan farqli o‘laroq, Buxoro amirligida o‘z

davrining ilg‘or qishloq xo‘jaligi texnikalaridan foydalanish umuman kuzatilmagan. Tashqi aloqalarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli texnika, texnologiyalar Buxoro sarhadlariga kirib kelmagan, olib kelingan sanoqli yangi mehnat vositalari tizimni to‘la-to‘kis o‘zgartira olmas edi. Butun jamiyat tarmoqlarini qamrab olgan qoloqlik qishloq xo‘jaligi sohasida ham hukmron bo‘layotgan edi.

**Tahlil va natijalar.** Buxoro amirligining dehqonchilik taraqqiy qilgan hududlarida asosan bug‘doy, sholi, jo‘xori, arpa, no‘xat, kungaboqar, paxta, kunjut kabi ekinlar yetishtirilgan bo‘lsa, polizlarda qovun, tarvuz, qovoq kabilar serob bo‘lgan. Amirlikning markazdan uzoq hududlarida dehqonchilik qilishda an’anaviy usullar qo‘llanib kelingan, bu eski tartib-qoidalar esa soha rivojiga jiddiy to‘siq bo‘lib kelayotgan edi. Zarafshon daryosi bo‘ylaridagi dehqonchilik maskanlariga esa qisman yangi dehqonchilik usullari kirib kelayotgan edi.

Yuqorida qayd etilganidek, amirlikning suv bilan ta’minlangan hududlari va lalmikor mintaqalarida asosiy xo‘jalik yuritish shakli dehqonchilikdan iborat bo‘lib, olinadigan hosil suv ta’minoti yoki yog‘ingarchilik bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Dehqonlar oladigan hosilning asosiy qismini donli ekinlar tashkil qilishini alohida qayd etish lozim.

O‘rganilayotgan davrda Buxoro amirligining umumiy hududi qariyb 4 mln desyatinani tashkil qilib, uning 2 mln 700 ming desyatina qismida ziroatchilik bilan shug‘ullanilgan. Dehqonchilik maydonlarining katta qismi Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo hududlariga, shuningdek, Amudaryoning yuqori oqimlariga to‘g‘ri kelgani holda bu yerlarning aksariyatiga boshoqli ekinlar, shu jumladan, bug‘doy va arpa ekilganligi qayd etilgan. Amirlikning lalmi yerlarida tariq va kunjut yetishtirilib, undan asosan yog‘ olingan. Xususan, tariq o‘simligi Surxondaryo, Ko‘lob, Vaxsh vohalarida ekilib, iqtisodiy tahlil manbalariga ko‘ra har bir tanob yerdan qariyb 30 pud tariq, 15 pud zig‘ir hosili yig‘ishtirib olingan.

Amudaryoning o‘rta va yuqori oqimlarida joylashgan Boysun-Sherobod, Denov, Fayzobod, Kofirnihon kabi vohalarda asosan donli va dukkakli ekinlar yetishtirilib, yillik o‘rtacha hisobda 130 ming gektar maydonga g‘alla, 34 ming gektarga sholi, 24 ming gektarga arpa, 20 ming gektarga kunjut, 17 ming gektarga zig‘ir, 7 mingga gektar tariq, 50 ming gektarga jo‘xori, 10 ming gektarga beda ekilganligi qayd etilgan[4]. Shuningdek, mazkur hududlarda 500 ming gektarga paxta ekilgan bo‘lsa, 3400 gektarlik maydonda uzum, 6500 gektarlik polizlarga poliz mahsulotlari ekilganligini ta’kidlash lozim.

E’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlardan yana biri Sharqiy Buxoro hududiy birlik sifatida amirlikning qo‘shni xonliklar va Turkiston o‘lkasi bilan g‘alla savdosining muhim markazlaridan biri bo‘lgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Hisor, Ko‘lob, Qo‘rg‘ontepa, Baljuvon kabi bekliklardan yig‘ishtirilgan 4 mln puddan ortiq g‘alla Xiva xonligi hamda Turkiston o‘lkasiga yetkazib berilgan. Sharqiy Buxoro hududlaridan yiliga qariyb 15 mln pud bug‘doy hosili olinganligi bir qancha manbalarda qayd etib o‘tiladi[5].

Amirlik dehqonlari g‘alla mahsulotlari bilan bir qatorda sholi-guruch yetishtirish tajribasiga ham ega bo‘lishgan. Asosan sholi o‘simligi Hisor, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo vohalarida yetishtirilgan. Sharqiy Buxoroning 84 ming desyatina maydoniga sholi ekilgan bo‘lib, Hisor bekligida bu ko‘rsatkich 34 ming desyatinani tashkil qilgan. Shuningdek, Miyonqol, Shahrisabz, Sarijuy va Denov bekliklarida sifatli sholi urug‘lar ekilib, Turkiston o‘lkasi bo‘ylab sotilgan.

Donli ekinlar orasida makkajo‘xori ham yetakchi ekinlardan biri bo‘lib, butun Buxoro amirligi hududida yetishtirilgan. Amirlikning suv serob bo‘lgan dehqonchilik dalalarida ekingan mahalliy jo‘xoridan yiliga uch yuz pudgacha hosil yig‘ib olinganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar arxiv manbalarida ham uchraydi[6].

Buxoro amirligida shuningdek, barcha poliz ekinlari ham yetishtirilib, aholi ehtiyojlari va shuningdek, tashqi savdo ham mazkur mahsulotlar bilan ta’minlangan. Poliz mahsulotlarining ertapishar va kech kuzak turlari tasniflangan. Yoz faslining boshlarida pishadigan o‘ndan ortiq qovun turlari mavjud bo‘lib, aholi orasida ularning Ko‘kcha, Bo‘rikalla, Qariqiz, Barganoy, Zargori Osiyo, Shakarpora, Qashqariy, Bekzodiy kabi turlari mashhur bo‘lgan. Shuningdek, oktyabr va noyabr oylarida amirlik polizlarida Obinavvot, Qora qo‘tir, Zarmitani kabi kechpishar qovun navlari yig‘ib olingan. Rus tadqiqotchisi N.Xanikov poliz ekinlaridan qovoqning bir qancha turlarini ta’riflab, mazkur hosil aholi dasturxonini to‘latishda asosiy ne’mat ekanligini qayd etib o‘tadi.

Amirlik hududida bog‘dorchilik tarmog‘i ham taraqqiy qilganligini alohida ta’kidlash lozim. Amirlikning serhosil bog‘larida uzum, olma, o‘rik, gilos, behi, anor kabilar yetishtirilgan. Shuningdek, quruq mevalardan yong‘oq, pista, kishmish kabilar Rossiya imperiyasi va hatto Yevropa mintaqasiga eksport qilingan. Tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra, aholi ko‘pincha ho‘l va quruq mevani Rossiyadan olib kelinuvchi shakarga qimmat nisbatda ayriboshlashini qayd etib o‘tgan bo‘lsa, boshqa ma’lumotlarga ko‘ra, amirlik aholisi o‘z ehtiyojlariga ko‘ra meva-sabzavotlarni iste’mol qilgan, undan ortib qoladigani Rossiya va boshqa mamlakatlarga sotuv va ayriboshlash maqsadida jo‘natilgan[7].

Ma’lumotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyo mintaqasida Buxoro amirligi bog‘bonlari mirishkorliklari bilan ajralib turishgan. Amirlikning markazidagi Buxoro, Qorako‘l, Kattaqo‘rg‘on tumanlari, shuningdek, Qarshi vohasidagi G‘uzor, Chiroqchi, Qarshi, Shahrisabz kabi tumanlardagi sulolaviy bog‘bonlar yetishtirgan uzum mahsulotlari amirlik tashqarisida ham nihoyatda yuksak qadrlangan. Birgina Buxoro shahrining o‘zida uzumning 12 xil turi parvarishlangan. Uzumning sarhil navlari hosil davrida aholi tomonidan iste’mol qilingan bo‘lsa, uning ayrim turlaridan quritilgan holatda mayiz tayyorlangan. Ayniqsa, uzumning aholi orasida maska yoki shibirg‘on deb nomlanuvchi navlaridan yaxshi mayiz qilingan. Mayizlarning ham soyaki va oftobi kabi ikki turi mavjud bo‘lib, soyaki turkumidagi mayiz turlari uzumning pishib yetilgan mevasini quyoshdan pana qilgan holda tayyorlangan bo‘lsa, oftobi turi mevani quyoshning o‘zida qoq qilish orqali yetishtirilgan. Soyaki turidagi mayizlar chet mamlakatlarga eksport qilingan[8].

XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib paxta yetishtirish amirlikning asosiy dehqonchilik tarmog‘iga aylandi. Amirlik hududida paxta chigitini yerga qadash mavsumi Navro‘z bayramidan keyin, asosan aprel oyining boshlarida o‘tkazilgan bo‘lsa, hosilni yig‘ishtirib olish esa mezon mavsumi, ya’ni, avgust-sentyabr oylarida bo‘lib o‘tgan.

Amirlikning dehqonchilik maydonlariga asosan mahalliy Buxoro navli paxta ekilgan, tolasining sifati yuqoriligi sababli o‘lkada eng xaridorgir paxta navi mana shu bo‘lgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasida to‘qimachilik tarmog‘ining taraqqiy etishi barobarida yangi xomashyo resurslariga bo‘lgan talab kuchaya bordi. Xususan, 1885-yilda Rossiya imperiyasining to‘qimachilik tarmog‘i 7 mln.pud paxtani qayta ishlagan bo‘lsa, 1895-yilda bu ko‘rsatkich 8,5 mln.pud ga, 1905-yilda esa 18 mln pudga borib yetdi[9]. Shu paytgacha Rossiyaning to‘qimachilik korxonalariga paxta xomashyosini yetkazib beruvchi Amerikaning o‘zida ham fuqarolar urushining sodir bo‘lishi mazkur hududda paxta yetishtirish ko‘rsatkichlarini tushirib yuborgan edi. Bu esa paxta tolasiga bo‘lgan talabni yanada kuchaytirishi barobarida podsho hukumati tomonidan O‘rta

Osiyo xonliklarida paxta plantatsiyalariga asos solinishiga turtki bo‘la boshladi.

Oshib borayotgan talabni qondirish maqsadida butun O‘rta Osiyo, xususan, Buxoro amirligida ham paxtaning mahalliy navlari o‘rniga Amerika navi yetishtirila boshlandi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro amirligiga amerika paxta navining urug‘lari birinchi marotaba V.A.Bikovskiy savdo uyidan Said Ma’ruf savdogar vositachiligida olib kelingan. Urug‘lar olib kelingan 1860-yilda dastlab amerika paxta navidan 10 pud hosil olingan bo‘lsa, oradan bir yil o‘tib bu ko‘rsatkich 21 pudni tashkil qilgan[10].

Mahalliy va xorijiy (asosan amerika) paxta navlarininig hosildorligini solishtirish maqsadida muayyan tajriba-sinovlar ham o‘tkazilgan. Chunonchi, 1888-yilda rus savdogari S.Mazov Markaziy Buxoro hududidagi daladan 30 desyatina yer maydonini ijara olib, mazkur dalaga amerika paxta navini ekib, jaydari (mahalliy) paxtaga nisbatan ancha ko‘p hosil olgan[11].

Ta’kidlash lozim bo‘lgan jihat Amerika paxta navi mahalliy paxta turlariga nisbatan ko‘p miqdorda suv va mehnat talab qilgan. Chunki, mahalliy sharoitga moslashtirilmaganligi sababli amerika urug‘lari parvarishga ehtiyoj sezardi.

Amerika paxta navi asta-sekinlik bilan Buxoro amirligi dehqonchilik maydonlari va bozorlarini egallay boshladi. Savdo-sotiq munosabatlarida jaydari paxta navining bir kilogramiga 10 rubl miqdorida to‘lov qilingan bo‘lsa, amerika paxta navi 12 rubl miqdorida baholangan[12].



Buxoro dehqonlari paxta yetishtirish jarayoni

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi xo‘jaligida chorvachilik ham alohida tarmoq hisoblangan. Tarmoqda qorako‘l, hisori, afg‘on kabi qo‘y turlari, tuya, qoramol, qisman otchilik, echkilar boqish taraqqiy qilgan edi. Qorako‘l qo‘ylari asosan amirlikning G‘uzor, Chorjo‘y, Qarshi, Kalif, Karki hududlarida boqilgan.

Amirlikning sharqiy qismlarida qorako‘l qo‘ylari bilan bir qatorda ko‘lob, hisori kabi zotdor qo‘ylar parvarishlangan. Sohadagi o‘zgarishlar sababli amirlik podalarida boqiladigan chorva mollarining soni yildan-yilga o‘sib borgan. Aholi faqat qorako‘l qo‘ylarining go‘shtidan emas, balki, ularning terisidan ham unumli foydalangan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Qo‘rg‘ontepa bekligining Qoraturkman va Jiliko‘l ovullaridan yiliga 21 ming dona qorako‘l terisi bozorga chiqarilgan[13].

Buxoro amirligi hududida XX asr boshlarida umumiy hisobda 10 mln boshdan oshiq qo‘ylar boqilgan bo‘lib, ularning tarkibida afg‘on, hisori, turkman, qirliq kabi zotlari mavjud bo‘lgan. Hudud nuqtayi nazaridan Amudaryoning yuqori va o‘rta oqimlarida turkman zotli, amirlikning janubiy chegaralarida afg‘on va hisorak, shimoliy hududlarida esa qirlik zotli qo‘ylar parvarishlangan. Buxoro amirligi bo‘ylab o‘zbek millatiga mansub etnik guruhlar chorva mollarining turlarini boqish bo‘yicha ixtisoslashuv holatida bo‘lganligini qayd etish lozim. Ya’ni o‘zbeklarning muayyan guruhlari qo‘ychilik bilan shug‘ullangan bo‘lsalar, ularning boshqalari echki boqish bilan band bo‘lishgan. Sherobod va Boysun bekliklari hududlarida yashovchi qo‘ng‘irot urug‘i vakillari tuyalar boqishgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o‘rnida aytish lozimki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida aholi asosan dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Qishloq xo‘jaligi va agrar masalalar aholining asosiy daromad manbai bo‘lgan bo‘lsa ham tarmoqqa e’tibor yetarli darajada bo‘lmagan. Amirlik aholisining ko‘chmanchi tarkibi asosan chorvachilik bilan shug‘ullanishgan. XX asr boshlariga kelib amirlikda paxta yetishtirilishining kuchayishi, amerika paxta navining kirib kelishi oqibatida boshqa dehqonchilik ekinlarining miqdori kamaya bordi, poliz mahsulotlari, meva-sabzavotlar yetishtirish sezilarli darajada qisqardi. Chorvachilikda qorako‘l teri tayyorlash asosiy tarmoqqa aylana bordi. Paxtadan keyingi ikkinchi daromad manbai qorako‘l terini sotishdan olinar edi. Sug‘orish inshootlarining eskirib ketganligi qishloq xo‘jaligidagi unumdorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan edi. Yerga egalikning asriy qoloqligi o‘zgarishlar va texnologiyalarni olib kirilishiga to‘sqinlik qilayotgan edi.

## ADABIYOTLAR


1. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.,1975. - С.106-109.
2. Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент: ЦСУ Туркреспублики,1922. - С.11.
3. Гулишамбаров С. Экономический обзор туркменского края. Обслуживаемого Среднеазиатской железной дороги. ЧЧ I-III. – Ашхабад, 1913. - С.215.
4. Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX в. Ч.II. – Душанбе: АН Тадж. ССР, 1963. - С.184.
5. Пален К.К. Материалы к характеристкие народного хозяйства в Туркестане. СПб., 1911. – С.443-444.
6. ЎзМА, И 126-жамғарма, 1-рўйхат,115-иш, 2-варақ.
7. Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI - первой половине XIX века. – Ташкент, 1966. Т.I. – С.226.
8. Демезона П.И., Виткевича И.В. Записки о Бухарском ханстве. – М.: Восточной литература, 1983. - С.77.
9. Терентъев М.А. Англия и Россия в борьбе за рынки. – СПб., 1876. - С.112.
10. Аманова Ф. Бухоро амирлиги иқтисодиётида саноат корхоналарининг тутган ўрни (XIX асрнинг охири XX аср бошлари): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори дисс... –Тошкент, 2021. - Б.62.
11. Тухтаметов Т.Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX – начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1966. - С.62.
12. Шахназаров А. Очерки сельского хозяйства Туркестанского края. –СПб., 1898. – С.61.
13. Гаевский П. Кургантюбенское бекства известия Русского географического общества. Т.:4. Вып.2., 1919-1923 гг. - С.57.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK: 902. 6(575.151)**

***Gulmira KATTAYEVA,***
*Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD*
*E-mail:kattayevag@tersu.uz*
***Odiljon XAMIDOV,***
*Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD*

*Termiz davlat universiteti professori, t.f.d Sh.Shaydullayev taqrizi asosida*

## NEW RESEARCHES ON THE OXUS CIVILIZATION PUBLISHED IN 2023: PART 1 (EXAMPLE OF POVOLZHSKAYA ARKHEOLOGIYA (THE VOLGA RIVER REGION ARCHAEOLOGY) JOURNAL)

Annotation
The Oxus civilization is a new center of the Ancient Eastern civilization, combining the Bronze Age (2300-1450 BC). In recent years, researchers have published scientific articles on the history and archeology of the Oxus civilization in the most prestigious journals of the worlds in English and Russian. The Journal of “Povolzhskaya Arkheologiya (The Volga River Region Archaeology) is one the most popular jounals, in which 3 articles that belong to the Oxus civilization were published in 2023. It is illuminated the scientific analysis of the articles that were published in the Journal “Povolzhskaya Arkheologiya (The Volga River Region Archaeology) in this article.
**Key words:** Oxus civilization, Journal “Povolzhskaya Arkheologiya (The Volga River Region Archaeology), Vedas, migrations of Central Asia, typology of pins.

## НОВЫЕ РАБОТЫ ПО ИСТОРИИ ЦИВИЛИЗАЦИИ ОКСА ОПУБЛИКОВАННЫЕ В 2023 ГОДУ: ЧАСТЬ 1 (НА ПРИМЕРЕ ЖУРНАЛА “ПОВОЛЬЖСКАЯ АРХЕОЛОГИЯ”)

Аннотация
Цивилизация Окса – новый центр древневосточной цивилизации, объединивший культуры бронзового века (2300-1450 гг. до н. э.). В последние годы исследователи опубликовали научные статьи по истории и археологии цивилизации Окса в самых престижных мировых журналах на английском и русском языках. «Повольжская археология» — один из таких журналов, в котором в 2023 году опубликовано 3 статьи непосредственно о цивилизации Окс. В данной статье представлен научный анализ новых исследований, опубликованных в журнале «Повольжская археология».
**Ключевые слова:** Цивилизация Окса, журнал «Повольжская археология», Веды, Среднеазиатские миграции, типология булавок.

## OKS SIVILIZATSIYASI BO‘YICHA 2023-YILDA NASHR ETILGAN YANGI TADQIQOTLAR: 1-QISM (POVOLJSKAYA ARXEOLOGIYA JURNALI MISOLIDA)

Annotatsiya
Oks sivilizatsiyasi bronza davriga oid (mil. avv. 2300-1450) bo‘lib, Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining yangi markazi hisoblanadi. So‘nggi yillarda tadqiqotchilar tomonidan Oks sivilizatsiyasinining tarixi va arxeologiyasiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar dunyoning eng nufuzli jurnallarida ingliz va rus tillarida nashrdan chiqmoqda. “Povoljskaya arxeologiya” shunday jurnallardan biri bo‘lib, unda 2023-yilda bevosita Oks sivilizatsiyasi bo‘yicha 3 ta maqola chop etilgan. Ushbu maqolada “Povoljskaya arxeologiya” jurnalida chop etilgan yangi tadqiqotlarning ilmiy tahlili yoritilgan.
**Kalit so‘zlar:** Oks sivilizatsiyasi, “Povoljskaya arxeologiya” jurnali, vedalar, Markaziy Osiyo migratsiyalari, to‘g‘nog‘ichlar tipologiyasi.

**Kirish.** Oks sivilizatsiyasi Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining yangi o‘chog‘i bo‘lib, Janubiy O‘zbekiston hududida shakllangan Sopolli, Janubiy Afg‘onistonda tarqalgan Dashtli, Janubiy Turkmaniston hududida hukm surgan Namozgoh madaniyatlarini o‘z ichiga birlashtiradi. Arxeologiya fanida ushbu madaniyatlar “Oks sivilizatsiyasi”, “Turon sivilizatsiyasi” yoki “Baqtriya-Marg‘iyona arxeologik kompleksi” (BMAK), so‘nggi yillardagi tadqiqotlarda “Oks-Amu sivilizatsiyasi” kabi umumiy nomlar bilan atalmoqda [3, 5, 6, 8]. Yuqorida qayd etib o‘tilgan madaniyatlarning, asosan, Amudaryoga yaqin hududlarda shakllanganligini, Oks Amudaryoning eng qadimgi nomlaridan biri bo‘lganligini hisobga olib, ushbu geografik hududda shakllangan sivilizatsiyani «Oks sivilizatsiyasi» deb atash maqsadga muvofiq. E.Lyuno o‘zining 2013-yilda nashrdan chiqqan ilmiy tadqiqot ishida Baqtriya va Marg‘iyona hududlarida shakllangan bronza davri sivilizatsiyalarini umumiy nom ostida “Oks sivilizatsiyasi” deb atalishini ma’qullagan va uning xronologiyasini Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi tizimida umumlashgan holda keltirib o‘tgan. Muallif Oks sivilizatsiyasini uchta asosiy bosqichga bo‘lgan: shakllanish bosqichi (mil. avv. III ming yillikning birinchi yarmidan 2300-2100 yilgacha); rivojlanish bosqichi (mil. avv. 2300-2100 yildan 1800-1750 yilgacha); so‘nggi bosqich (mil. avv. 1800-1700 yildan 1500-1450 yilgacha) [7].

So‘nggi yillarda Oks sivilizatsiyasini ilmiy, tarixiy va arxeologik jihatdan o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar yaratilmoqda. “Povoljskaya arxeologiya” jurnalida so‘nggi yillarda nashr etilgan maqolalarda ham Oks sivilizatsiyasining tarkibiga kiruvchi madaniyatlarning antropologiyasi, moddiy madaniyat buyumlari va migratsion jarayonlar haqida juda qimmatli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

"Povoljskaya arxeologiya" jurnali – arxeologiya va tarix fanlari muammolariga bag‘ishlangan Scopus bazasida indeksatsiya qilingan Q2 kvartilli xalqaro jurnal hisoblanadi. Jurnal 2012-yildan beri A.X.Xalikov nomidagi Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti va Mariy davlat universiteti bilan hamkorlikda nashr etiladi. "Povoljskaya arxeologiya" jurnalidagi maqolalar har chorakda (bir yilda to‘rt marta) rus va ingliz tillarida, shuningdek rus va ingliz tilidagi annotatsiyalari bilan birgalikda nashr etiladi. Jurnal arxeologiya, tarix, etnologiya sohalaridagi keng doiradagi ilmiy tadqiqot ishlarini nashr etish va muhokama qilish, shuningdek, fanlararo tadqiqotlar uchun imkoniyatlar yaratadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "Povoljskaya arxeologiya" jurnalida 2023-yilda 67 ta maqola chop etilgan bo‘lib, ularning 3 tasi Oks sivilizatsiyasi masalalariga bag‘ishlangan. Jumladan, A.R.Kasparovning "Veda matnlarida aks ettirilgan Sopolli madaniyatining dafn marosimlari" ("Погребальная практика сапаллинской культуры в отражении ведических текстов") [1], A.S.Sagdullayev, A.Sh.Shaydullayev, J.E.Tog‘ayev hammualliflіgida nashrdan chiqqan "O‘rta Osiyo hududiga Qadimgi Sharq va Yevroosiyo migratsiyalari haqida"("О древневосточных и евразийских миграциях в Центральную Азию") [3], O.A.Xamidov va G.Ch.Kattayeva hammualliflіgida nashrdan chiqqan "Sopolli madaniyati to‘g‘nog‘ichlari tipologiyasi"("Типология булавок культуры Сапалли") [4] maqolalari shular jumlasidandir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar − tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Birinchi maqola "Povoljskaya arxeologiya" jurnalining 2023-yildagi 3-sonida nashrdan chiqqan A.R.Kasparovning "Veda matnlarida aks ettirilgan Sopolli madaniyatining dafn marosimlari" ("Погребальная практика сапаллинской культуры в отражении ведических текстов") [1] nomli maqolasi bo‘lib, unda Hindiston yozma adabiyotining mill. avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning boshida yaratilgan qadimgi yodgorligi Veda to‘plamlarida qayd etilgan dafn marosimlari asosida Sopolli madaniyatining Bo‘ston bosqichiga oid dafn marosimlari asosida qiyosiy jihatdan ilmiy tahlil qilingan.

Bronza davriga kelib Shimoliy Baqtriya mahalliy aholi va Yevroosiyo dasht qabilalari dunyosi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning murakkab jarayonlari maydoniga aylandi. Bu davrda hozirgi Janubiy O‘zbekiston hududida ilk shahar dehqonchilik madaniyati hisoblangan Sopolli madaniyati shakllangan va taraqqiy etgan, ushbu madaniyat yodgorliklaridan topilgan topilmalar asosida ikkita, o‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi dasht madaniyati o‘rtasidagi aloqalar nafaqat moddiy, balki nomoddiy madaniyatda ham o‘z aksini topishi maqolada ilmiy yoritilgan. A.R.Kasparov o‘z tadqiqotida Bo‘ston VI-VII qabristonlarini o‘rganish natijalariga asoslanib, dafn marosimi turlarini birinchi marta qadimgi hind-oriylarning yozma manbalari bilan solishtirgan va shu asosda ilmiy xulosa bergan. Ushbu ilmiy xulosa fanda o‘z yechimini kutayotgan bir nechta muammolarni hal qilish imkonini berdi. Jumladan, hind-oriy qabilalarining Hindistonga kirib kelish jarayonini aniqlashtirish; Baqtriya sivilizatsiyasi shakllanishining mafkuraviy asoslarining Vedalar bilan bog‘liqligini kuzatish; hind-oriy qabilalari bilan bog‘langan ko‘chmanchi Andronovo aholisi vakili bo‘lgan dasht etnosining mahalliy muhitga ta’sirini ko‘rsatish. Tadqiqot natijalari Sopolli jamiyatida oriy an’analarining sezilarli darajada mavjudligi va dafn marosimlarining yangi shakllarining paydo bo‘lishi haqida xulosalar chiqarishga imkon berganligi alohida qayd etib o‘tilgan. Madaniyatning so‘nggi Bo‘ston bosqichiga kelib, Shimoliy Baqtriyaning bronza davri aholisining osmon jismlari bilan bog‘langan kosmogonik g‘oyalaridagi o‘z mohiyatini o‘zgartirgan mifologik va marosim qoidalarining asosiy doimiysi sifatida amalga oshiriladigan umumbashariy muvozanat va tartibni saqlashni belgilab beradigan qurbonlik marosimlar tizimi orqali ushbu marosimlarning eng yuqori markaziy o‘rnida hayotning yakuniy bosqichida insonning o‘zi turishini tadqiqotchi chuqur ilmiy tahlil qilgan. Bo‘ston VI va Bo‘ston VII qabristonlari asosida birinchi marta dafn marosimining ikkita eng keng tarqalgan shakli Veda yozma manbalari bilan keng solishtirilgan. Tadqiqotda dafn va marosim amaliyotining aniq tahliliy misollari asosida, hind-oriy qabilalarining Shimoliy Baqtriya hududi orqali migratsiyasi tasvirlab berganligi bilan o‘zigacha ushbu mavzuda yozilgan ilmiy asarlardan farq qiladi. O‘ylaymizki muallif keyingi maqolalarida Sopolli va unga tutash madaniyatlarining dafn marosimlarini shu yo‘nalishda ochib berishga harakat qiladi.

Ikkinchi maqola "Povoljskaya arxeologiya" jurnalining 2023 yildagi 4-choragida nashrdan chiqqan A.S.Sagdullayev, A.Sh.Shaydullayev, J.E.Tog‘ayev hammualliflіgidagi "O‘rta Osiyo hududiga Qadimgi Sharq va Yevroosiyo migratsiyalari haqida"("О древневосточных и евразийских миграциях в Центральную Азию") [3] nomli maqola hisoblanadi. Tadqiqot Markaziy Osiyo hududiga neolit, eneolit va bronza davrlarida migratsion jarayonlarning ilmiy tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda mualliflar turli avlod olimlari tomonidan ushbu mintaqa hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ilmiy ma’lumotlarga tayangan. Markaziy Osiyo - Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi mustaqil davlatlar hududlari, shuningdek, Afg‘oniston, shimoliy-sharqiy Eron, shimoliy Hindiston, Xitoyning g‘arbiy qismi, Mo‘g‘uliston, Pokiston hududlarini ham qamrab oluvchi tarixiy geografik mintaqa hisoblanadi[4: 187; 9]. Mualliflar tomonidan kartografiya metodidan foydalangan holda migratsiyalarni hajmi, Markaziy Osiyoning turli mintaqalarida yangi kelgan aholining joylashish darajasi va fazoviy (geografik) xususiyatlari bo‘yicha tizimlashtirishga harakat qilingan, xaritalarda migratsiya yo‘nalishlari, tranzit yo‘llari, savdo va madaniy aloqalar alohida belgili ko‘rsatkichlar orqali ko‘rsatilgan. Maqolada migratsion jarayonlar bilan bog‘liq bir nechta ilmiy, tahliliy muammolar yoritilgan. Jumladan, aholining hududiy harakati ichki (mintaqaviy) va tashqi (mintaqalararo) tranzit yo‘llar tizimini rivojlantirishga yordam berganligi, ushbu yo‘llar nafaqat migratsiya maqsadlarida izchil foydalanilgan balki, turli madaniyatlar o‘rtasida savdo va madaniy aloqalarning shakllanishiga ham xizmat qilganligi alohida ta’kidlab o‘tilgan. Markaziy Osiyo hududiga migratsion jarayonlarning birinchi to‘lqini neolit davrining boshida (mil. avv. VI-IV ming yillik) Kaspiy dengizining sharqiy va janubiy mintaqalaridan so‘nggi mezolit davri ovchilarining Kopetdog‘(Turkmaniston) hududining o‘zlashtirilmagan tog‘ oldi tekisligiga va daryo vodiysiga ko‘chishi bilan xarakterlangan. Bu esa, Joytun madaniyati misolida Gorgan (Eron) ishlab chiqarish iqtisodiyotining Kaspiy markazining shakllanishiga hissa qo‘shishiga olib kelgan. Shu bilan birga, maqolada Joytun madaniyati genezisida Yaqin Sharqning ilk dehqonchilik yodgorliklari bilan yaqin savdo va madaniy aloqalariga katta ahamiyat berilgan.

Maqolada migratsion jarayonlarning ikkinchi to‘lqini so‘nggi eneolit davri (miloddan avvalgi IV ming yillikning oxiri - III ming yillikning birinchi yarmi) bilan davrlashtirilgan bo‘lib, qadimiy sharqiy ko‘chishlari misolida Shimoli-sharqiy Afg‘oniston hududi va Zarafshon vodiysining yuqori qismida madaniy yangiliklarning tarqalishiga xizmat qilgan. Arxeologik

jihatdan bu davrda Afanasyevo qabilalarining Sharqiy Qozog‘istonga ko‘chirilishi va ularning bir qismining janubga, Sarazm viloyatiga ko‘chishi aniqlanganligi alohida qayd etilgan.

Migratsion jarayonlarning uchinchi to‘lqini esa, mil. avv. 3-ming yillik oxiri - 2-ming yillik boshlarida keng ko‘lamli qadimiy sharqiy ko‘chishlar tufayli Murg‘ob daryosining quyi oqimi (Janubiy Turkmaniston), Shimoliy Afg‘oniston va Janubiy O‘zbekiston hududlarida turli tipdagi aholi punktlari va shaharlar, shuningdek, doimiy dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi shakllanishiga olib kelgan, bu esa, o‘z navbatida Marg‘iyona – Baqtriya sivilizatsiyasining rivojlanishiga asos bo‘lganligi alohida qayd etilgan.

Migratsion jarayonlarning to‘rtinchi to‘lqini natijasida so‘nggi bronza davrida ko‘chmanchi dasht chorvador qabilalarining Yevroosiyoga katta ko‘chishlari natijasida aholi ko‘proq joylashgan Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimi va daryolar havzasiga, jumladan Zarafshon, Toshkent vohasi, Farg‘ona vodiysi va viloyatning tog‘li hududlariga kelib o‘rnashishlariga olib kelgan. Ko‘chmanchi dasht chorvador qabilalari va mahalliy qishloq xo‘jaligi aholisining o‘zaro madaniy aloqalari, shuningdek, miloddan avvalgi 2-ming yillik oxiri - 1-ming yillik boshlaridagi assimilyatsiya jarayonlari asosida ilk yozma manbalardan (Avesto, qadimgi fors yozuvlari, qadimgi yunon mualliflari asarlari) ma’lum bo‘lgan parfiyaliklar, marg‘iyonaliklar, oriylar, baqtriyaliklar, so‘g‘diylar va sak-massaget qabilalari kabi millatlarning shakllanishi sodir bo‘lgan. Bu jarayonlar O‘rta Osiyoning qadimiy etnik xaritasining asosiy konturlarini hamda o‘troq dehqonchilik madaniyati aholisi va ko‘chmanchi qabilalar yashaydigan hududlar chegaralarini belgilab berganligi alohida qayd etilgan. Ushbu maqola shu yo‘nalishda yozilgan tadqiqotlarni to‘ldiruvchi xarakterga ega bo‘lib, migratsion jarayonlarni kartografik tahlili amalga oshirilganligi bilan alohida ajralib turadi.

Uchinchi maqola “Povoljskaya arxeologiya” jurnalining 2023 yildagi 4-choragida nashrdan chiqqan O.A.Xamidov va G.Ch.Kattayeva hammualliflgidagi “Sopolli madaniyati to‘g‘nog‘ichlari tipologiyasi” (“Типология булавок культуры Сапалли”) [3] nomli maqola hisoblanadi.

Ushbu maqola “Povoljskaya arxeologiya” jurnalida Oks sivilizatsiyasining taqinchoqlar tipologiyasi yo‘nalishida yozilgan birinchi maqola bo‘lib, maqolada Oks sivilizatsiyasining bir qismi hisoblangan Shimoliy Baqtriya hududida shakllangan Sopolli madaniyati (mil. avv. 2200-1300-yy.) yodgorliklaridan aniqlangan bosh uchun mo‘ljallangan taqinchoqlar sinfiga kiruvchi to‘g‘nog‘ichlar bosh qismining yasalish shakliga ko‘ra tip, guruh va sinflarga ajratilgan.

Maqolada Sopolli madaniyati yodgorliklaridan topilgan jami 140 ta to‘g‘nog‘ich bosh qismining yasalish shakliga ko‘ra to‘qqizta tipga bo‘lingan:

I tip – tayoqcha va alohida pommel qismlardan tashkil topgan to‘g‘nog‘ichlar; II tip – bosh qismi mifologik yoki majoziy ma’nodagi shakllar bilan bezatilgan to‘g‘nog‘ichlar; III tip – bosh qismi konus shakldagi to‘g‘nog‘ichlar; IV tip – bosh qismi bikonus shakldagi to‘g‘nog‘ichlar; V tip – bosh qismi dumaloq, kesmada vertikal shaklli to‘g‘nog‘ichlar; VI tip – bosh qismi xoch shakldagi to‘g‘nog‘ichlar; VII tip – murakkab kompozitsion tarkibli to‘g‘nog‘ichlar; VIII tip – bosh qismi o‘rama (rulon) shakldagi to‘g‘nog‘ichlar; IX tip – bosh qismi ma’lum bir shaklga ega bo‘lmagan to‘g‘nog‘ichlar. Sopolli madaniyatining Sopolli va Jarqo‘ton bosqichlarida, asosan, to‘pbarggul boshli va bosh qismi yulduzcha shaklidagi to‘g‘nog‘ich-muhrlar, musht boshli, bosh qismi dumaloq, vertikal kesmalar bilan chegaralangan va bosh qismi zoomorfik shaklli to‘g‘nog‘ichlarlardan foydalanilganligi mualliflar tomonidan alohida qayd etib o‘tilgan.

Ushbu maqola o‘zigacha bo‘lgan shu yo‘nalishda yozilgan tadqiqotlardan Sopolli madaniyati yodgorliklaridan topilgan to‘g‘nog‘ichlarning umumlashma tizimli tipologiya-sining ishlab chiqilganligi bilan farq qiladi.

Mualliflar tomonidan keyingi maqolarida Oks sivilizatsiyasining boshqa yodgorliklari jumladan Marg‘iyona madaniyatiga oid Gonur, Janubiy Baqtriyadagi Dashli va Shimoliy Baqtriyaning Janubiy-G‘arbiy Tojikiston hududida joylashgan bronza davriga oid Farhor, Gelot va Darnaychi yodgorliklaridan topilgan to‘g‘nog‘ichlar tipologiyasiga bog‘langan mukammal tadqiqotni tayyorlash rejalashtirilgan.

**Xulosa va takliflar.** “Povoljskaya arxeologiya” jurnali 2023 yilda bevosita Oks sivilizatsiyasi tarixi va arxeologiyasiga bag‘ishlangan 3 ta maqola chop etilgan. 2023-yilning 3-choragida № 3 (45) sonida bitta, 4-choragida № 4 (46) sonida ikkita. Birinchi maqola A.R.Kasparovga tegishli bo‘lib, ushbu maqolada Sopolli madaniyatining Bo‘ston VI va Bo‘ston VII qabristonlari asosida birinchi marta dafn marosimining ikkita eng keng tarqalgan shakli Veda yozma manbalari bilan keng solishtirilgan. Ikkinchi maqola A.S.Sagdullayev hammuallifligi ostida nashrdan chiqqan bo‘lib, maqolada Markaziy Osiyo hududiga Neolit, Eneolit va Bronza davrlarida migratsion jarayonlarning to‘rta to‘lqini arxeologik manbalar asosida ochib berilgan. Uchinchi maqola O.A.Xamidov va G.Ch.Kattayeva hammualliflgida nashrdan chiqqan bo‘lib, maqolada Sopolli madaniyati yodgorliklaridan topilgan jami 140 ta to‘g‘nog‘ich bosh qismining yasalish shakliga ko‘ra tip, guruh va sinflarga ajratilgan. Umuman olganda, maqolalar Oks sivilizatsiya tarixi va arxeologiyasi bo ‘yicha yildan-yilga yaxshi tadqiqotlar yaratilayotganligini ko‘rsatadi.

## ADABIYOTLAR


1. Каспаров А.Р. Погребальная практика сапаллинской культуры в отражении ведических текстов Сапалли // Повольжская археология, №3(45), 2023. С. 109-117.
2. Сагдуллаев А.С., Абдуллаев Ў.И., Матякубов Х.Х., Шайдуллаев А.Ш., Тоғаев Ж.Э. Бронза ва илк темир даври ёдгорликларининг географияси ва картографияси. – Тошкент, 2019. – Б. 72-87.
3. Сагдуллаев А.С., Шайдуллаев А.Ш., Тогаев Ж.Э. О древневосточных и евразийских миграциях в Центральную Азию // Повольжская археология, №4(46), 2023. С. 113-128.
4. Хамидов О.А., Каттаева Г.Ч. Типология булавок культуры Сапалли // Повольжская археология, №4(46), 2023. С. 187-205.
5. Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии (по материалам городиша Джаркутан): Автореф. дисс… докт. ист. наук. – М.: Институт археологии АН РУ, 1993. – 50 с.
6. Lamberg-Karlovsky C. The Bronze Age of Bactria // Bactria: An Ancient Oasis Civilizations. Roma-Venezia, 1989.
7. Luneau E. L'âge du Bronze final en Asie centrale méridionale (1750-1500/1450 avant n.è.): la fin de la civilisation de l'Oxus. Archéologie et Préhistoire. Thèse de Doctorat de l’Université Paris 1 Panthéon-Sorbonne. 2010. Volume I: Texte, 615 pp.
8. Lyonnet B., Dubova N. Questioning the Oxus Civilization or Bactria-Margiana Archaeological Culture (BMAC): an Overview // Lyonnet, B., Dubova, N. A. (Eds.). The World of the Oxus Civilization (1st ed.). – Routledge, 2020. - P. 7 - 66.

9. Miroshnikov L.I. Appendix: A note on the meaning of the term Central Asia as used in this book // Dani A.H., Masson V.M. (Eds.) History of Civilization of Central Asia. The dawn of civilization: earliest times to 700 B.C. – Paris, 1992. - P. 477-480.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 902. 6(575.151)

*Dilorom NAZAROVA,*
*Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*
*E-mail: dilobarnazarova17@gmail.com*

*Tarix fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent O.Xamidov taqrizi asosida*

## REFLECTION OF THE RESULTS OF THE STUDY AND RESEARCH OF THE ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS OF THE SURKHANDARYA REGION BY THE UZBEKISTAN-CZECH INTERNATIONAL ARCHAEOLOGICAL EXPEDITION IN MUSEUM EXPOSITIONS AND EXHIBITIONS

Annotation

Since 2002, the Uzbekistan-Czech international archaeological expedition, organized by the Institute of Classical Archeology of Karlova University of the Czech Republic, has been conducting research on the history and archeology of South Uzbekistan, in particular, Bactria. Many archaeological sites were discovered during this activity. This article describes the exhibitions dedicated to the results achieved during the research of the Uzbekistan-Czech international archaeological expedition, which serve to illuminate our history. Such exhibitions are dedicated to the archaeological researches of the international cooperation expedition conducted since 2002. In particular, the cities of Prague (2012) and Termiz (2013), known as "Toward the Heart of Asia", dedicated to the tenth anniversary of the Uzbekistan-Czech international archaeological expedition, and Termiz and Tashkent, known as "From Zarathushtra to Genghis Khan", dedicated to the twentieth anniversary 2023 - exhibitions held in the cities of Bactria included important presentations on archeology.

**Key words:** Uzbekistan-Czech international archaeological expedition, exhibition, Kayrit, Maidan, Zarabog, Jondavlattepa, Iskanderteppa, Kapchigai, Mirzali, Dahnai Jom.

## ОТРАЖЕНИЕ РЕЗУЛЬТАТОВ ИЗУЧЕНИЯ И ИССЛЕДОВАНИЯ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ УЗБЕКСКО-ЧЕШСКОЙ МЕЖДУНАРОДНОЙ АРХЕОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕДИЦИЕЙ В МУЗЕЙНЫХ ЭКСПОЗИЦИЯХ И ВЫСТАВКАХ

Аннотация

С 2002 года Узбекско-Чешская международная археологическая экспедиция, организованная Институтом классической археологии Карловского университета Чехии, проводит исследования по истории и археологии Южного Узбекистана, в частности, Бактрии. Во время этой деятельности было обнаружено множество археологических памятников. В данной статье описаны выставки, посвященные результатам, достигнутым в ходе исследований Узбекско-Чешской международной археологической экспедиции, которые служат освещению нашей истории. Подобные выставки посвящены археологическим исследованиям экспедиции международного сотрудничества, проводимым с 2002 года. В частности, города Прага (2012 г.) и Термез (2013 г.), известные как «К сердцу Азии», посвященные десятилетию Узбекско-Чешской международной археологической экспедиции, а также Термез и Ташкент, известные как От «Заратуштры Чингисхану», посвященный двадцатилетию 2023 года выставки, «прошедшие в городах Бактрии, включали важные презентации по археологии.

**Ключевые слова:** Узбекско-Чешская международная археологическая экспедиция, выставка, Кайрит, Майдан, Зарабог, Йондавлаттепа, Искандертепа, Капчигай, Мирзали, Дахнаи Джом.

## O‘ZBEKISTON-CHEXIYA XALQARO ARXEOLOGIK EKSPEDITSIYASI TOMONIDAN SURXONDARYO VILOYATI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARINI O‘RGANISH VA TADQIQOTI NATIJALARINING MUZEY EKSPOZITSAYALARI VA KO‘RGAZMALARIDA AKS ETISHI

Annotasiya

Chexiya Respublikasi Karlova universiteti Klassik arxeologiya instituti tomonidan tashkil etilgan O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi 2002-yildan Janubiy O‘zbekiston, xususan, Shimoliy Baqtriya tarixi va arxeologiyasi bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Ushbu faoliyat davomida juda ko‘plab arxeologik yodgorliklar aniqlangan. Ushbu maqolada O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tadqiqoti davomida erishilgan natijalarga bag‘ishlangan, tariximizni yoritishga xizmat qiluvchi ko‘rgazmalar yoritilgan. Bu kabi ko‘rgazmalar xalqaro hamkorlikdagi ekspeditsiyaning 2002-yildan buyon olib borilgan arxeologik tadiqotlariga bag‘ishlanadi. Jumladan, O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi o‘n yilligiga bag‘ishlangan “Osiyo qalbi tomon” deb nomlanuvchi Praga (2012) va Termiz (2013) shaharlaridagi hamda yigirma yilligiga bag‘ishlangan “Zaratushtradan Chingizxongacha” deb nomlanuvchi Praga, Termiz va Toshkent (2023) shaharlarida o‘tkazilgan ko‘rgazmalar Baqtriya arxeologiyasi bo‘yicha mihim taqdimotlar aks etgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi, ko‘rgazma, Kayrit, Maydon, Zarabog‘, Jondavlattepa, Iskandartepa, Qapchig‘ay, Mirzali, Dahnai Jom.

**Kirish.** Surxondaryo arxeologik yodgorliklarini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor yildan-yilga o‘sib borayotgan jarayon bo‘lib, buning asosiy sababi voha yodgorliklarining qadimiyligi hisoblanadi. 1960-1970-yillardagi arxeologik tadqiqotlar jarayonida sanoqli arxeologik yodgorliklar aniqlangan bo‘lsa, hozirgi kunda esa ularning soni anchaga

oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri fandagi katta yutuqlar hamda turli xil mahalliy va xalqaro arxeologik ekspeditsiyalarning keng faoliyat olib borishi hisoblanadi. Buning natijasida hozirgi kungacha Surhon vohasida jami 500 dan oshiq arxeologik yodgorliklar aniqlangan bo‘lib, hozirga qadar bu arxeologik yodgorliklarda o‘rganish ishlari davom ettirilib samarali natijalarga erishib kelinmoqda.

Bu hamkorlikdagi ekspeditsiya 2008-yili Sherobod tumani arxeologik xaritasini yaratish ishlarini olib borishdi. 2008-yilda Google Earth onlayn rejimi paydo bo‘lganidan so‘ng, arxeologik tadqiqotlar uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratildi. Bular yordamida o‘rganishlar davomi-da Sherobod tumanida 150 ta arxeologik yodgorlik o‘rganildi. Shuningdek Sherobod tumanidagi arxeologik yodgorliklarning birinchi katalogi tuzildi[1].

O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi 2010-yil sentabr oyida Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida arxeologik tadqiqotlarning 3-bosqichi amalga oshirdi. Ekspeditsiyaga Chexiya tomonidan L.Stancho boshchilik qilgan bo‘lib, O‘zbekiston tomonidan ekspeditsiya rahbari Sh.Shaydullayev, a’zolari T.Annayev (TerDU), A.Shaydullayev (O‘zbekiston Milliy universiteti) faol ishtirok etishdi. 2010-yildagi tadqiqotlarda shuningdek Petro Tushlova boshchiligidagi Klassik arxeologiya yo‘nalishi talabalari Viktoriya Chistyakova, Vera Dolejalkova, Treza Maxachikovalar Sherobod tumanidagi pasttekisliklarni tizimli ravishda o‘rganish dasturida faol ishtirok etishdi. 2010-yilda ish boshlanishdan oldin arxeologik yodgorliklar ro‘yxatida 93 ta yodgorlik kiritilgan bo‘lsa, mavsum oxiriga kelib 37 ta yodgorlik qo‘shildi. Shuningdek ushbu o‘rganishlar natijasida ekspeditsiya a’zolari tomonidan 53 ta yodgorlik joyida o‘rganildi [9].

Surxon vohasida hozirgi vaqtda bronza davriga oid 40 dan ortiq arxeologik yodgorliklar aniqlangan bo‘lib, bu kabi yodgorliklarni o‘rganishda O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi ham alohida o‘ringa egadir. Jumladan, ekspeditsiya faoliyati natijasida bronza davriga oid aniqlangan arxeologik yodgorliklari soni yanada oshdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi faoliyatiga bag‘ishlangan juda ko‘plab maqolalar va ilmiy ishlar yozilgan bo‘lib, ular orasida ko‘rgazma va muzeylarning ham o‘rni kattadir. Maqolada O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi faoliyatiga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar haqida ma’lumotlar berilgandir.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Maqolada asosan adabiyotlar tahlili, taqqoslash metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar**. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosining ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan davlat muhofazasiga olingan, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida joylashgan Kayrittepa arxeologik yodgorligida O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 2008-2011 yillarda samarali o‘rganish ishlari amalga oshirildi.

Kayrit qishlog‘i yaqinidagi, Maydon va Zarabog‘ qishloqlarini bog‘lovchi yo‘l atrofida 34 ta qo‘rg‘on yoki qo‘rg‘onga o‘xshash tosh belgilari aniqlandi. 2015-yilda Kayritda amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida 16 ta ilgari noma’lum bo‘lgan arxeologik yodgorliklar aniqlandi.

O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining 10 yilligiga bag‘ishlangan arxeologlarning ko‘p yillik mashaqqatli samarasidan biri ingliz tilida “Jondavlattepa” va “Sherobod tumani arxeologik yodgorliklari” kitoblarining nashr ettirilishi bo‘ldi [6].

2011-yilda Plzendagi G‘arbiy Chexiya muzeyida Milliy galereya hamda Naprstek nomidagi muzeyga tegishli kolleksiyalar asosida «Buyuk ipak yo‘li yuragida – O‘rta Osiyo san’ati va hunarmandchiligi» deb nomlangan ko‘rgazma tashkil etildi. Keyinchalik ana shunday ko‘rgazmalar 2013-yilda Ugerske-Gradishte shahrining Moraviya Slovakiyasi, 2014-yilda esa Turnov shahrim muzeylarida ham o‘tkazildi.

2002-yildan buyon O‘zbekiston-Chexiya arxeologik ekspeditsiyasi Karlova universiteti (Praga) va Termiz davlat universiteti homiyligida O‘zbekiston janubidagi Surxondaryo viloyatining turli hududlarida muntazam arxeologik dala tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Sherobod vohasi arxeologiya yodgorliklarini 10 yil (2002-2011) davomida o‘rganib, jumladan, Jondavlattepada olib borilgan qazishmalardan so‘ng Ko‘hitangtog‘ va Boysuntog‘ etaklariga, 2021- yildan esa Jarqo‘rg‘on tumani arxeologik xaritasini tuzish, yodgorliklarning xronologik evolyusiyasini o‘rganish ishlari boshlandi.

Tadqiqotning birinchi o‘n yilligi Praga (2012) va Termiz (2013) shaharlarida o‘tkazilgan “Osiyo qalbi tomon” ko‘rgazmasi bilan nishonlandi.

2002-yildan buyon O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida shu paytgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida juda ko‘plab tarixiy muhim arxeologik artefaklar qo‘lga kiritildi. Mana shunday qo‘lga kiritilgan natijalarga bag‘ishlangan xalqaro miqyosdagi ko‘rgazmalardan yana biri 2023-yilda O‘zbekiston-Chexiya hamkorligining 20 yilligiga bag‘ishlangan Toshkent ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Bu ko‘rgazmaga Chexiya bosh vaziri ham ishtirok etib ikki davlat o‘rtasidagi madaniy aloqalarning rivojlanishi uchun samarali ishlar amalga oshirilishi haqida o‘z fikrlarini bayon etdilar. Ko‘rgazmada O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining 2002-yildan buyon amalga oshirish jarayonida qo‘lga kiritilgan arxeologik ekspanatlar ko‘rgazmadan joy oldi. Ko‘rgazmada har bir davrga oid arxeologik artefaklarni uchratishimiz mumkin.

Shunday xalqaro hamkorlikdagi ko‘rgazmalardan yana biri Termiz davlat universiteti binosida 2023-yil 26-sentabrda “Zaratushtradan Chingizxongacha” nomi ostida tashkil etildi. Unda Chexiya Respublikasining O‘zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Vatslav Yilek, O‘zbekiston-Xitoy xalqaro ekspeditsiyasining sodirektori Ma Jiyan, O‘zbekiston-Fransiya xalqaro ekspeditsiyasining sodirektori Pyer Lerish, O‘zbekiston-Chexiya xalqaro ekspeditsiyasining direktori Ladislav Stancho hamda Shopo‘lat Shaydullayev va ko‘plab tarixchi olimlar ishtirok etishdi. Ko‘rgazma juda qiziqarli tashkil ettirildi. Ko‘rgazmada O‘zbekiston-Chexiya xalqaro ekspeditsiyasiga rahbarlik qiluvchi Chexiyalik olim L.Stancho olib borgan tadqiqotlari haqida qisqacha o‘z ma’ruzasida to‘xtalib o‘tdi. Ko‘hitangtog‘ yon bag‘rilarida joylashgan 9 ta, ilgari noma’lum bo‘lgan bronza davriga, 14 ta ilk temir davriga oid yodgorliklar kashf etilganligi haqida qisqacha o‘z ma’lumotlarini berib o‘tdi. Biz bu ko‘rgazma orqali

1. O‘rta Osiyo janubida asrlar o‘sha tarixiy manzaralar qanday o‘zgargan?

2. O‘tmishda mahalliy aholi tabiiy landshaftdan qanday foydalanilgan?

3. Surxondaryo tog‘ oldi hududlari qaysi davrdan boshlab o‘zlashtirilgan va insonlarning evolyusion rivoji qanday kechgan?

4. Iskandar Zulqarnayn yurishi davrida mahalliy aholining manzilgohlari qayerlarda joylashganligi?

5. Darband devorining qurilish davri va to‘g‘ri sanasi qandayligi? Kabi savollarga bu ko‘rgazma orqali javob topishimiz mumkin bo‘ldi.

O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining “Zaratushtradan Chingizxongacha” nomli ko‘rgazmasida jami 12 ta arxeologik jihatda o‘rganilgan hududlar bannerlari namoyishga qo‘yildi. Bunga misol sifatida Hayitobodtepa arxeologik yodgorligi namoyishini keltirishimiz mumkin. Bu arxeologik joy 2012-2022 yillarda Surxondaryo o‘rta havzasida (Jarqo‘rg‘on tumani) innovatsion arxeologik dala loyihasi amalga oshirilishi natijasida o‘rganildi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida hududning turli aholisi o‘zlarining yashash muhitidan qanday foydalanganlar? Fors ahamoniylarining hukumronligi, Yunon-Makedon istilosi, Kushon hukumdorlarining kelishi turli tarixiy voqealar yodgorlikda qanday iz qoldirdi? Kabi savollarga javob topishimizga yordam beradi.

Yevroosiyoning ko‘chmanchi xalqlari bilan bog‘liq bo‘lgan Qo‘rg‘on-qabristonlar O‘rta Osiyo madaniy landshaftining o‘ziga xos xususiyatlari hisoblanadi. 2014-yildan boshlab qo‘rg‘onlarning xaritasini tuzish hamda o‘rganish Chexiya-O‘zbekiston arxeologik ekspeditsiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ma’lumotlar ham ko‘rgazmada namoyish etildi.

Ko‘rgazmadan aniqlanishicha, O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 2019-yildan “Mo‘g‘ullardan oldingi” davrga oid yodgorliklarni o‘rganish loyihasi boshlandi. Shu munosabat bilan Ko‘hitang cho‘qillaridagi aholi punkitlarida arxeologik tadqiqotlat o‘tkazildi va ulardan olingan natijalar ko‘rgazmada namoyish ettirildi.

O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 2015-2018-yillarda Ko‘hitang yon bag‘irlarida, Sherobod tumanining Zarabog‘, Qorabog‘, Kampirtepa, Maydon, G‘oz, Shalqon va Qizilolma qishloqlari atrofida, taxminan 200 000 m2 hududni egallagan maydonda, qadimgi dehqonchilik hududlarida, tizimli dala tadqiqot ishlarini o‘tkazdi. 277 ta o‘rganilgan artefaktlar, arxeologik dalillar asosida vohaning evolyusion rivojlanishi aniqlandi. Bu ko‘rgazmada o‘rganilgan hududlar xaritasi namoyish etildi.

Ko‘rgazmada namoyish etilgan eng qiziqarli namoyishlardan biri 2017-2018 yillarda o‘tkazilgan “Oksiart tog‘ida Iskandar Zulqarnayn davri qal’alari va yodgorliklarini aniqlash” loyihasi asosida qilingan ishlar namoyish etildi.

Ko‘rgazmada namoyish etilgan. Qiziquvchilarni o‘ziga jalb qilgan Ko‘hitang tog‘idagi petrogliflar deb nomlanivchi ko‘rgazma orqali 2015-2017 yillar oralig‘ida Zarabog‘, Qorabog‘, Kayrit, Kampirtepa va Shalqon qishloqlari yaqinida yetti guruhda bo‘lingan 175 ta petrogliflardagi 450 dan motiv-obraz ifodalanganligi haqida ma’lumotlarni olishimiz mumkindir.

Arxeologiya fani rivojlanishi uchun hozirgi kunimizda texnologiyaning o‘rni ham asosiy o‘rin egallaydi. Ko‘rgazmada biz aynan shunday texnologik uskunalarning o‘rni haqida ham batafsil ma’lumot berildi. Misol uchun ko‘rgazma namoyishlar orasida metall detektor orqali tadqiqot deb nomlanuvchi banner orqali 2015-yildan buyon arxeologiya qazishma ishlarida hamda yer yuzasini o‘rganishda metal detektorlardan foydalanilganligi haqida ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. Jumlaadan, 2019-2022-yillarda Xo‘jai g‘or, Darband devori, Iskandartepa, Qapchig‘ay va Mirzaliqo‘rg‘on yodgorliklaridagi metal detektorlar orqali tadqiqotlar natijalari aks etgan.

**Xulosa va takliflar**. O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining 20 yilligiga bag‘ishlangan “Zaratushtradan Chingizxongacha” deb nomlanuvchi xalqaro ko‘rgazma nafaqat O‘zbekistonda balki O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining rahbarlaridan biri L.Stanco boshchiligida 2023-yilning 7-dekabr oyida Termiz davlat universiteti va Karlovo universiteti o‘rtasida tuzilgan O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasiga 20 yil to‘lgani munosabati bilan Chexiyaning Karlova universitetida “Zaratushtradan Chingizxongacha” nomli ko‘rgazma tashkil etildi. Ko‘rgazmada O‘zbekistonning qadimgi moddiy va nomoddiy madaniyati, Surxon vohasi yodgorliklari, turizm salohiyati, ekspeditsiya hayoti, ilmiy faoliyati, erishilgan yutuqlaridan fotolavhalar namoyish qilindi va ilmiy seminar tashkil etildi.Bu ko‘rgazmada ham jami 13 ta bannerlar namoyish etilgan bo‘lib, tashrif buyurganlar bular orqali 1 oy davomida O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining o‘rgangan hududlari va qo‘lga kiritgan natijalari xaqida qiziqarli ma’lumotlariga ega bo‘lishdi.

Xulosa qilib aytganda, bu kabi ko‘rgazmalarning o‘tkazilishi Vatanimiz tarixini yanada chuqurroq yoritish hamda ommalashtirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday xalqaro miqyosidagi ko‘rgazmalar O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan hozirgi kunimizgacha yurtimizda va Chexiya Respubliksida namoyish etilgan bo‘lib, tashrif buyuruvchilarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Bunday ko‘rgazmalar tajribasi keng o‘rganilishi hamda tatbiq etilishi lozim.

## ADABIYOTLAR


1. Stancho. L., Tushlova. P. (2019). Sherabad OASIS (Tracing Historical Landscape in Southern Uzbekistan). CHARLES UNIVERSITY KAROLINUM PRESS. P. 43-80.
2. Stančo L., Shaydullayev Sh., Bendezu-Sarmiento J., Lhuillier J., Kysela J., Shaydullayev A., Hamidov. O., Havlík. J., Tlustá. J. (2016). Preliminary Report on the Excavations at Burgut Kurgan in 2015. Studio Hercynia XX 1,2. P. 86-111.
3. Lhuillier J. (2016). Pottery from Burgut Kurgan and Kayrit Oasis, Preliminary Report for Season 2015. Studio Hercynia XX 1,2. P. 112-121.
4. Augustinová. A., Stančo. L. (2016). The Petroglyphs of Pashkhurt Valley in the Surkhan Darya Province (South Uzbekistan) – Preliminary Report. Studio Hercynia XX 1,2. P. 122-138.
5. Stanco. L. (2016). Archaeological Survey in the Surrounding of Kayrit(South Uzbekistan), Preliminary Report for Season 2015. Studio Hercynia XX 1,2. P. 73-85.
6. Stanco.L., Shaydullayev. Sh., Benduze-Sarmiento. J., Pazout. A., Vondrova. H. (2014). Kayrit burial site (south Uzbekistan): preliminary report for season 2014. Studio Hercynia. XVIII/1-2. P. 31-41.
7. Абдуллаев. К., Станчо Л., Шайдуллаев А., Тушлова. П. (2013). Систематические археологические разведочные работы в 2010 г. // Археологическое исследование Джандавлаттепа и Шерабадское района ( 10 лет Чешско-Узбекиской археологической експедиции). Философский факулътет Карлова Университета. С. 45.
8. Станчо Л. Археологические раскопки на Джандавлаттепа в 2002-2006 гг. (2013). // Археологическое исследование Джандавлаттепа и Шерабадское района (10 лет Чешско- Узбекиской археологической экспедиции). Философский факулътет Карлова Университета. С. 22.
9. Абдуллаев К. (2013) Историко-географическая справка. В кн. Абдуллаев К., Станчо Л., Шайдуллаев А., Тушлова П. Археологическое исследование Джандавлаттепа и Шерабадского района. 10 лет Чешско-Узбекской археологической экспедиции. Прага. Философский факультет Карлова университета.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 492.8

*Ne’matullo NASRULLAYEV,*
*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, t.f.n*
*E-mail: nematulloh77uz@mail.ru.*

*O‘zXIA professori, t.f.d A.Hasanov taqrizi asosida*

## “MUQADDIMATUL ARBA’A” ASARIDAGI MAVZULARNING MUXTASAR TAHLILI

Annotatsiya

maqolada fiqh, usul, kalom, tilshunoslik, adabiyot, falsafa, mantiq kabi bir necha sohalarda mustaqil kitoblar yozgan alloma Ubaydulloh ibn Mas’ud Sadr ash-shari’a va uning “Muqaddimatul arba’a” (“To‘rt muqaddima”) nomli asari haqida so‘z boradi. Bu asar muallifning “Tavzih” nomli mashhur asari tarkibida kelgan. Mazkur muqaddimalar Alovuddin as-Samarqandiyning “Mezonul usul” va Fahriddin ar-Roziyning “Mahsul” kitobidan foydalanib amalga oshirilgan. Asar falsafa, matntiq va kalom ilmiga oid mavzularni qamrab olgan. O‘z o‘rnida ushbu matnga qator olimlar tomonidan sharh, hoshiya va ta’liqalar yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ubaydulloh ibn Mas’ud, fiqh, usul, kalom, adabiyot, falsafa, mantiq, Muqaddimatul arba’a, Tavzih, “Mezonul usul”, Fahriddin Roziy, “Mahsul”, Taftazoniy, “Talvih”.

## КРАТКИЙ АНАЛИЗ ТЕМ В РАБОТЕ «МУКАДДИМАТУЛ АРБАА»

Аннотация

В стате рассказивается об алламе Убайдулле ибн Масуде Садре аш-Шариа, который написал независимие книги в несколких областях, таких как юриспруденсия, усул, калам, лингвистика, литература, философия, логика, и его работа под названием «Мукаддиматул Арбаа». («Четире вступления»). Данная работа является частю знаменитого произведения автора под названием «Тавзих». Эти введения били сделани с исползованием книги «Мезонул Усул» Аловуддина ас-Самарканди и «Махсул» Фахриддина ар-Рази. Работа охвативает теми, связанние с философией, текстом и наукой о слове. Ряд учених написали комментарии, поля и талики к этому тексту.

**Ключевие слова:** Убайдулла ибн Масуд, юриспруденсия, усул, калам, лингвистика, философия, логика, Мукаддимат ал-Арбаа, Тавзих, «Мезонул усул», Фахриддин Рази, «Махсул», Тафтазани, «Талвих».

## IN THE WORK “MUQADDIMATUL ARBA’A” SUMMARY ANALYSIS OF TOPICS

Annotation

The article talks about allama Ubaydullah ibn Mas'ud Sadr ash-shari'a, who wrote independent books in several fields such as jurisprudence, usul, kalam, linguistics, literature, philosophy, logic, and his work called "Muqaddimatul Arba'a" ("Four introductions"). This work is part of the author's famous work called "Tavzih". These introductions were made using the book "Mezonul Usul" by Alovuddin al-Samarkandi and "Mahsul" by Fahriddin ar-Razi. The work covers topics related to philosophy, text and the science of words. In its place, a number of scholars have written comments, margins and taliqs on this text.

**Key words:** Ubaidullah ibn Mas'ud, jurisprudence, usul, kalam, linguistics, philosophy, logic, Muqaddimat al-arba'a, Tavzih, "Mezonul usul", Fahriddin Razi, "Mahsul", Taftazani, " Talwih".

**Kirish.** Yurtimizda ma’naviyat sohasiga alohida e’tibor qaratilib, diniy va milliy qadriyatlarni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Islom hamkorlik tashkiloti tomonidan Buxoro shahrining 2020 yilda «Islom madaniyati poytaxti» deb e’lon qilinishi, viloyatlarda hadis, fiqh, kalom ilmi va tasavvuf maktablari hamda O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Mir Arab Oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilishi islom tarixi va manbashunosligi bo‘yicha chuqur izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. Shunga ko‘ra, «...butun jahon jamoatchiligiga islomning asl insonparvarlik mohiyatini to‘g‘ri yetkazish dolzarbdir. Chunki, islom dini ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etishi»[1] nafaqat ilmiy, ayni vaqtda amaliy jihatdan ham muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ubaydulloh ibn Mas’ud Sadr ash-shari’a (vaf.1347) o‘zi mustaqil asarlar tasnif etgan olim bo‘lib, zamonasining yetuk ilmlari bilimdoni edi. Ulamo va fuqahoning nazdida asarlarining barchasi maqbul va mo‘tabar ekanidan, ularga doim murojaat etilgan. Mana shunday asarlaridan biri usuli “Muqaddimatul arba’a” kitobidir [8].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** “Muqaddimatul arba’a” Sharq va G‘arb tillarida yozilgan adabiyotlarda atroflicha qamrab olingan. Xususan, Arab olimlaridan Hoji Xalifa [27], Saloh Muhammad Abu al-Hoj [23], Abdulhay al-Laknaviy [13], Muhammad Abdulqodir al-Qurashiy [20] va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga tayanib ish ko‘rildi. Turk tadqiqotchilari ham mavzu yuzasidan samarali faoliyat olib borgan. Jumladan, Ahmad O‘zel [3], Sazoyi Bektemir [10], Mehmet Bo‘ynukalin [8] ilmiy tadqiqotlarida Ubaydulloh ibn Mas’ud Sadr ash-shari’a ilmiy merosiga oid ma’lumotlar uchraydi. Mavzu doirasida G‘arb adabiyotlarini o‘rganish muhim ahamiyatga molik. Jumladan, A.Dallal [2], H.Jarada [5], V.B.Hallaq [11], A.Yo.Eskichi [4], K.Tekin [6], F.Brukmeyr [9] kabi va boshqalar ilmiy ishlarida tadqiqot mavzusi bo‘yicha muxtasar ma’lumotlar zikr qilingan. O‘zbekistonlik olimlardan marhum shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf [29], Mahmud Hasaniy [18], Abduvahhob Xallof [12], Abdulhakim Shar’iy Jo‘zjoniy [14], Rashid Zohidov va Akram Dehqonov [22], Hamidulla Aminov [26] lar mavzu yuzasidan qisqacha ma’lumotlar berib o‘tilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qohiradagi Amerika universiteti professori Ahmad Dallal o‘zining “Grek

astronomiyasiga islomiy munosabat: Kitob Ta’dil Hay’at al-Aflak li Sadr ash-shari’a” nomli tadqiqotida Ubaydulloh ibn Mas’dning astronomiyaga oid asari matn tarjimasi va sharhini nashr etadi. Tadqiqotda, XIII asr Maragada yashab faoliyat yuritgan astronom olimlarning asarlari keltiriladi. Xususan, Sadr ash-shari’aning turli fanlar bo‘yicha bilim va malakasi, XIV asr musulmon olamidagi ta’lim holati va ilm darajasining yorqin namunasi haqida so‘z ketadi. Bu bilan Ptolomey astronomiyasining vafotiga qadar boshqa astronomik asarlar islohi uchun dastur vazifasini bajargani, o‘sha davrda qo‘lga kiritilgan soha yutuqlari yoritib beriladi. Muallifi XI asrdan keyin ham astronomiyada davom etgan an’analarni dalillar bilan isbotlaydi va bu davrni madaniy tanazzul va turg‘unlik davri sifatida baholaydi [2].

Abdulmajid Yosirning “Determinizm haqida afsona. Sadr ash-shari’aning insonni himoya qilish haqidagi qarashlari” nomli tadqiqotida iroda erkinligi muammosiga oid usul fiqhdagi meta-axloqiy nutqning o‘zgarishi va tarixiy rivojlanishi xususida so‘z boradi. Unda Sadr ash-shari’a tomonidan inson vakolati haqidagi qarama-qarshi nazariyalar o‘rganiladi. Natijaga ko‘ra, Ubaydulloh ibn Mas’ud iroda erkinligi uchun xolis va ishonchli dalillarni taklif qiladi.

Xarverd universiteti tadqiqotchisi Xadel Jarada ham yuqoridagi mavzuga yaqin bo‘lgan masala haqida ilmiy tadqiqot olib boradi. “Islom ilohiyotida qat’iylik va erkinlik: Hanafiy va Moturidiy an’anasi” deb nomlangan ushbu ilmiy ishda iroda erkinligi va ilohiy taqdirni belgilash masalasi ko‘rilib, unga ko‘ra, Abu Mansur Moturidiydan e’tiboran, Alouddin Samarqandiy (vaf.722/1322) va Sadr ash-shari’alar uni davom ettirgan falsafiy ilohiyotshunoslikdagi ba’zi savollarga javob izlashga harakat qilinadi [5].

Bamberg universiteti professori Filipp Brakmeyr “Usul al-fiqh va kalom chorrahasida: Sadr ash-shari’a as-soniyning “Al-Muqaddima al-arba’a” asari”da sharh an’anasi nomli tadqiqotini yaratdi. Unga ko‘ra, inson ixtiyori va unga oid masalalar ko‘rib chiqiladi [9].

Ubaydulloh ibn Mas’ud ilmiy merosini tadqiq etishda G‘arb sharqshunoslari uslublari o‘ziga xos bo‘lib, o‘zlari musulmon bo‘lmasa-da, bu borada akademik yondashishga harakat qilganlar. Shu ma’noda ular Ubaydulloh ibn Mas’udning ilmiy merosiga yetarlicha baho berib, uning hanafiylik fiqhi rivojidagi o‘rni, davr ijtimoiy muhitiga ta’siri, asarlari va ba’zi asarlarining zamonaviy tarjimalarini amalga oshirish va ilmiy maqolalarida muxtasar so‘z yuritishga qilganlar.

A.Mo‘minov Ubaydulloh ibn Mas’udning yashagan davrini XIII asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri kelganini aytadi va “Muxtasar al-Viqoya” asari asosan o‘quv qo‘llanma sifatida foydalanilganini ta’kidlab, alloma va uning “Muxtasar al-Viqoya” asari to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tgan [19].

“Nazmi Muxtasar at-turkiy” deb nomlangan [21]. Kitob Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institut katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi H.Aminovning shaxsiy fondida saqlanayotgan 1900 yili Ilin matbaasida chop etilgan nusxa asosida nashrga tayyorlangan. U 408 bet, nasta’liq xati, asosiy matn qora, kitob nomlari va fasllar qizil siyohda bitilgan. Turkiy tarjima jadval ichiga olinib, ikki ustunga o‘n qator, hoshiyaga esa, yigirma qator qilib yozilgan. Nazmni kirill alifbosiga tabdil etishda muallif uslubiga to‘liq ergashilgan. Kitob yakunida matnda kelgan ayrim murakkab arab, fors va eski turkiy so‘zlarga lug‘at tuzilgan.

H.Aminov va S.Primovlar tomonidan tayyorlangan “Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari” nomli o‘quv qo‘llanmada “Viqoyatur Rivoya” asarining shorihlari sifatida, jumladan, Ubaydulloh ibn Mas’ud, Qora Xo‘ja, Abdulaziz Kirmoniy, Imom Faxriddin Hiraviy, Sayyid Sharif Jurjoniy, Ibn Kamol Poshsho, Yusuf ibn Husayn Kirmosiniy, kabi va boshqalar tilga olinadi. Shuningdek, “Sharhul Viqoya”ning beshta tarjimoni, o‘n to‘rtta hoshiyachisi va “Muxtasarul viqoya” asari mashhur shorihlaridan o‘ntasining ismlari zikr etiladi [26].

A.O‘rozov va B.Amonovlar tomonidan tayyorlangan “Ubaydulloh ibn Mas’ud Sadrush shari’a va uning Sharhul Viqoya” asari nomli ilmiy nashr “Tahorat kitobi”ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda hanafiy mazhabiga ko‘ra tahoratdan to istinjo qilishgacha bo‘lgan masalalar ko‘rib chiqilgan [25].

Sadr ash-shari’a bo‘yicha mahalliy olimlarimiz tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosan muallifning ilmiy faoliyati, xususan, “Muxtasar al-Viqoya” nomli asariga qaratilgan. Afsuski, Sadr ash-shari’aning boshqa asarlari, jumladan, “Muqaddimatul arba’a” ham haligacha tadqiqltchilar nazaridan chetda qolmoqda.

Tahlil va natijalar. Biografik manbalarda Ubaydulloh ibn Mas’ud hayoti, faoliyati va ilmiy merosiga oid ma’lumotlar deyarli ko‘p emas. Ba’zi tabaqotlar Ubaydulloh ibn Mas’udning yashagan davri, ajdodlari, ijodiy faoliyatiga oid muxtasar ma’lumotlar bilan kifoyalanadi. Ular allomaning asarlari, islom fiqhida tutgan o‘rni, safarlari, ustoz va shogirdlari haqida yetarli ma’lumot bermaydilar. Jumladan, Hoji Xalifa Ubaydulloh ibn Mas’udning “Tanqih al-usul”, “At-Tavzih fi halli g‘avomiz at-Tanqih”, “Kulliya al-fiqh”, “Matn an-Nuqoya Muxtasar al-Viqoya fi masoil al-Hidoya”, “Al-Mustatoba”, “Muqaddimatul arba’a”, “Ta’dil al-ulum”, “Al-Vishoh fi-l maoniy va-l bayon”, “Sharh al-Fusul al-xamsin”, “Ilm as-sarf”, “Risala fi ilm al-Aruz”, “Risala at-ta’vil al-qissati Yusuf”, “Tanqihul uqud”, “Fatavoi Movarounnahr” kabi asarlar yozganini zikr qilgan [27].

Sadr ash-shari’aning “At-Tavzih fi halli g‘avomiz at-Tanqih” (“Tavzih”) asari kirish qismida aql mohiyati va afzalliklariga o‘rin bergan. Unga maqbul ba’zi mutakallim usulchilar tilga olmagan va usul asarlarida uchramaydigan mavzularni qo‘shgan. Farqli o‘laroq “Tavzih”da Sadr ash-shari’a, xusun-qubuh masalasini butun qirralarini tahlil etib, bu mavzuni keng ma’noda ta’lif etgan va bu holat “Muqaddimatul arba’a” nomli bir bo‘lim yozilishiga sabab bo‘lgan [8].

“Muqaddimatul arba’a” asarini Laknaviy, Kafaviy va K.Brokelmann Sadr ash-shari’aga nisbat beradilar [13]. Hoji Xalifaga ko‘ra, bu asar aslida mustaqil matn bo‘lmay, “At-Tavzih”ning husun va qubuh mavzusidagi Sadr ash-shari’aning yozgan to‘rt muqaddimasidan tashkil topgan [16]. Muallif bu muqaddimalarda Alovuddin as-Samarqandiy (vaf.539/1144)ning hanafiy usulini moturidiy so‘zlari doirasida yozgan “Mezonul usul” nomli asari va Roziyning “Mahsul”idan foydalanib amalga oshirgan. Roziyning “Mahsul” nomli asarida inson fe’llarida shar’iy hukm bo‘lmasidan husn va qubuh bilinmasligiga doir qotib qolgan dalil, Sadr ash-shari’a asarida ayni harakat nuqtasini belgilab beradi [7]. Unga ko‘ra, xusun-qubuh faqat kalom va falsafa mavzusi bo‘lmay, balki usuli fiqhning asosiy masalalaridan biri. Muallif unda ixtiyor, jabr, qadar kabi masalalarga tayanib, xusun-qubuhni “Muqaddimatul arba’a”ni “Tavzih” matnida tushuntirdi [9].

Matnda jumladan – shar’iy dalillar; lafzlar taqsimoti; xos va omm, haqiqat va majoz; isti’ora; odatlar; sarih – kinoya, zohir – hafiy, nass – mushkil, mufassar – mujmal, muhkam – mutashobih, ibora, ishora, iqtizo, dalola, amr, nahyi, ado va qazo, xusun-qubuh, muqaddimatul arba’a, taklif ma la yutaqu, sunnat, mutavotir, mashhur, xabari vohid, roviyning ma’rufligi – majhulligi, sama’, zabt va tablig‘ kayfiyati, ta’n, af’oli Rasululloh, vahiy, shar’u man qoblana, sahobiy, istisno, shart, sifat, g‘oya, tabdil, nasx, ijmo, qiyos, illat, noqis, muoraza, istis'hob, ijtihod kabi va boshqa qator masalalarga urg‘u berilgan.

To‘rt muqaddimada, jabr, qazo va yaralish masalalari bir kalomchi usuli va uslubi bo‘yicha qilingan, unda Abul Hasan al-Ash’ariyga javob berilishi tortishuvga sabab bo‘ldi [16]. Sadr ash-shari’a ash’ariylarning husn va qubuh masalasidagi qarashlarini zaifligini isbotlagan. U “bir narsaning go‘zalligi va chirkinligi faqat amr va naxiy orqali bilanadi, amr etilgan narsa go‘zal, nahy etilgan narsa chirkindir” qarashini bazi olimlar qabul etib, boshqalari rad etishini aytib, har ikkisida hatolik mavjud deydi, so‘ng bu asarini yoritishga kirishadi.

Sadr ash-shari’a mazkur ishida, Roziyning bu masala bilan bog‘liq dalillari noto‘g‘ri ekanini o‘rtaga qo‘ydi. Fe’l, iroda, takvin, xalq, kasb, tarjih, mumkin, vojib, mahol kabi mavzularining bir-biri bilan bog‘liqligini asoslab berdi.

Birinchi muqaddima: Sadr ash-shari’a, bu bo‘limda “fe’l”ning mazmun mohiyatini o‘rtaga qo‘yish, fe’lning amalga oshishi va hosil bil-masdar ma’nosida mavjud ekanini isbot etish hamda Roziyning “fe’lning husun va qubuh bilan vasf etilishini qabul qilishda, arazning araz bilan qoim bo‘lishi kerakligi” qarashiga javob bergan [7]. Ikkinchi muqaddima: Sadr ash-shari’a bu bo‘limda majburiy (vojibul-vujud) bo‘lmagan har qanday mumkinning vujudga kelishini o‘rgandi va har qanday mumkin narsaning mavjud bo‘lishiga bir necha shartlar bilan Yaratuvchiga muhtojlikni isbotlashga kirishadi [7]. Uchinchi muqaddima: bu bo‘limda, birinchi muqaddimada tilga olgan “fe’l”ning iyqo, tarjih, ixtiyor va ahvol kabi tushunchalari mavjud va mavjud emasligi isbot etiladi [7]. To‘rtinchi muqaddima: so‘nggi muqaddimada tarjih bilan tarjih etuvchi orasidagi aloqa ko‘rib chiqiladi. Tarjihning yoki ikki holatdan biri yoki tanlangani yuzasidan amalga oshishini ilgari suradi. Yaratish va kasb qilish xususida Jabariylar maktabiga yaqin ash’ariylarning dalillarini rad etadi. Yana har bir fe’lning mavjud bo‘lishida Allohning (yaratish) va bandaning (kasb) qobiliyatlari ifoda etiladi [7].

“Tavzih” yuzasidan yozilgan sharhlarning eng muazzami Taftazoniyning “Talvih” nomli asaridir [16]. Muallif bu asari va uning bo‘limlaridan bo‘lgan “Muqaddimatul arba’a”da Sadr ash-shari’aning fikrlarini ham izohladi ham yetkazib berdi. “Talvih”ga yozilgan ko‘p sonli hoshiyalarning “Muqaddimatul arba’a” bo‘limi yoritilgan qismida Sadr ash-shari’a bilan Taftazoniy yozganlarini umumlashtirib yangilangan qarashlar orqali o‘z ifodasini topgan [24]. Qozi Burhoniddin, Mulla Husrav, Abdulhakim as-Siyalkutiy va Hasan Chalabiy, Shamsiddin Muhammad ibn Hamza al-Fanoriy kabi olimlarni qalam olishga majburlagan “Talvih” hoshiyalari asosan “Muqqaddima al-arba’a” qismi bilan bog‘liq tarzda yozildi [7].

“Tavzih” va “Talvih”dan iborat ba’zisi risola, ba’zilari kitob o‘laroq ta’lif etilgan mustaqil “Muqaddimatul-arba’a” asarlari ham bor. Kotib Chalabiy, Sadr ash-shari’aning “Tavzih” nomli asari tarkibida bo‘lgan mashhur to‘rt muqaddima ishtirokida yozilgan hoshiyalarini zikr etgan. Mulla Fanoriy yozgan sharhning kirish qismida u hali hayotga kelmasidan avval sulton Boyazidxonning ismini yozilganini ko‘rdi. Bu masala Sulton Fotihga yoqmadi. Keyin o‘z davrining taniqli olimlarini jamlab, bu masala haqidagi tortishuvlar bo‘yicha biror asar yozishga chaqirdi. Bu majlis “Muqaddimatul arba’a”ning shuhratini yanada orttirdi [8]. Bu majlisda jumladan, Hatibzoda Muhiddin Afandi (vaf.901/1495), Hasan ibn Abdussamad as-Samsuniy (vaf.891/1486), Mustafo Kastali, Hoji Hasanzoda (vaf.911/1505) va Mulla Arab al-Antakiy (vaf.940/1533) kabi o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan olimlari hozir bo‘ldilar. Keyinchalik asarga nazmiy bayonlar ham bitilgani uning nechog‘li ko‘p istifoda etilganiga dalolat qiladi [8].

Olimlar “Muqaddimatul arba’a”ning ilmiyligi e’tiboridan uni mustaqil matn sifatida tan oladilar. To‘rt muqaddimaga ko‘p sonli sharh, hoshiya va tahliqlar yozildi. Jumladan, Abu an-Nafi al-Kazabodiy (vaf.1163/1749)ning “Hoshiya al-usul va G‘oshiya al-fusul” nomli hoshiyalar bitildi. Bu asarga yozilgan ta’liqlar orasida Sayyid Sharif Jurjoniy (vaf.816/1413), Ta’liqatu Hasan ibn Abdussamad as-Samsuniy (vaf.891/1486), Ta’liqatu Lutfulloh ibn Hasan (vaf.900/1494), Ta’liqatu Muslihiddin al-Kastaloniy (vaf.901/1495), Ta’liqatu Muhammad ibn Hasan (vaf.911/1505) [23] kabi mualliflarga tegishlilari ommaga tarqalib ulgurdi.

**Xulosa va takliflar.** Sadr ash-shari’a, usuli fiqh, kalom, mantiq, falsafaga oid mo‘tazila va ash’ariylarning qarashlarini o‘rganib, o‘zining qator asarlari orqali ilmiy asoslab berdi. Masalalar isbotida Sharq olamiga dong‘i ketgan hanafiy mazhabi sohiblaridan Dabbusiy, Halvoxiy, Saraxsiy, Bazdaviy, Samarqandiy kabi va boshqa olimlarga tayandi. Shuningdek, masalalarga kirishishda boshqa mazhab olimlarining qarashlarini ham nazardan chetda qoldirmadi. Sadr ash-shari’adan keyin yashagan Taftazoniy, Birgaviy, Mulla Husrav, Sayyid Sharif Juzjoniy kabi olimlarning usuli fiqh asarlarida, uning uslubi yetakchilik qildi. U Buxoro maktabi vakili sifatida ilmiy salohiyati, keng dunyoqarashi, masalalarni yoritishda esa, hanafiy qoidalariga rioya qilishi va amal turlarini talabaga yodlab oladigan darajada yengil tushuntirishi bilan o‘z mahoratlarini asarida qo‘llab, masalalarning eng nozik tomonlarini ham ko‘rsatib bera oldi. Shu sababli, asar hozirgacha fiqh ilmi bo‘yicha darsliklardan biri sifatida ilmiy muomalada bo‘lib kelmoqda.

## ADABIYOTLAR


1. O‘z R Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // Ma’rifat, 2017, 20 sentyabr.
2. Ahmad Dallal. An Islamic Response to Greek Astronomy: Kitāb Taʿdīl hayʾat al-aflāk of Ṣadr al-Sharīʿa. Leiden: E. J. Brill. 1995. – 472 p.
3. Ahmet O. Hanefi Fikh Alimleri. Diyanet Vakfi Yayinlari, 2006. – 275 s.
4. Abdulmecid Y. Sadr al-Sharia's Defense of Human. California, 2023.
5. Hadel J. The Ḥanafī-Māturīdī Tradition/ PhD. Harvard University, 2021.
6. Kenan T. Ṣadr al-Sharīʿa and Taftāzānī‟s Discussions of the Issue of the Subject Matter. Beytulhikme Int J Phil 13 (3) 2023.
7. Köksal, Islam hukuk Felsefesı Meselesı-Mukaddımat-ı Erbaa'ya Gırış, 42.
8. Mehmet Boynukalin. Fıkıh usulü alimleri ve eserleri. III-XIII. Hijri yüzyıl. – Istanbul: M.Ü.İlahiyat Fakültesi Vakfı Yayinları, 2017. – 638 s.
9. Philipp Bruckmayr. The Commentary Tradition on Ṣadr al-Sharīʿa al-Thānī's al-Muqaddimāt al-arbaʿ. Journal of Islamic Philosophy 14:17-64 (2023).
10. Sezayi Bekdemir. Orta Asya'da Hanefiligin Gelisimi Sadrusseria Ubeydullah b. Mes'ud. – Istanbul: Lord Matbaasi, 2017. – 319 s.
11. Wael B. Hallaq. Islam Hukukuna Gırış. – Istanbul: Pınar, 2022. – 304 s.
12. Abdulvahhob Xallof. Usulul fiqh. Tarj. Salohiddin Muhiddin. J. I-II. – T.: Adolat, 1997. – 208 b. J. III-IV. – T.:Movarounnahr, 1999. – 160 b.

13. Abulhasanot Muhammad Abdulhay Hindiy Laknaviy. “Al-Favoid al-bahiya fi tarojim al-hanafiya”. – Bayrut: Dor al-Arqam, 1998. – B. 109.
14. Abdulhakim Shar’iy Jo‘zjoniy. Islom huquqshunosligi. – T.:Toshkent islom universiteti, 2002. – 256 b.
15. Abulhasanot Muhammad Abdulhay Hindiy Laknaviy. Al-Favoid al-bahiya fi tarojim al-hanafiya. – Bayrut: Dor al-Arqam, 1998. – 632 b.
16. Kotib Chalabiy. “Kashf az-Zunun an asomil kutubi val funun”. Tahqiq: Muhammad Sharofiddin. – Istanbul, 1941-1943. J-I. – B. 211,. – B. 498-499.
17. Nosiruddin al-Adhamiy. “Nazmut Tavzih”. M.Boynıkalın. – B. 317.
18. Mahmud Hasaniy. Mansurxo‘ja ibn Maqsudxo‘ja. Majmaul maqsud. – T.: “Adolat”, 2005. – 640 b. II-J. – T.: “Movarounnahr”, 2005. – 536 b.
19. Mo‘minov A. Hanafiy ulamolarning Markaziy Movarounnahr shaharlari hayotida tutgan o‘rni va roli. T. f. d. dis. Avtoref. – T.: TIU, 2003. – B. 31-35.
20. Muhammad al-Qurashiy. Al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya. J. I-V. – Qohira: Maktaba Hajr li-t-tib’ot va-n-nashr, 1413/1993. – J. II. – 3326 b.
21. Nazmi Muxtasar al-Viqoya. Nashrga tayyorlovchi: Nasrullayev N. – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2016. – 288 b. + 409 faksimele.
22. Rashid Zohid., Akram Dehqon. Muxtasar. –T.: Cho‘lpon, 1994. – 336 b.
23. Saloh Muhammad Abu al-Hojning “Muntahiy al-Niqoya a’la Sharh al-Viqoya”. J. III. – Ummon: Muassasa al-varoq, 2006. – 716 b.
24. Sa’id Abdulatif Fuda. Hoshiyatani ala sharh al-muqaddimat al-arba’ li Sadrish shari’a. – Al-Urdun: Al-Aslin, 2021. – 192 b.
25. Ubaydulloh ibn Mas’udning “Sharhul Viqoya” asari [Matn]. A. O‘rozov va B.Amonov / (Tahorat kitobi). – T.: “Qamar media” nashriyoti, 2022. – 204 b.
26. Hamidulla Aminov., Soatmurod Primov. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – T.: “Movaraunnahr” nashriyoti, 2017. – 400 b.
27. Hoji Xalifa. Kashf az-zunun an asomil-kutub val-funun: 2 jildli. – Bayrut. Dor Ihya at-turos al-arabiy, 2001. – 1023 b.
28. Muhammad Sodiq M.Yusuf. Kifoya. – T.:Hilol-Nashr, 2014. – 584 b.
29. Muhammad Sodiq M.Yusuf. Usulul fiqh. – T.:Hilol-Nashr, 2021.–592 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:902(575.151)"04/14"(045)

*Mansurbek NORMO‘MINOV,*
*Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti, Termiz Arxeologiya muzeyi Bosh mutaxassisi*
*E-mail: n.mansurbek94@gmail.com*

*Termiz davlat universiteti dotsenti, t.f.n T.Annayev taqrizi asosida*

## COINS OF THE BEGINNING OF THE 8TH-13TH CENTURIES RECORDED IN THE VICINITY OF OLD TERMIZ AND ITS BORDERING

Annotation

In this article, coins and treasures from the 8th to the beginning of the 13th century, found in Termiz and its surroundings, are mentioned. The article contains a list of coins found in the course of archaeological research and by local residents. The identified coins are classified dynastically and chronologically.

**Key words:** Dirham, dinar, fuls, treasure, old Termiz, Arab historians, archeological research, Ummayids, Abbasids, Somanids, Karakhanids, Ghaznavids, Anushteginis.

## МОНЕТЫ НАЧАЛА VIII-XIII ВЕКОВ, ЗАФИКСИРОВАННЫЕ В ОКРЕСТНОСТЯХ СТАРОГО ТЕРМЕЗА И УНИГА.

Аннотация

В этой статье записаны монеты и сокровища, датируемые VIII-началом XIII веков, идентифицированные из Термеза и его окрестностей. В статье представлен список монет, обнаруженных в ходе археологических исследований и местными жителями. Идентифицированные монеты классифицируются династически, в хронологическом порядке.

**Ключевые слова:** Дирхам, динар, фельс, клад, старый Термез, арабские историки, археологические исследования, Уммайиды, Аббасиды, Соманиды, Караханиды, Газневиды, Ануштегины.

## ESKI TERMIZ VA UNIG ATROFIDA QAYD ETILGAN VIII-XIII ASR BOSHARIGA OID ALOHIDA VA XAZINA HOLIDA QAYD ETILGAN TANGALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada VIII asrdan XIII asr boshlariga oid bo‘lgan, Termiz va uning atrofidan aniqlangan, tangalar va xazinalar qayd etilgan. Maqolada arxeologik tadqiqotlar jarayonida va mahalliy aholi tomonidan aniqlangan tangalar ro‘yxati keltirilgan. Aniqlangan tangalar sulolaviy, xronologik jihatdan tasniflangan.

**Kalit so‘zlar:** Dirham, dinor, fuls, xazina, eski Termiz, arab muarrixlari, arxeologik tadqiqotlar, ummaviylar, abbosiylar, somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, anushteginiylar.

**Kirish.** Eski Termiz o‘zing qulay strategik nuqtasi tufayli qadimdan Shimoli-g‘arbiy Toxaristonning eng taraqqiy etgan hududlaridan biri sanaladi. Shimoli-g‘arbiy Toxariston hududi va uning ma’muriy bo’linishid haqida ibn-Havqal at-Tirmiz va as-Sag‘oniyon haqida eslab o‘tadi[1]. Shuningdek Sarmangan va Hoshimjird at-Tirmizga qarashli hududlar ekanligi ham qayd etadi[2]. Shuningdek X asrda bitilgan “Hudud ul-Olam” asarida Termiz shahri Chag‘oniyon va Xuttalon viloyatlarining savdo markazi bo‘lgani qayd etilgan[3]. Boshqa bir arab muarrixi al-Muqaddasiyning yozishicha at-Tirmizda shahar rabodidan tashqari سرادقات (suradiqot) ya’ni to‘rtinchi qismi ham mavjud bo‘lgan[1]. Bundan ma’lum bo’ladiki, shaharlarni islom olamiga xos bo’lgan an-anaviy 3 qismdan iborat etib bunyod etish aynan at-Tirmizda istisno etilib shaharning qo‘shimcha 4 qismi ham mavjudligini anglatadi. Aholining savdo bilan shug’ullanishi va shahar aholisining boyligi haqida ibn-Havqal quyidagilarni bitadi: as-Sag‘oniyon at-Tirmizdan kattaroq shahar, ammo at-Tirmiz aholi va boylik jihatdan ustundir[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**. M.Y.Masson butun O‘zbekiston hududida dastlabki tangalarni qayd etish ishlarini boshlab bergan desak adashmagan bo‘lamiz[4]. Y.A.Davidovichning ham tadqiqotlari e’tiborga molik[5]. Keyinchalik ushbu tadqiqot ishlarini M.N.Fedorov va E.V.Rtveladzelar tomonidan 1966-1968 yillarda O’zbekiston hududida qayd etilgan tangalar misolida olib boriladi[6]. B.V.Lunin ham arxiv materiallari asosida O‘zbekiston hududidan alohida va xazina holida aniqlangan tangalar ro‘yxatini tuzadi[7]. 1969-1972 yillarda O‘zbekiston hududida aniqlangan tangalarni ro‘yxatga olishni B.D.Kochnev, E.V.Rtveladze, M.N.Fedrov va T.S.Ernazarovalar tomonidan olib borildi[8]. Keyingi tadqiqot natijalari B.D.Kochnev, E.V.Rtveladze, A.X. Ataxodjayevlarning umumiy tadqiqotlari tarkibida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida zamonaviy fan rivojlanishining qonuniy tendensiyasi bo‘lmish fanlararo yondashuv usulidan foydalanilgan. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, Eski Termiz va uning atroflaridan VIII-XIII asr boshlarigacha muomalada bo‘lgan tangalarning topilishi, aniqlanishi va ro‘yxatga olinishda tadbiq etilgan.

**Tahlil va natijalar.** Eski Termiz hududida XX asrning birinchi choragidan boshlab turli arxeologik tadqiqotlar olib borilgan, arxeologik tadqiqotlar natijasida ko‘plab arxeologik topilmalar, jumladan VIII-XIII boshlariga oid ko‘plab dinor, dirham va fulslar aniqlangan. Quyida ularni keltirib o‘tiladi.

Arab xalifaligiga oid bo‘lgan tangalar;

1.1 M.Y.Masson tomonidan, 1930-yilda Eski Termiz hududida IX asrga oid bo‘lgan abbosiylar sulolasi tomonidan zarb etilgan mis aniqlanadi[4].

1.2 Eski Termizdagi qazishmalari davomida 1-qazishmadan 1 dona 151/748-49 yillarda Balxda zarb etilgan mis tanga aniqlanadi[9].

1.3 Eski Termizdagi 2-qazishma hududidagi 5-qabrdan 164/780-81 yilda Balxda zarb etilgan bir dona mis tanga aniqlanadi[9].

1.4 Eski Termiz hududida V.A.Kozlovskiy tomonidan №2 shurfdan jami bo’lib 16 dona abbosiylar mis tangasi aniqlanadi[10].

1.5 Termiz shahar Suv ta’minoti tashkiloti binosi hududlaridan bir donadan jami ikki dona VIII asrga tegishli, sanasi va hukmdorni aniqlashni iloji bo‘lmagan mis tangalar aniqlanadi[9].

1.6 Eski Termizdagi Fayoztepa buddaviylik inshootini yuqori qatlamidan L.I.Albaum tomonidan jami 247 dirhamdan iborat bo‘lgan xazina aniqlanadi. [11].

1.7 1981 yilda Eski Termizdan 100 dirhamdan iborat bo‘lgan xazina aniqlanadi. 96-714/715 yildan 128-745/746 yillar oralig‘ida zarb etilgan[11]. 1.8 Arxeolog Sh.Pidayev tomonidan 1982-yilgi Eski Termizdan bir dona Balxda 162/787-79 yillarda zarb etilgan mis tangani aniqlaydi[12].

1.9 2020-yilda Eski Termiz yaqinidan bir dona xalifa Xorun ar-Rashid davrida 189-yil Balxda zarb etilgan dirham aniqlanadi[13].

1.10 2021-yilda Eski Termiz rabotidan xalifa Al-Mahdiy davrida hijriy 152-153 yilladar Balxda zarb etilgan fuls aniqlanadi[13].

Somoniylar davriga oid tangalar;

2.11 1939-yilning 1-dekabr sanasida Eski Termiz hududidan Ismoil ibn Ahmad tomonidan hijriy 284-yilda Axsida zarb etilgan bir dona mis tanga aniqlanadi[14].

2.12 1988-yilgi Eski Termizdan V.A.Kozlovskiy tomonidan 3 dona mis tangalar, Abd-al Malik va amir Quttegin tomonidan hijriy 345-yilda Termizda zarb qilingan, Mansur ibn Nuh va Nasr ibn Ahmad tomonidan hijriy 365-yilda Sag‘oniyoda zarb ettirgan tangasi, Mansur ibn Nuh tangasi qayd etiladi[15].

2.13 1995-yilda arxeolog T.Annayev tomonidan al Hakim at-Termiziy maqbarasi yonidan Abdulmalika ibn Nuh nomi bilan Quttegin tomonidan Termizda 354/956-957 yillarda zarb qilingan mis tanga aniqlanadi. [16].

2.14 2019-yilda Eski Termiz yaqinidan Nasr ibn Ahmad somoniyning hijriy 300-yilda Samarqandda zarb etilgan dirhami aniqlanadi[13].

Qoraxoniylar davriga oid bo’lgan tangalar;

3.15 1944-yil 7-oktyabr kuni Eski Termiz yaqinidan Ibrohim ibn Arslonxon tomonidan zarb etilgan bir dona mis tanga aniqlanadi[17].

3.16 1955-yilda Al Hakim at-Termiziy maqbarasini ta’mirlash chog‘icha, 1 donasi Nosir ad-Duniya va-d-Din Malik Tag‘ra va qolgan 27 donasi Sulton Sanjar nomi bilan Qilich Sultan Tafgach-xon tomonidan zarb etilgan tangalar aniqlanadi[18].

3.17 1964-yilda Termiz shahri yaqinida Salovat qishlog‘idan 442 dona butun, 32 dona katta, 145 dona kichik bo‘laklardan iborat dirhamlar xazinasi topiladi. Ushbu dirhamlar hijriy 416-422 yillar oralig‘ida zarb qilingan[19].

3.18 1982-yilda arxeolog Sh.R.Pidayev tomonidan Eski Termiz arkidan bir dona, kuchli tabiiy ta’sirga uchragan, tahminan XII asrlarga oid bo‘lgan mis tanga aniqlanadi[16].

3.19 1984-yilda arxeolog Sh.R.Pidayev tomonidan Eski Termizdan III gorizontdan jami 8 dona mis tangalar aniqlanaydi. Paleografik tahlil natijasida tangalar tahminan XI-XII asrlarga oidligi tahmin qilinadi[2].

3.20 Eski Termizda 1987-yilgi qazishmalar davomida Sh.R. Pidayev kumush bilan qoplangan mis tanga aniqlaydi. Ibrohim ibn al Xusayn nomi bilan hijriy 599/1202-03 yilda zarb qilinganligi aniqlanadi[22].

3.21 Eski Termizda 1989-yilda Sh.Pidayev tomonidan 12 donadan iborat xazina topadi. Barcha tangalar Imod-ad Dunya va-d-Din Abu-l-Muzaffar Ahmad tomonidan tahminan 1160-1165 yillarda zarb etilganligi aniqlanadi[23].

3.22 1989-yilda Sh.Pidayev tomonidan Eski Termizdan Abu-l Muzaffar Ahmad ibn Abu Bakr 1167-68 yillar nomi bilan zarb etilgan mis tanga aniqlagan[23].

3.23 1989-yilda Sh.R.Pidayev Eski Termizdan kuchli tabiiy ta’sirga uchragan kumush tanga va Abu-l Muzaffar Ahmad ibn Abu Bakr nomi bilan 1167-68 yillarda zarb etilgan tanga aniqlanadi[23].

3.24 1990-yilda arxeolog Sh.R.Pidayev Eski Termizda XII asrlarga oid bo‘lgan noma’lum dirham qayd etadi[24].

3.25 Eski Termiz hududidan Xalifa al-Mustanjid nomi bilan zarb etilgan bir dona mis tanga aniqlanadi[25].

3.26 Eski Termizdan yaqinidan xalifa Mustarshid nomi bilan zarb etilgan ikki dona mis tanga aniqlanadi[26].

G’aznaviylar; 4.27 1990-yilda Sh.Pidayev Eski Termizdan Ma’sud G‘aznaviy oltin tangasi aniqlaydi[24].

4.28 Eski Termizdan og’riligi 3.5 gramni tashkil etgan Ma’sud G‘aznaviy tangasi aniqlanadi[27].

Saljuqiylar;

5.29 Surxondaryo bo’yidan, jami 7 dona hijriy 512-yilda saljuqiy hukmdorlar Muhammad ibn Malikshoh va Sulton Sanjarlar tomonidan zarb etilgan dinorlar aniqlanadi[28].

Anushteginiylar;

6.30 1952-yilda Eski Termiz arkidan 78 dona Muhammad Xorazmshoh tomonidan Termizda 617/1220 yillarda zarb etilgan kumush suv yugurtirilgan mis tangalar aniqlanadi[29].

6.31 Eski Termizdan Muhammad Xorazimshoh tomonidan zarb etilgan bir dona mis tanga aniqlanadi[30].

6.32 Eski Termizdan Xalifa an-Nosir nomi bilan Muhammad Xorazimshoh tomonidan zarb etilgan mis tangalar xazinasi aniqlanadi[31].

6.33 Eski Termizda 1987-yilda Sh.R. Pidayev tomonidan Alauddin Muhammad binni Takashning Termizda zarb etilgan mis tangasi aniqlanadi[22].

6.34 Eski Termizda 1981-yilda Sh.Pidayev tomonidan 2 dona kumush bilan qoplangan mis tanga topiladi. E.V.Rtveladzening aniqlashicha ushbu tangalar Alauddin Muhammad binni Takash tomonidan 806/1211-1212 yillarda Termizda zarb etilgan[32].

6.35 2012-yilgi O’zbek-Fransuz arxeologik ekspeditsiyasining Eski Termizdan 5 dona Alauddin Muhammad Xorazimshoh tomonidan Termizda zarb etilgan kumush qoplangan mis tangalari aniqlanadi[33].

6.36 2018-yilgi O‘zbek-Fransuz arxeologik ekspeditsiyasining Eski Termizdan 15 donadan iborat bo‘lgan Alauddin Muhammad Xorazimshohning Termizda zarb etilgan kumush qoplangan mis tangalari xazinasi aniqlanadi[34].

6.37 2021-yilning Bahorida Termiz tumani “Yangiariq” Q.F.Y hududidan mahalliy aholi tomonidan bir dona Alauddin Muhammad Xorazimshoh oltin tanga-dinori aniqlanadi[35].

Yuqorida keltirib o‘tilgan tanga va xazinalarni sulolaviy jihatdan tahlil etadigan bo‘lsak Arab xalifaligi, ummaviylar va abbosiylar, tangalari Termiz va uning atrofidan jami 24 dona mis tangasi qayd etilga. Dirhamlar esa 2 marotaba 100 dona, asosan ummaviylar davrida zarb etilgan dirhamlar, va 247 donadan iborat ummaviylar va abbosiylar dirhamlari qayd etilgan.

Somoniylar tangalari esa anchayin kamtarona ko‘rinishda, faqatgina alohida ko’rinishda qayd etilgan, shulardan 4 donasi mis tangalar bo‘lsa, bir dona dirham qayd

etilgan. Qoraxoniylar davriga oid Eski Termiz hududida dayd etilgan tanga va xazinalar soni anchayin son jihatdan ustunligini koʻrishimiz mumkun. 17 dona mis va 2 dona dirham alohida ko'rinishda qayd etiladi. Xazinalar esa 3 dona boʻlib barchasi dirhamlar sanaladi, jumladan 28, 12 va bir dona 442 dona butun, 32 dona mayda va 145 dona katta boʻlaklardan iborat xazina qayd etilgan. Saljuqiylar davriga oid bir dona xazina "Termiz" muzey qoʻriqxonasi (sobiq Surxondaryo viloyati Oʻlkashunoslik muzeyi) fondlarida saqlanayotgan boʻlib, jami 7 donadan iborat dirhamlar qayd etilgan. Gʻaznaviylar sulolasiga oid tangalar yuqoridagi sulolalardan farqli ravishda Ma'sud Gʻaznaviy tomonidan zarb etilgan alohida koʻrinishda aniqlangan bir dona dinor va bir dona dirhamlari qayd etilgan. Anushteginiylar hukmdori Alouddin Muhammad Xorazimshoh tomonidan Termizda dinor, dirham va mis tangalarni Termizda zarb ettirishni yoʻlga qoʻyganligi tufayli shu vaqtga qadar Eski Termiz va unga yaqin hududlardan 5 dona alohida koʻrinishda, shularda ikki dona dirham va bir dona dinor aniqlangan. Xazinalar esa jami 5 dona qayd etilgan, shulardan 3 koʻrinishda dirham va ikki koʻrinishda mis tangalar qayd etilgan.

Yuqorida keltirib oʻtilgan tangalardan 12 donasi hali e'lon qilinmagan tangalar sifatida Samarqand Arxeologiya instituti fondlarida saqlanayotgan arxeologik xisobotlar va Termiz arxeologiya muzeyi hamda "Termiz" muzey qoʻriqxonasi (sobiq Surxondaryo viloyati Oʻlkashunoslik muzeyi) fondlarida saqlanayotgan tangalarning bir qismi oʻrganilishi natijasida qayd etilgan.

**Xulosa va takliflar**. Eski Termiz oʻzing qulay nuqtada joylashganligi tufayli savdo-sotiq gullab yashnagan shaharlardan biri sanalgan shahar siyosiy maqsadlar tufayli koʻplab siyosiy kurashlar maydoni markazida qolgan. Ammo Eski Termizning iqtisodiy hayotini kuzatishda yuqoridagi 37 dona alohida va xazina holida qayd etilgan dinor, dirham va mis tangalar toʻliq aks etmaydi, oʻz navbatida muallif bunga da'vo ham qilmaydi. Ushbu tadqiqot Termizning pul munosabatlariga oid kichik bir tadqiqot natijasi sifatida koʻrishimiz mumkin.

## ADABIYOTLAR


1. Ibn Havqal. Kitob surat al-ard, Movarounnahr. Arab tilidan Sh.Kamoliddin tarjimasi.-T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2011.- 30-34 b
2. Hudud al-Alam, the Regions of the world/ A Persian geography / Transleted and explained by V.Minorsky. London, 1970.- 114 p
3. Al Moqaddasi. Abu Abdullah Mohammad ibn Ahmad Shamsiddin, Kescripto Imperii mosle miei/ Ed. M.J. de Goeje, BGA, Pars 3 Lungduni-Batovorum: E.J. Brill, 1967. (1877). -291 p
4. Массон М.Е. Монетные находки, за регистрированные в Средней Азии в 1930 и 1931 годах. //Материалы Узкомстариса выпуск 5. Ташкент. 1933 г. 10 с
5. Давидович Е.А. Неопубликованные монетные находки на территории Узбекистана // Материалы по археологии Узбекистана. [Труды Института истории и археологии АН УзССР. Вып. 7]. — Ташкент, 1955. 155-174 с
6. Федоров М.Н, Ртвеладзе Э.В. Нумизматические находки в Узбекистане в 1966-1968 г. //ЭВ вып. XXI. –Ленинград.: Наука, 1972 г.
7. Лунин В.Б. К топографии и описанию древних монетных кладов и отдельных монетных находок на территори Узбекистана (по архивным данным). //ИМКУ ВЫП 8. 1969 г.-169-193 с
8. Кочнев.Б.Д, Федров М.Н, Ртвеладзе Э.В. Эрназарова Т.С. Нумизматические находки на территории Узбекистана в 1969–1972 гг. // ОНУ. — Ташкент, 1978, № 3.
9. Э.В.Ртвеладзе. К истории денежного обращения в Саганиане VIII – начала XIII вв. // ЭВ. XXIII. 1985. – 38-43.
10. "Termiz" muzey qo'riqxonasi (sobiq СОКМ), КП 1995-34, ИНВ 569
11. Ртвеладзе Э.В. Денежное обращение в Северо-Заподном Тохаристане в раннем средневековье. Городская культура бактрии –тохаристана и согда античность, наннее средневековье. Самарканд.: Фан, 1986. -120-131 с
12. Отчет Термезского археологического отряда о археологические исследованиях за 1982 г.х. Институт Археология АН РУз- Ф5-01-Д57. 32-с
13. Shaxsiy to'plamda saqlanayotgan ushbu tangalar hali e'lon qilinmagan. Tangalar A.Ataxodjayev tomonidan o'qilgan.
14. "Termiz" muzey qo'riqxonasi (sobiq СОКМ), КП 30-14, ИНВ 246
15. В.А.Козловский, К.А.Шейко. Раскопки «кургана» на городище старого Термеза.//Краеведение Сурхандарьи. Т.: «Узбекистан», 1989. - 52-62 с.
16. ОТЧЕТ о работе узбеко-франыузкой Бактрийской экспедиции за 1995 г. Институт Археология АН РУз- Ф5-01-Д157. 13-32 с
17. "Termiz" muzey qo'riqxonasi (sobiq СОКМ), КП 209-18, ИНВ 248
18. Б.Д.Кочнев. Клад позднекараханидские дирхемов из Термеза.// Краеведение Сурхандарьи. Т.: «Узбекистан», 1989. 77-85 с.
19. М.Н. Федоров. Нумизматические данные к истории Саганиана первой половны XI в.// ИМКУ ВЫП 8. 1969 г. 93-200 с
20. Отчет Термезского археологического отряда о археологические исследованиях за 1982 г.х. Институт Археология АН РУз- Ф5-01-Д57. 32 с
21. Отчет Термезского археологического отряда о археологические исследованиях за 1984 г.х Институт Археология АН РУз- Ф5-01-Д77. 19 с
22. Отчет Термезского археологического отряда о археологические исследованиях за 1987 г.х. Институт Археология АН РУз-Ф5-01-Д100. 61
23. Отчет Термезского археологического отряда за 1989 г. Институт Археология АН РУз-Ф5-01-Д112. 26-31с
24. Полевой отчет термезского археологического отряда за 1990 г. Институт Археология АН РУз-Ф5-01-Д117. 12 с
25. "Termiz" muzey qo'riqxonasi (sobiq СОКМ), КП 208-5, ИНВ 244
26. "Termiz" muzey qo'riqxonasi (sobiq СОКМ), КП 208, ИНВ 244,243
27. "Termiz" muzey qo'riqxonasi (sobiq СОКМ), КП 30№15, ИНВ 245.
28. "Termiz" muzey qo'riqxonasi (sobiq СОКМ), КП 1896-25-26, ИНВ 534
29. Е.А.Давидович. Термезский клад медных посеребряных дирхемов 617/1220 г. //Эпиграфика востока. Выпуск VIII. 1953

30. “Termiz” muzey qo’riqxonasi, КП 208-7, ИНВ 243.
31. “Termiz” muzey qo’riqxonasi, КП 2133, ИНВ 639.
32. Отчет Термезского археологического отряда о археологические исследованиях за 1981 г.х. Институт Археология АН РУз-Ф5-01-Д53. 5 с
33. Termiz arxeologiya muzeyi, TAM 34284-34288
34. Termiz arxeologiya muzeyi, TAM 35401/47
35. Termiz arxeologiya muzeyi, TAM 37113

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 575.1

***Islombek OLIMOV,***
*Namangan Davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*
*E-mail:olimov.islombek92@mail.ru.*

*Prof., t.f.d A.Rasulov taqrizi asosida*

## SUV RESURSLARIDAN SAMARALI VA OQILONA FOYDALANISH DAVRNING ENG DOLZARB MUAMMOLARIDAN BIRI

Annotatsiya

Ushbu matnda suv resurslarining muammolari, suv ta'minoti va foydalanishning ekologik boylikdagi mohiyati, o'simlik va hayvonot dunyosining suvga bo'lgan ehtiyojlarining kuchaytirilishi, hamda O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi va bu yo'lda amalga oshirilayotgan ishlar bayon qilingan. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalar, mamlakatning suv bilan ta'minlanishining yanada barqaror va samarali bo'lishiga oid. Suv xo'jaligi sohasidagi katta ishlar o'rtasida sug'orish tizimlarining isloh qilinishi, suv resurslaridan oqilona foydalanish, suvni iste'mol qilish jarayonlarini avtomatlashtirish, texnologiyani kengaytirish, va tashqiyoat qiluvchi biroq texnik vositalar orqali suvni to'plash va taqsimlashni samaraliroq qilish kabi muhim vazifalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Globallashuv, BMT, Smart Water, Yo’l xarita, daryolar, ko’llar

## EFFECTIVE AND RATIONAL USE OF WATER RESOURCES IS ONE OF THE MOST URGENT PROBLEMS OF THE TIME

Annotation

In this text, the problems of water resources, the essence of water supply and use in ecological wealth, the strengthening of the water needs of flora and fauna, and the concept of water management development of the Republic of Uzbekistan for 2020-2030 and the works being carried out on this road are described. The tasks defined within the framework of the concept are related to the more stable and effective water supply of the country. Among the great works in the field of water management are the reform of irrigation systems, the rational use of water resources, the automation of water consumption processes, the expansion of technology, and the more efficient collection and distribution of water through external but technical means. tasks are listed.

**Key words:** Globalization, UN, Smart Water, Roadmap, rivers, lakes

## ЭФФЕКТИВНОЕ И РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ – ОДНА ИЗ САМЫХ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ СОВРЕМЕННОСТИ

Аннотация

В данном тексте рассмотрены проблемы водных ресурсов, сущность водоснабжения и использования воды в экологическом богатстве, усиление потребности в воде растительного и животного мира, а также концепция развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы. и описаны работы, проводимые на этой дороге. Задачи, определенные в рамках концепции, связаны с более стабильным и эффективным водоснабжением страны. К числу великих работ в области водного хозяйства относятся реформа ирригационных систем, рациональное использование водных ресурсов, автоматизация процессов водопотребления, расширение технологий, более эффективный сбор и распределение воды внешними, но техническими средствами, задачи перечислены.

**Ключевые слова:** Глобализация, ООН, «Умная вода», «Дорожная карта», реки, озера.

**Kirish.** Bugungi kundagi dunyo globallashuvi jarayoni, iqlim o’zgarishi mavjud ekologik muammolarni yanada kuchaytirib, yangi xavotirlarni keltirib chiqarmoqda. Shulardan eng asosiysi dunyoning barcha nuqtalarida yuzaga kelgan va yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammo u ham bo’lsa suv resurslarining kamayib borishidir. Suv tabiatning eng muhim boyliklaridan biri bo‘lib, u butun tirik jonzot, inson, o‘simlik va hayvonot dunyosi uchun hayot, yashash manbaidir. Hozirgi kunga kelib ushbu ekologik muammolarni oldini olish borasida birqancha ishlar amalga oshirilmoqda. Aholi va korxonalar suv bilan samarali ishlash va isrofni kamaytirish bo'yicha ma'lumotlarga ega bo‘lishi muhimdir. Suvni isrof qilmaslik, samarali qo‘llash, va o‘zini boshqarish bilan bog‘liq qadriyatlar suvning ta'limi va tarbiyalanishi bo‘yicha muhimdir. Suvsizlik tahdid solib kelgan hududlarda ekologik tarqatuvchi yondashuvlarni amalga oshirish kerak. Qo‘llanmalar, korxonalar, fermalar va oila xo‘jaliklarining ekologik boshqarishini rivojlantirish, suv tasarrufini oshirish va suv isrofini kamaytirishga yo‘naltirilgan ilg‘or yondashuvlar muhimdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda sayyoradagi 10 kishidan 3 nafari xavfsiz boshqariladigan ichimlik suv manbalaridan foydalanish imkoniyatiga yo’q va har 10 kishidan 6 nafari sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Suv olish imkoniyatiga ega bo‘lmagan 80 foiz uy xo‘jaliklarida ayollar va qizlar suv uchun javobgardir. Dunyo aholisining 40 foizdan ko‘prog‘i uchun suv tanqisligi dolzarb muammodir va zarur choralar qo‘llanilmasa kelgusida bu ko‘rsatkich yanada yomonlashishi kutilmoqda[1]. Dunyodagi umumiy suv zaxiralari qariyb 1,5 milliard km³ bo‘lgani holda uning 2 foizga yaqin qisminigina chuchuk suvlar tashkil etadi. Insoniyat o‘z ehtiyojlari uchun ishlatishi mumkin bo‘lgan chuchuk suvlar resurslari esa olimlar hisoblariga ko‘ra atigi 41 ming km³ni tashkil etadi. Hozirgi kunda 1,7 milliarddan ortiq odam suvga

ehtiyoj sezib, suvni qayta to‘ldirish hajmidan oshadigan daryolar havzalarida yashamoqda. Daryolar, ko‘llar va suv qatlamlaridan olinadigan suvning qariyb 70 foizi sug‘orish uchun ishlatilmoqda[2].

Dunyo aholisining o‘sishi bilan suv va oziq-ovqatga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Suv resurslaridan oqilona foydalanish yetarli darajada emasligi, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit sharoitining yomonlashishi tufayli ko‘plab suv manbalari xavf ostida qolmoqda. Dunyo resurslari institutining prognozlariga ko‘ra, 2040 yilga kelib, jahonning 33 davlati suvning o‘ta darajada tanqisligi muammosi bilan to‘qnashadi. Bu mamlakatlar orasida Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi mavjud[3].

Bundan tashqari O’rta Osiyo hududida suv resurslarining tobora kamayib boorish fonida, Afg’oniston hukumatining Qo’shtepa kanali orqali Amudaryodan taxminan 300 ming gektar yerni sug’orish maqsadida 4-5 mlrd kub metr suv olmoqchi[4]. Bu holat shusiz ham suvsizlik tahdid solib kelayotgan O’zbekiston uchun katta havfdir.

Qolaversa, suv ayrim mintaqalar uchun geosiyosiy barqarorlik omili bo‘lib, suvdan foydalanish va taqsimlashning samarali va barqaror amaliyotlarini ishlab chiqish mintaqa mamlakatlarining kelajakdagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun juda muhimdir.

Mamlakatimizda suvni tejash, undan oqilona foydalanish bo‘yicha ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbarining bir qator farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, 2020 yil 10 iyulda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-sonli Farmoni kelgusi o‘n yillikda mamlakatimiz aholisini va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini suv bilan barqaror ta’minlash, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo‘jaligiga raqamli tyexnologiyalarni keng joriy etish hamda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun xizmat qiluvchi tarixiy hujjatdir.

Mazkur Farmon bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020—2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasiga muvofiq, 2030 yilga qadar quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarga erishish rejalash-tirilgan:

sug‘orish tizimlarining foydali ish koeffisiyentini 0,63 dan 0,73 gacha oshirish va sug‘oriladigan maydonning har bir gektariga beriladigan suv hajmini 20% ga kamaytirish orqali suvning mahsuldorligi oshirilishi;

suv ta’minoti past darajada bo‘lgan sug‘oriladigan yer maydonlarini 560 ming gektardan 190 ming gektargacha kamaytirish;

sho‘rlangan sug‘oriladigan yer maydonlarini 1 948 ming gektardan 1 722 ming gektarga, ya’ni 226 ming gektarga kamaytirish;

Suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalarining yillik elektr energiyasi iste’molini 8,0 mlrd kVt.s dan 6,0 mlrd kVt.s gacha, ya’ni 25 foizga kamaytirish;

100 ta yirik suv xo‘jaligi ob’yektlarida suvni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish;

qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln gektargacha, shu jumladan tomchilab sug‘orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish[5].

Shunindek, konsepsiyada «Smart Water» («Aqlli suv») axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar asosida suv o‘lchash tizimi joriy etilgan suv xo‘jaligi ob’yektlari soni 61 tadan 2020 yilda 151 tagacha, 2024 yilda 18 576 tagacha (100 foiz) ko‘payishini ta’minlash belgilab qo‘yilgan[6].

Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasida belgilangan vazifalarni 2020 — 2022 yillarda amalga oshirish bo‘yicha tasdiqlangan «Yo‘l xarita»sida Suv xo‘jaligi vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini, suv resurslarini boshqarish, suvdan samarali foydalanish va suvni iste’mol qilish bo‘yicha samarali mexanizmlarni joriy etish maqsadida Suv kodeksini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

**Tadqiqqot metodologiyasi.** Umuman olganda, konsepsiya doirasida amalga oshiriladigan ishlar suv resurslari zaxirasi hamda aholini va iqtisodiyot tarmoqlarini suv bilan ta’minlashda yuzaga keladigan tahdidlarni oldini olish, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, transchegaraviy suv resurslaridan adolatli foydalanish hamda suv tejovchi texnologiyalarini amaliyotga keng joriy qilish orqali suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi kunda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini hamda yoshlarni ish bilan ta’minlash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Qishloq xo‘jaligida vaqtincha foydalanilmayotgan yerlarni o‘zlashtirib, kam ta’minlangan oilalarni band qilish bo‘yicha tizim qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ko‘paytirishga xizmat qilishi bilan birgalikda kambag‘allik va ishsizlikni kamaytirish imkonini bermoqda.

Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 iyuldagi “Suv ta’minoti og‘ir hududlardagi aholi tomorqalari va qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan yer maydonlariga suv chiqarish ishlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 459-sonli Qarorida Suv ta’minoti og‘ir xududlardagi aholi tomorqalari va qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan yer maydonlarini sug‘orish uchun vertikal sug‘orish quduqlarini burg‘ulash va ishga tushirish bilan bog‘liq xarajatlarni davlat tomonidan qoplab berish belgilandi[7].

Mamlakatimizning ayrim hududlarida quduqlarni haddan tashqari ko‘plab qazilishi va ulardan nooqilona foydalanish natijasida yer osti suvlari zaxiralarining kamayib ketmoqda. So‘nggi 40-50 yil davomida yer osti suvlari zaxiralari 35 foizga qisqargan[8].

**Xulosa va takliflar.** Suv resurslaridan oqilona foydalanish davrimizning eng og’ir muammolaridan biri, shunday ekan suvni tejash orqali suv balansi va ekologiyani buzilishini oldini olish mumkin, bu nafaqat agrar sohani kafolatlangan va barqaror suv bilan ta’minlash imkonini beradi, balki mintaqaning ekologik xavfsizligini saqlash imkonini ham beradi. Suv, iqtisodiyotning katta qismiga ta'sir ko'rsatadi. Toza suv va samarali suv boshqarish jarayonlari ekologiya va iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi. Bu esa iqtisodiyotning barqaror barpo etilishini va amalga oshirilishini ta’minlaydi. Jamiyatda, hukumatlarda tadbirkorona harakat qilish, shu jumladan, suvni samarali boshqarish, suv manbalarini saqlashni o‘z ichiga olgan, uni saqlash uchun qo‘llaniladigan texnologiyalarni rivojlantirish va ta’limni oshirish, suv va suvdan foydalanishni samarali va barqaror qilishga o‘rgatish lozim.

## ADABIYOTLAR

1. BMTning 2015 yil sentayabr oyida Barqaror rivojlantirish sammitida qabul qilingan 70-sonli rezolutsiyasi –B.19
2. Salohiddinov A.T. , Ashirova O.A. Suv resurslarini havzaviy rejalashtirish va boshqarish – T.: 2020 –B. 18

3. Abdullayev B.D., Ibragimova N.E., Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences//Suv resurslari tabiatning muhim omili 1/9 2021 –B.821
4. https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/26/water/
5. "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024 farmoni
6. https://uzreport.news/society/ozbekistonda-smart-water-texnologiyasi-joriy-etiladi
7. https://www.lex.uz/docs/4923635
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2954 son qarori

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:297.18(584.4)

***Matluba RAXMANKULOVA,***
*O‘zbekistondagi Islom sivilizasiyasi markazi katta ilmiy xodimi, PhD*
*E-mail: rahmankulova.matluba@mail.ru*

*Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Sh.Choriyev tahriri asosida*

## ИЗ ИСТОРИИ ИСЛАМСКОГО КНИЖНОГО ДЕЛА В ПЕРИОД ТИМУРИДОВ

Аннотация
В данной статье приводится исторический анализ периода правления Темуридов с точки зрения развития исламского книжного дела, освещается вклад темуридских правителей и их наследников, а также развитие профессиональной деятельности мастеров книжного дела. Обсуждаются образцы рукописей, созданные в период Темуридов.
**Ключевые слова**: Амир Темур, Темуриды, книждое дело, каллиграфия, переплетное дело, Шахрух Мирза, Байсункур ибн Шахрух, Хусейн Байкара.

## FROM THE HISTORY OF ISLAMIC BOOKMAKING IN THE TIMURID PERIOD

Annotation
This article analyzes the issue of the Timurid reign as a period of development of Islamic bookmaking, describes the contribution of Timurid rulers and princes, as well as masters, to the development of bookmaking. Samples of manuscripts produced during the Timurid period are discussed.
**Key words**: Amir Temur, Timurids, bookmaking, calligraphy, bookbinding, Shahrukh Mirza, Baysunkur ibn Shahrukh, Husseyn Baykara.

## TEMURIYLAR DAVRI ISLOM KITOBATI TARIXIDAN

Annotatsiya
Mazkur maqolada Temuriylar hukmronligi davri islom kitobatining rivojlangan davri bo‘lganligiga oid mulohazalar bildirilgan, Temuriy hukmdor va shahzodalar hamda kitobat san'ati ustalarining kitobat rivojiga qo‘shgan hissasi yoritib berilgan. Temuriylar davrida yaratilgan kitobat san'ati namunalariga to‘xtalib o‘tilgan.
**Kalit so‘zlar**: Amir Temur, temuriylar, kitobat, xattotlik, muqovasozlik, Shohrux mirzo, Boysunqur ibn Shohrux, Husayn Bayqaro

**Kirish**. Arab tilida bitilgan Sharq kitobatining rivojlanish davri Amir Temur (1336-1405) va temuriylar (1370-1507) davriga xosdir. XIV asr oxiri – XV asr davomida Markaziy Osiyoda qudratli markazlashgan davlatning yuzaga kelishi iqtisodiyot rivojiga, karvon yo‘llarining tiklanishiga, savdo-sotiqning kengayishiga, hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligining o‘sishiga, madaniy-ma'naviy yuksalishga, jumladan, qo‘lyozma kitoblarni tayyorlash Movarounnahr va Xuroson madaniy-ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etishiga turtki bo‘ldi. XIV–XV asrlarda yaratilgan qo‘lyozmalar Markaziy Osiyoning yirik madaniy markazlarida oddiy qo‘lyozmalarga nisbatan ko‘proq badiiy qo‘lyozmalar tayyorlash taraqqiy eta boshlagani, xuddi shu davrdan kitobat ishi kitobat san'ati darajasiga ko‘tarilganligidan guvohlik beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Temuriylar davrida islom kitobati tarixini o‘rganishda foydalanilgan tadqiqotlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratgan holda o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Ilmiy adabiyotlarning birinchi guruhiga Sharq qo‘lyozma fondlarining katalog va tavsiflari kiritildi. Ikkinchi guruhga kiritilgan tadqiqotlar uch qismga ajratilgan holda tahlil qilinadi. Markaziy Osiyo muqovasozligi tarixini o‘rganishda foydalanilgan tadqiqotlar sovet davrida va mustaqillik yillari yaratilgan hamda xorij olimlari tomonidan yaratilgan tadqiqotlardan iborat.

Sovet davrida yaratilgan A.A.Semenov, V.G.Dolinskaya, A.Yu.Kaziev, O.F.Akimushkin, T.I.Sultonov tadqiqotlarida masalaning turli jihatlari tadqiq etilgan. A.A.Semenov Alisher Navoiy davriga oid Hirot qo‘lyozma kitobati tarixi to‘g‘risidagi maqolasini islomgacha bo‘lgan fors san'ati, arab madaniyatining muqovasozlikka ta'siriga oid fikrlar bilan boshlaydi. V.G.Dolinskayaning kashmir muqovalar haqidagi maqolasida Markaziy Osiyo va Kashmir muqovasozlari orasidagi aloqalar to‘g‘risida mulohazalar mavjud. A.Yu.Kaziev tadqiqotlarida Ozarbayjon kitobat san’ati rivojida temuriylar davrining alohida ahamiyatga ega bo‘lganligini ta'kidlash bilan birga, qo’lyozmalarning badiiy-texnik materiallarini o‘rganishga ham e'tibor qaratadi.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Ushbu maqolada tarixiylik, xronologik yondashuv, qiyosiy-tahlil kabi tarixiy metodlardan foydalanildi. Maqolada temuriy hukmdor va shahzodalarning, kitobat san’ati ustalarining islom kitobati rivojiga qo’shgan hissasi, bu davrga oid qo’lyozma namunalari haqida mulohazalar bildirilgan.

**Tahlil va natijalar.** Amir Temurdan so‘ng temuriylar hukmronligi davrida kitobatga e'tibor yanada kuchaydi. Lekin saltanatning Movarounnahr va Xurosonga bo‘linishi mintaqadagi madaniy hayotga o‘z ta'sirini o‘tkazmay qolmadi. Ammo hukmdorlar va shahzodalarning ilm-fan, madaniyat va san'atning turli sohalariga homiyligi madaniy-ma'naviy hayotning rivojlanishiga zamin yaratdi. 1411-yilda Temuriy hukmdor Shohrux Mirzo (1377–1447) o‘g‘li Ulug‘bekni (1394–1449) Movarounnahr va Turkiston hokimi etib tayinlaydi. Ulug‘bek Amir Temur tomonidan Samarqandga olib kelingan ustalarning ko‘pchiligini o‘z vataniga qaytarishga qaror qiladi. Natijada mamlakatning turli viloyatlarida badiiy ustaxonalar faoliyat ko‘rsatishi uchun imkoniyat yaratiladi.

San'atga homiylik Shohrux Mirzo saroyi bilan cheklanib qolmadi, balki u turli viloyatlarga tayinlagan hokimlar nafis san'at asarlarini yaratishda bir-birlari bilan

raqobatlashdilar. Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Sherozda Ibrohim Sulton (vaf. 1435), Samarqandda Mirzo Ulug‘bek, Hirotda G‘iyosiddin Boysung‘ur ibn Shohrux (1397–1433), Sulton Husayn Boyqaro (1438–1506) temuriylar kitobat ishi shakllanishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Temuriy shahzodalar tomonidan san'atning turli sohalariga qilingan homiylik san'at va mafkura o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning shakllanishiga sabab bo‘ldi.

XV asrning boshlarida Tabrizda G‘iyosiddin Sulton Ahmadxon Jaloyiriy homiyligida qo‘lyozma kitoblarni tayyorlash markazi faoliyat yuritgan. Hirotda Shohrux Mirzoning taxtga o‘tirishi, 1410-yilda Sulton Ahmadning vafot etishi kabi voqealar kitobat markazining sharqqa siljishiga sabab bo‘ldi, bir qancha kitobat ustalari Shohrux tomonidan Hirotga taklif etiladi [17]. 1420 yilda Qoraquyunlilar (1375–1468) yo‘lboshchisi Qora Yusuf (vaf. 1420) mag‘lub etilib, Tabriz qaytadan egallanganda, Boysung‘ur Mirzo bir guruh kitobat ustalarini o‘zi bilan Hirotga olib kelgan [15]. Temuriy hukmdor Shohrux Mirzo davrida mamlakat markazida kitobatning Hirot uslubi yaratilishi uchun ilk qadamlar qo‘yilgan bo‘lsa, Boysung‘ur Mirzo rahbarligida Hirot kitobat markazi sifatida rivojlanadi.

Tarixiy manbalarda Shohrux homiyligida amalga oshirilgan kitobat jarayoni haqida ma'lumotlar juda kam. Davlatshoh Samarqandiy (taxminan 1436-37–1495) Shohrux Mirzo kutubxonasining rassomi sifatida Mavlono Xalil nomini qayd etadi [28].

Qozi Ahmad Qumiy Shohrux Mirzo Iroqni egallagandan so‘ng xattot Mavlono Ma'ruf Xattoti Bag‘dodiyni o‘z kutubxonasida ishlash uchun Hirotga olib kelgani haqida yozgan [5]. Bundan tashqari, Qozi Ahmad Qumiy Dor us-saltana hirotlik Abdulloh Tabbox ajoyib xattot bo‘lganligi, ko‘plab binolar uchun yozuvlarni tayyorlagani, afshon (oltin purkash) va kitoblarni restavratsiya qilish bo‘yicha ham usta ekanligini eslatib o‘tadi [5].

Shohrux Mirzo kutubxonasida tayyorlangan har bir qo‘lyozmaning, odatda, sahifa chetlariga, dastlabki shamsa atrofiga yoki unvon yoniga, jami to‘rt-besh marta aylana muhr tushirilgan, o‘lchami va yozilishi farq qilgan ikki xil muhr ishlatilgan. Birinchi muhr yozuvlari ingichkaroq, diametri 33 mm, ikkinchisining diametri 22 mm. Muhrlarda nasx xatida “Buyuk sulton Shohrux Bahodirning kitob xazinasidan” so‘zlari yozilgan:

من كتب خزانه السلطان الاعظم شاه رخ بهادر

Shohrux Mirzo kutubxonasining kitoblari orasidan bizgacha saqlanib qolgan qo‘lyozmalar uning asosan tarixiy, diniy va ilmiy adabiyotlarga qiziqqanligidan guvohlik beradi [16, 18, 30].

Kitobat homiysi sifatida tanilgan shahzoda Boysung‘ur Mirzo Sharq kitobat taraqqiyotida yangi davrni boshlab bergan saroy ilmiy muassasasi va kutubxonasiga asos soldi [19, 25, 12, 26, 10, 27, 22]. Boysung‘urning o‘zi mohir xattot va musavvir bo‘lgan, turk, arab, fors tillarida she'rlar ham bitgan. 1420-yilda otasining qo‘llab-quvvatlashi bilan Hirotda o‘z kutubxonasini tashkil etdi, saltanatning turli hududlaridan kelgan kitobat ustalarini o‘z homiyligi va rahbarligi ostida birlashtirdi. O‘sha vaqt Hirotda shoh saroyida xattot Kamoliddin Ja'far Ali Boysung‘uriy Tabriziy (vaf. 1433) va Xoja G‘iyosiddin naqqoshlar (XIV asrning ikkinchi yarmi) faoliyat yuritgan. Xoja G‘iyosiddin Naqqosh 1419–1422-yillarda Xitoyga yuborilgan Shohrux Mirzo elchiligida Boysung‘ur Mirzoning vakilidan biri sifatida ishtirok etgan [1]. Temuriylar va Xitoy o‘rtasida diplomatik aloqalar keng yo‘lga qo‘yilganligi, elchiliklar natijasida nafaqat siyosiy, balki madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar yaratilganligi Hirot kutubxonasi faoliyatiga ta'sir etib, unda ijod qilgan ustalar faoliyatida Xitoy san'atiga xos sifatlarning paydo bo‘lishiga, jumladan, bezak uslubidagi o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan [31, 32].

Boysung‘ur Mirzo kutubxonasida qo‘lyozma kitoblarni tayyorlash bo‘yicha turli soha mutaxassislari to‘planib, kitobat durdonalarini yaratganlar. O‘rta asrlar Sharq qo‘lyozmalari bo‘yicha tadqiqotchi, shved diplomati Fredrik Martin (1868–1933) 1912-yilda bu muassasaga nisbatan “Boysung‘ur akademiyasi” degan ta'rifni ishlatgan [21]. Ustalarning ko‘pchiligi Boysung‘uriy nisbasi bilan ijod qilgan. Kutubxonaning bosh xattoti Kamoliddin Ja'far Ali Boysung‘uriy Tabriziy vaqti-vaqti bilan Boysung‘ur Mirzoga ustalar faoliyati bo‘yicha axborot berib turgan. Taxminan 1427–1431 yillar oralig‘ida tayyorlangan rasmiy hisobot – Arzadoshtda (Istanbul, Topkapi Saray Library. Hazine 2153/f.98a.) kutubxonada faoliyat yuritgan kitobat ustalaridan 25 tasining nomi keltirilgan: beshta xattot – Mavlono Shams, Mavlono Qutb, Mavlono Sa'diddin, Mavlono Muhammadiy Mutahhar va Ja'far Boysung‘uriy; ikkita musavvir – Amir Xalil va Xoja G‘iyosiddin Naqqosh; o‘n uchta qo‘lyozmaga bezak beruvchi ustalar – naqqosh, muzahhib, lavvoh – Mavlono Ali, Mavlono Shihob, Mahmud, Xoja Ota, Hoji, Xitoyi, Abdussalom, ustoz Sayfiddin, Xoja Mir Hasan, Mir Shamsiddin ibn Xoja Mir Hasan, Mavlono Shams, ustoz Davlatxoja, Xoja Atoy jadvalkash; uchta sahhof – Mavlono Qavomiddin, Hoji Mahmud, Xoja Mahmud; ikkita tarroh – Xoja Abdulrahim, Mir Davlatyor [11]. Mustafo Ali (1541–1600) “Manoqibi hunarvaron” asarida Boysung‘ur Mirzo saroy kutubxonasida 40 ta xattot faoliyat olib borganligini qayd etadi [23]. Hirot kutubxonasida 1429–1431-yillar mobaynida badiiy jihatdan yuksak darajada bajarilgan ko‘plab qo‘lyozmalar yaratilgan.

Boysung‘ur Mirzo vafotidan so‘ng kutubxona katta o‘g‘li Alouddavla (1417–1460) ixtiyoriga o‘tadi. 1447-yil Shohrux vafot etgach, Mirzo Ulug‘bek ustalarning bir qismini Hirotga xos ijodiy uslublarni davom ettirish uchun Samarqandga olib keladi. Qutbiddin Sheroziyning (vaf. 1311) Muhammad ibn Ayoz ibn Usmon ibn Sodiq tomonidan 690/1231-yilda ko‘chirilgan, muallifning shaxsiy kutubxonasiga tegishli bo‘lgan “Fi-tuhfat fi-shahiyya fil-hay'a” (“Astronomiyaga oid shohona tuhfa”) asari Mirzo Ulug‘bekning saroy kutubxonasida saqlangan. Qo‘lyozmaning birinchi sahifasida ushbu asarni o‘qiganligi haqida qaydni Mirzo Ulug‘bek o‘z dastxati bilan yozib qoldirgan. Qo‘lyozma 1984-yil 15-oktyabrda Sotbi auksioniga qo‘yilgan [13]. Mirzo Ulug‘bek hukmronligi vaqtida bir nechta qo‘lyozma kitoblar tayyorlanadi, ulardan biri Abdurahmon as-So‘fiyning (vaf. 986) “Suvar al-kavokib al-sobita” asarining taxminan 1430–1440-yillarda Mirzo Ulug‘bek kutubxonasi uchun tayyorlangan nusxasi bo‘lib, unda yulduzlarning aniq joylashish o‘rnini ko‘rsatuvchi tasvirlar aks ettirilgan (Paris, Bibliotheque Nationale de France. Suppl. Arabe. 5036). Mirzo Ulug‘bekning “Ziji Ko‘ragoniy” asarining 1440-yilda muallif uchun tayyorlangan qo‘lyozmasi AQShda Abolala Sudavar shaxsiy kolleksiyasida saqlanmoqda [9].

Temuriylar davri kitobati Hirotda Sulton Husayn Boyqaro va uning vaziri Alisher Navoiy (1441–1501) yashagan davrda yanada yuksak rivoj topdi. Xuroson, ayniqsa, Hirot olimlar, betakror ijodkorlar bilan gavjum bo‘lgan, har bir kishi muayyan hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) “Sulton Husayn Mirzo davri ajib davrdir”, – deb yozadi [4]. Sulton Husayn Boyqaro kutubxonasida juda ko‘plab qo‘lyozma kitoblar tayyorlangan [24, 29, 20].

Dastlab Mavlono Fasihiddin sohibdor Husayn Boyqaro kutubxonasining boshqaruvchisi bo‘lgan. Mavlono Hoji Muhammad naqqosh (vaf.1507) avval Husayn Boyqaro, so‘ng 1499-yilgacha Alisher Navoiy kutubxonasida boshqaruvchilik

qilgan, undan so‘ng Alisher Navoiyning kutubxonasini Xondamir (vaf. taxm. 942/1535-36) boshqaradi. Mavlono Hoji Muhammad 1498-yil Hirotni tark etgach, Balxda Badiuzzamon (vaf. 1514) kutubxonasini boshqargan. O‘rta asrlarning buyuk san'atkori, miniatyura san'atining vakili Kamoliddin Behzod (1456-1537) dastlab 1500 yili Husayn Boyqaro saroyidagi kutubxonaga [3], keyinchalik, Hirotdan Tabrizga ketgach, shoh Ismoil I (1502-1524) kutubxonasiga boshchilik qilgan [8]. Alisher Navoiyning shaxsiy kutubxonasida 11 ta xattot, 6 ta rassom faoliyat olib borgan [6].

Saroy kutubxonalaridan tashqari, so‘fiylar xonaqohini ham kitoblar yaratiladigan muassasa sifatida keltirish mumkin. Muhammad Porso nomi bilan mashhur so‘fiy Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hofiz al-Buxoriy (1345-1420) XV asr boshlarida Buxoroda xalq uchun ommaviy kutubxona tashkil qiladi. Ushbu kutubxona XIX asrgacha faoliyat yuritgan [14].

Temuriylarning Hirot kitobat muassasasi 1507 yilda Shayboniylar tomonidan (1500-1601) Hirot egallanganda yo‘q qilindi. Ko‘chmanchi o‘zbeklardan bo‘lgan Shayboniyxon (1451-1510) 1499-yilda Movarounnahrni, Sulton Husayn vafotidan so‘ng 1507-yilda Hirotni egallaydi. Ko‘plab olim, shoir, musavvir va xattotlar Hirotdan boshqa shaharlarga ko‘chib ketadilar, ana shu paytda Hirot kitobat ustalari qatori xattot Sulton Ali Mashhadiy (1437-1520) shogirdlari bilan Buxoroga kelib, Hirot kitobat maktabining an'analarini davom ettirdilar [7].

**Xulosa**. Bu davrda kitobatning rivojlanishi temuriy hukmdorlarning ma'naviy merosni e'zozlash va ehtiyot qilishga intilishi, kitobga qiziqishining ortishi, turli davlatlar madaniy markazlari bilan doimiy aloqalarning keng yo‘lga qo‘yilgani hamda shahar madaniyatidagi yuksalish bilan chambarchas bog‘liq. XV–XVII asrlarda jamiyatdagi badavlat kishilar bezatilgan qo‘lyozma kitoblarga ega bo‘lishga alohida e'tibor berishgan. Badiiy qo‘lyozmani yaratuvchilar – turli soha ustalaridan iborat bir guruh saroy kutubxonalaridagi ustaxonalarga jalb etilgan holda faoliyat yuritgan bo‘lsa, kitobat jarayonida ishtirok etuvchi ustalarning boshqa bir guruhlari alohida birlashib, ziyolilar va oddiy aholidan iborat kitobxonlar uchun shaxsiy tartibda ishlagani ma'lum. Chunki badavlat shaxslar buyurtmasi bo‘yicha tayyorlangan bezaklarga boy kitoblardan tashqari, adabiyot, ilm-fan namoyandalari va kitob ishqibozlari uchun mo‘ljallangan oddiy kitoblarga ham talab yuqori bo‘lgan. Temuriylar davri qo‘lyozmalarida o‘z aksini topgan texnik mahorat va mukammal badiiy bezaklar bir necha asrlar davom etib kelgan va san'atning turli sohalarini qamrab olgan taraqqiyot mahsulidir. Bu davrda kitobatning mavjud an'analari yangi usullar bilan uyg‘unlashtirilib, Hirot maktabiga xos bo‘lgan yangi uslub yaratildi va butun islom kitobatining keyingi rivojiga o‘z ta'sirini ko‘rsatdi. Bunda kitobat rivojlanishiga homiylik qilgan temuriy hukmdorlar hamda muqovasozlik sohasida ijod etgan ustalar muhim rol o‘ynadi.

## ADABIYOTLAR


1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи садайн ва мажмаи баҳрайн. 2-жилд (Масъул муҳаррирлар А.Қаюмов, Муҳаммад Али). – Тошкент.: Ўзбекистон, 2008. – 375 б.
2. Акимушкин О. Ф. Заметки к биографии Камал ад-Дина Бехзада / в кн. Средневековый Иран. Культура, история, филология». – СПб. Наука. 2004. – С. 68-73. 1
3. Акимушкин О. Легенда о художнике Бехзаде и каллиграфе Махмуде Нишапури / в кн. Средневековый Иран. Культура, история, филология. – СПб. Наука. 2004. – С. 59-63;
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. / Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчилар С.Азимжонова ва А.Қаюмов. – Тошкент., 1958. – Б. 211.
5. Кази Ахмед. Трактат о каллиграфах и художниках (1005/1596-7). – С.71-73.
6. Кубо Кадзуюки. Меценатская деятельность Алишера Навои // Общественные науки в Узбекистана. 1991, №9. – С.25.
7. Муродов А. Марказий Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент.: Фан, 1971. – Б. 39.
8. Юсупова Д. Жизнь и труды Хондамира. – Ташкент.: Фан, 2006. – С. 157.
9. Abolala Soudavar, Art of the Persian Courts. – New York: Rizzioli, 1992. – P. 67. cat. no 25.
10. Akbari T., Bayani S. Archaelogical Analysis to Pictorial Shahnameh of Baysongor Mirza Tiymouri // Asian Culture and History; Vol. 5, No. 1; 2013. – P. 24-33;
11. Akimushkin O. The Library-Workshop (Kitabkhana) of Baysunghur Mirza in Herat // Manuscripta Orientalia. – Saint Petersburg, 1997. – № 3/1. – P. 15.
12. Catalogue of Fine Oriental Manuscripts and Miniatures including Property from the Eastate of King Umberto II of Italy. – London, Monday 15th October 1984. – №292.
13. Dodhudoeva L. La bibliothèque de Khwâja Mohammad Pârsâ // Boukhara-la-Noble. 1998. – № 5/6. – P. 125-146.
14. Dost-Muhammad. Preface to the Bahram Mirza Album / A Century of Princes: Sources on Timurid History and Art. Selected and translated by W.Thackston. – Cambridge. – Massachusetts, 1989. – P. 346
15. Ettinghausen R. An illuminated manuscript of Ḥāfiẓ-i Abrū in Istanbul. Part I // Kunst des Orients Vol. 2 (Oktober 1955). – P. 30-44;
16. Ghiasian Mohamad Reza. Lives of the Prophets: The Illustrations to Hafiz-i Abru’s “Assembly of Chronicles.” – Leiden, Boston: Brill, 2018. – P. 25.
17. Inal G. Some Miniatures of the "Jāmi' al-Tav Ārīkh" in Istanbul, Topkapi Museum, Hazine Library No. 1654 // Ars Orientalis, Vol. 5 (1963). – P. 163-175;
18. Kühnel E. Die Baysonghur-handschrift der Islamischen Kunstabteilung // Jahrbuch der Preuszischen Kunstsammlungen, 52. Bd., 1931. – P. 133-152;
19. La’lshateri M. Art of Khorasan in the Period Sultan Husayn // Journal Khorasan Quarterly of Culture and Social Studies, 2016. Volume 10, № 39. – P. 91-120.
20. Martin F. The miniature painting and painters of Persia, India and Turkey from the 8th to the 18th century. Vol. I. – London: Bernard Quaritch, 1912. – P. 112.
21. Mihan Sh. The Baysunghuri manuscript in the Malek Library / Shahnama Studies III: The reception of the Shahnama. – Leiden, Boston, 2018. – 373-419 p.

22. Mustafa Ali. Epic Deeds of Artists. Edited, translated and commented by Esra Akin-Kivanc. Leiden-Boston: Brill, 2011. P. 206.
23. Natif M. The Zafarnama (Book of Conquest) of Sultan Husayn Mirza / Insights and Interpretations. – Princeton: Princeton University Press, 2002. – P. 211-228;
24. Robinson B. Prince Baysonghor’s Nizami: A speculation // Ars Orientalis, Vol. 2, 1957. – P. 383-391; Alparslan A. Le Plus Grand Coran du monde et Baysoungour / M. Ugur Derman armagani: 65-yasi munasebetiyle sunulmus tebligler. M. Ugur Derman Festschrift: papers presented on the occasion of his sixty-fifth birthday. – Istanbul: Sabanci Universitesi Iletisim Merkezi, 2000. – P. 135-139;
25. Roxburgh D. Baysunghur’s Library: Questions Related to its Chronology and Production // Journal of Social Affairs 18, no. 72, 2001. – P. 11–41;
26. Şahin M. Mîrzâ Şahruh’un oğlu Mîrzâ Baysungûr’un sanat ve sanatçilara bakişi açisindan değerlendirilmesi // Tarih okulu dergisi, 2014, №8. – S. 165-184;
27. Samarqandi Mir Davlatshah. Tadhkirat al-shu’ara/ A Century of Princes: Sources on Timurid History and Art. Selected and translated by W.Thackston. – Cambridge. – Massachusetts, 1989. – P. 21.
28. Soucek P., Chagman F. A Royal Manuscript and Its Transformation: The Life History of a Book. / The Book in the Islamic World. The Written and Communication in the Middle East. Edited by George N. Atiyeh. – Albany: State University of New York Press, 1995. – P. 179-208;
29. Stchoukine I. Une Khamseh de Niẓāmī de la fin du règne de Shāh Rokh / In: Arts asiatiques, tome 17, 1968. – P. 45-58.
30. Sugimura T. The Chinese Impact on Certain Fifteenth Century Persian Miniature Paintings from the Albums (Hazine Library Nos. 2153, 2154, 2160) in the Topkapi Sarayi Museum, Istanbul. PhD diss., University of Michigan, 1981. – 398 p.;
31. Yu Y. Representing Ming China in Fifteenth-Century Persianate Painting // Ming Studies, 2018, no. 78. – P. 57-73

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K:930.25(575.1)

***Lutfiya SALOMOVA,***
*O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi*
*E-mail: lutfiyasalomova988@gmail.com*

*O‘zRFA Tarix instituti instituti kichik ilmiy xodimi, PhD Sh.Abduraximova taqrizi asosida*

## TURKISTON ASSR SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIGA OID FONDLAR TAHLILI (O‘ZBEKISTON MILLIY ARXIV FONDLARI ASOSIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Milliy arxividagi saqlanayotgan Turkiston ASSR sog‘liqni saqlash sohasiga oid 1917-1924 yilgi fondlar manbashunoslik jihatdan tahlil etilgan bo‘lib, arxivda fondlarida saqlanayotgan hujjat turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Maqolada sog‘liqni saqlash комиссарлиги қошида фаолият олиб борган bo‘limlar ва ularning ish faoliyatiga oid ma’lumotlar tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston Milliy arxivi, Turkiston ASSR, sog‘liqni saqlash, fond, рўйхат.

## АНАЛИЗ АРХИВНЫХ ФОНДОВ В ОБЛАСТИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР (ПО МАТЕРИАЛАМ НАЦИОНАЛЬНОГО АРХИВА УЗБЕКИСТАНА)

Аннотация

В данной статье проведен источниковедческий анализ фондов здравоохранения Туркестанской АССР за 1917-1924 гг., хранящихся в Национальном архиве Узбекистана, раскрыты виды документов, хранящихся в фондах архива, и их специфика. В статье анализируются разделы, относящиеся к сфере здравоохранения, информация об их эффективности.

**Ключевые слова:** Национальный архив Узбекистана, Туркестанская АССР, здравоохранение, фонд, список.

## ANALYSIS OF ARCHIVE FUNDS IN THE FIELD OF HEALTHCARE OF THE TURKESTAN ASSR (BASED ON MATERIALS FROM THE NATIONAL ARCHIVES OF UZBEKISTAN)

Annotation

This article provides a source-friendly analysis of the 1917-1924 funds related to the health sector of the Turkestan ASSR held in the National Archives of Uzbekistan, revealing the types of documents held in their funds and their distinctive features. The article analyzes sections related to the field of health, data on their work activities.

**Key words:**National Archives of Uzbekistan, Turkestan ASSR, Health, Foundation, list.

**Kirish.** 1917 yilda boshlangan siyosiy jarayonlar natijasida Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatildi. 1918 yilda Turkiston Respublikasining tashkil etilishi natijasida qator komissarliklar tashkil etilib, ular orasida sog‘liqni saqlash komissarligi ham bor edi. Barcha sohalar kabi o‘lkada sog‘liqni saqlash sohasida ham ko‘plab muammolar mavjud edi. Aynan, ushbu jarayonlar bilan bog‘liq tarixiy ma’lumotlar bugungi kunda O‘zbekiston Milliy arxivining ko‘plab tarixiy fondlarida saqlanib qolgan va ulardagi ko‘plab hujjatlar o‘rganilmagan.

**Tadqiqot usullari va adabiyotlar sharhi.** Ushbu ilmiy tadqiqot ishi arxiv manbashunosligi yo‘nalishida olib borilgan bo‘lib, unda Turkiston ASSR sog‘liqni saqlash tarixiga oid fondlar tahlil etilgan. Fondlarni tahlil etishda bir nechta tarixiy manbashunoslikning bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Jumladan, tashqi va ichki tahlil, turkumlashtirish usullari yordamida fondlarning ro‘yxatlari, ma’lumot berish xususiyatlari tavsiflangan. Ushbu tadqiqot usullari O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan Trukiston ASSR sog‘liqni saqlash tarixiga oid ma’lumot beruvchi fondlarning manbaviy ahamiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Arxiv fondlarini manbaviy tahlil etish bo‘yicha M.N. Chernomor, M.S.Isakova, V.G.Ioffe, Sh.SH.Choriyevlar tamonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

**Tadqiqot natijalari.** Turkiston ASSRda ko‘plab tashkilotlar faoliyat olib borgan bo‘lib, ular ichida Sog‘liqni saqlash xalq komissarligi hujjatlari ham alohida fond sifatida saqlanib qolgan. Ushbu hujjatlar Turkistonning 1918-1924 yillardagi ijtimoiy tarixida muhim ahamiyat kasb etgan sog‘liqni saqlash va tibbiyot masalarini qamrab olgan.

Ammo ta’kidlab o‘tish lozimki, Turkiston ASSR Sog‘liqni saqlash xalq komissarligi arxiv fondidagi tarixiy hujjatlar Turkistonning sog‘liqni saqlash va tibbiyot sohasi tarixini yoritishda yagona birlamchi manba hisoblanmaydi. Ushbu soha tarixini yoritishda komissarlik faoliyati bilan bog‘liq tashkilotlarning fondlarida saqlangan tarixiy hujjatlar ham mavzuga oid qo‘shimcha manbalar hisoblanadi.

O‘z navbatida O‘zbekiston Milliy arxividagi aynan Turkiston ASSR sog‘liqni saqlash tarixiga oid ma’lumot beruvchi fondlarni aynan sohaga oid ma’lumot beruvchi va umumlashgan ma’lumot beruvchi turkumlarga ajratish mumkin.

Birinchi turkumga Turkiston ASSR Sog‘liqni saqlash xalq komisarligi arxiv fondini aytish mumkin.

1917 yilgi oktabr voqealaridan so‘ng RSFSR Xalq komissarlarining ko‘rsatmasiga ko‘ra, RSFSR Sog‘liqni saqlash komissarligi tibbiyot sanitariya ishlarini muvofiqlashtiruvchi boshqaruv organi sifatida tashkil etilgan.

Turkistonda oktabr to‘ntarilishi voqealaridan so‘ng sog‘liqni saqlash xalq komissarligi dastlab tashkil etilgan komissarliklardan biri bo‘lib, sovet hokimiyatining tibbiyot sohasidagi siyosatining asosiy ijro organi hisoblangan. Komissarlik Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarlari Sovetining 1917-yil 23 noyabrdagi buyrug‘i bilan tashkil etilib, O‘rta Osiyoda o‘tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish siyosati munosabati bilan 1924 yil 24 noyabrda tugatilgan. Tashkilot

hujjatlari jami 63 to'plamda hujjat ko'rinishda tartibsiz, yig'majildlar ro'yxatlari tuzilmagan holda arxivga topshirilgan. Arxiv tartib qoidalariga ko'ra topshirilmagan arxiv hujjatlari arxivchi G.G.Sovina tomonidan 1940 yilda tartibga solinib, unga yig'majildlar ro'yxati tuzib chiqilgan. Fond ro'yxatining tahliliga ko'ra, u so'nggi bor 30.09.1993 yilda arxivchi I.E.Yaskolko tomomnidan tekshirilgan bo'lib, unda jami 469 ta yig'majild borligi qayd etilgan. Ular orasida qo'shimcha harflar bilan belgilangan (literniy) yig'majildlar ham mavjud [1].

Fond tarkibida Turkiston ASSR Xalq komissarligi Hay'atining buyruqlari va yig'ilish bayonnomalari. Sog'liqni saqlash Xalq komissarligi va unga bo'ysunuvchi muassasalar to'g'risidagi Nizom, viloyat sog'liqni saqlash bo'limlari faoliyati to'g'risidagi hisobotlar, sog'liqni saqlash bo'limlari rahbarlarining se'zd materiallari. Turkiston Respublikasidagi sog'liqni saqlash holati to'g'risidagi hisobotlar, davolash, sanitariya-epidemiologiya, farmatsevtika bo'limlari hamda Ona va bolalarni muhofaza qilish bo'limi (1918-1924) hisobotlari, farmatsevtika bo'limlari, sog'liqni saqlash bo'limlari boshliqlarining qurultoylari materiallari (1921-1922); kasalxonalar, shifoxonalar, tibbiy markazlarning holati, tibbiy yordamni tashkil etish va tibbiyot xodimlarini tayyorlash to'g'risida hisobotlar saqlangan[2].

Shuningdek, qizamiq stansiyalari, O'lkadagi baktereologiya instituti, o'latga va vaboga qarshi tadbirlarga oid ma'ruza hisobotlar jamlangan. Shu qatorda, tibbiyot maktablari, kurslari, tibbiyot bo'yicha adabiyotlarni nashr etish, ma'ruzalar va ko'rgazmalar tashkil etish, tibbiyot tashkilotlari, ishchilari haqidagi statistik ma'lumotlar, sohaga sarflangan harajatlarga oid smeta va xarajat hujjatlari jamlangan.

Fondning ro'yxatida komissarlik bo'limlarining hujjatlari davriy ketma-ketlikda berib o'tilgan.

O'lkada mahalliy kadrlar tayyorlash bo'yicha faoliyat olib borgan Turkiston o'lkasi tub aholi tibbiyot texnikumi hujjatlari ham muhim manba hisoblanadi. Ushbu tashkilot fondi R-361-raqami bilan indekslangan bo'lib, uning tarkibidi 94 ta yig'majild saqlangan. Texnikum arxiv hujjatlari 1921-1926 yillarni qamrab oladi. Ta'kidlab o'tish lozimki, texnikum hujjatlari 1964 yilda O'zbekiston Ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi (hozirda O'zbekiston Ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari Milliy arxivi) saqloviga o'tkazilgan.

Shunday fonlardan яна biri Butunittifoq sanoat ishchilari ittifoqining davolash-sanitariya ishlari bo'yicha Turkiston qo'mitasi (VSEMEDIKOSANTRUD) hisoblanadi. Butunittifoq davolash-sanitar ishi xodimlari sanoat ittifoqi Turkiston bo'limi O'lka qo'mitasi 1919 yil noyabr oyida Tibbiy-sanitariya xodimlari I O'lka Qurultoyida tashkil etilgan. 1921 yil 25 iyul Butunittifoq Kasaba uyushmasi Markaziy Kengashining Turkiston byurosi Qaroriga asosan qo'mita faoliyati tugatilgan.

Butunittifoq sanoat ishchilari ittifoqining davolash-sanitariya ishlari bo'yicha Turkiston qo'mitasining Tibbiyot xodimlari Ittifoqi viloyat bo'limlaridan kelgan vakillari ishtirokidagi 1921 yil 21 iyuldagi kengaytirilgan Plenumida Butunittifoq davolash-sanitar ishi xodimlari kasaba uyushmasi Markaziy qo'mitasi Turkiston byurosi tashkil etilgan. Tashkilot hujjatlari arxivda R-794 indeksi bilan raqamlangan bo'lib, unda 51 ta yig'majild saqlangan. Uning hujjatlari 1919-1923 yillarga tegishli hisoblanadi.

Fond tarkiibida tarif-meyoriy bo'lim, tashkiliy-yo'riqnoma bo'limi, madaniy-ma'rifiy bo'lim, ishlab chiqarish sanitar-moliya bo'limi, ish haqi vedomostlari va boshqa bo'lim hujjatlari uchraydi.

Ta'kidlash lozimki, respublikamizda O'zbekiston Ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari Milliy arxivi ham mavjud bo'lib, tibbiyot sohasiga oid tarixiy hujjatlarni jamlagan arxiv hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash xalq komissarligi arxiv fondi ushbu arxiv saqloviga o'tkazilgan. Ammo Turkiston ASSR sog'liqni saqlash komissarligi arxiv fondining tarixiylik jixatlari e'tiborga olinib O'zbekiston Milliy arxivi, ya'ni tarixiy arxiv saqlovida qoldirilgan.

Ikkinchi turkum fondlarga Turkiston ASSR Markaziy Ijro qo'mitasi, Xalq komissarlari soveti, Moliya xalq komissarligi va Statistika boshqarmasi arxiv fondlarini kiritish mumkin.

Ushbu arxiv fondlari orasida Turkiston ASSR MIQ R-17-fondi muhim ahamiyat kasb etadi. o'lkada tashkil topgan Turkiston Markaziy Ijro Qo'mitasi (MIQ) 1918 yil 20 aprelda tashkil topgan bo'lib, o'lkada oliy hokimiyat vazifalarini bajaruvchi oliy qonunchilik organi hisoblangan[3].

Aynan o'lkada sog'liqni saqlash sohasida qabul qilingan muhim hujjatlar Turkiston ASSR MIQ fondida saqlanib qolgan. Jumladan, R-17 fond 1-ro'yxatida yig'majildlar 9 ta mavzularga ajratilib, ular xronologik ketma-ketlikda berilgan. Masalan, 6 mavzu Mehnat, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash va kasaba uyushmalari deb nomlangan.

Ro'yxatda keltirilgan yig'majildlarning sarlavhalari mazmuniy tahliliga ko'ra, 1100, 1101, 1105, 1106, 1107, 1130, 1135, 1141 keltirilgan yig'majildlari aynan sog'liqni saqlash sohasiga tegishli hisoblanadi.

Ammo ta'kidlab o'tish lozimki, Turkiston MIQ ro'yxatining tahliliga ko'ra, ko'rsatilgan yig'majildlarda emas, balki, boshqa buyruq, dekret kabi hujjatlarda ham sohaga oid ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Arxivda saqlangan fondlar orasida Turkiston ASSR Xalq komissarlari soveti (R-25) hujjatlarida ham o'lkadagi sog'liqni saqlash sohasi haqida ma'lumot beruvchi muhim hujjatlar saqlangan.

O'lkani boshqarish va ijro funksiyasi vazifasi yuklatilgan ushbu tashkilot hujjatlariga 3 ta ro'yxat tuzilgan bo'lib, ularda jami 2154 ta yig'majildda jamlangan. Fondning yig'majildlar ro'yxati Kirish, qisqartirilgan so'zlar va asosiy qismlardan iborat. Ro'yxatning asosiy qismida yig'majildlar ro'yxati davriy ketma ketlik va mavzuli tizimda tuzilgan.

Aynan boshqa yillarga oid materiallar ham shu tartibda turkumlashtirilgan bo'lib, ularda sog'liqni saqlash sohasiga oid hujjatlar 22, 23, 24, 25, 103, 104, 208, 332, 333, 334, 335, 336, 631, 632, 633, 336, 631, 632, 633, 634, 979, 980, 981, 983,985,986,987,988, 1387,1387, 1388, 1389, 1390, 1392, 1820, 1821, 1822, 1821, 1822,1822,1823, 1824, yig'majildlarda saqlangan.

Turkistonda sog'liqni saqlash sohasining sovet hokimiyati tomonidan moliyalashtirilishi, iqtisodiy holatini aks ettiruvchi muhim manbalar sirasiga Turkiston ASSR Moliya Xalq Komissarligi (MXK) R-37-fondi o'ziga xos o'rin tutadi. Ushbu komissarlik 1918 yil 5 dekabrda Turkiston ASSR MIQ buyrug'iga binoan tashkil etilib, 1924 yil 22 noyabrda O'rta Osiyoda Milliy davlat chegaralanish islohotlari natijasida tugatilgan[4].

O'lkada sog'liqni saqlash sohasining moliyalashtirilishi, kasalxonalar qurilishi, yotish o'rinlari va boshqa turli masalalari doir muhim ma'lumotlar Moliya xalq komissarligi arxiv fondi 1-ro'yxatining 284, 298, 299, 1235, 1239, 1261, 1262, 1263, 1656 yig'majildlarida saqlangan[5].

Sog'liqni saqlash sohasiga oid muhim ma'lumotlarni saqlagan yana bir fondlardan biri turkiston ASSR Statistika boshqarmasi hujjatlari hisoblanadi. 1918 yil RSFSRda xalq xo'jaligi va sanoat sohalarini nazorat qilish maqsadida statistika bo'yicha qaror qabul qilinib, 1919 yil 17 dekabrda TASSR MIQ dekreti bilan TASSR Markaziy Statistika boshqarmasi tashkil etildi. 1920 yilda bir vaqtning o'zida qishloq xo'jaligi, sanoat va aholini ro'yxatga olish ishlari bilan birga sog'liqni saqlash

sohasida ham statistik ma’lumotlar yig‘ilgan. Turkiston ASSR Markaziy Statistika boshqarmasining viloyat va uyezd statistika byurolariga buyruqlar va sirkulyarlari, ularning yillik hisobotlari arxivning R-21–fondida aks etgan. Ushbu fond tahliliga ko‘ra, faqatgina 1-ro‘yxatda 172, 174, 216 yig‘majildlarda Sog‘liqni saqlash komissarligining hisobotlari kabi muhim hujjatlar saqlangan.

O‘lkadagi sog‘liqni saqlash masalalari bilan shug‘ullangan yana bir tashkilotlardan yana biri Butunrossiya Markaziy ijroiya qo‘mitasi Prezidiumi huzuridagi Turkiston ASSR vakolatxonasi hisoblanadi. Vakolatxona hujjatlari arxivning R-13-fondida saqlanib, uning tarkibida 121 ta yig‘majild saqlangan.

Ikkinchi turkumdagi arxiv fondlari bo‘yicha mulohaza qilib aytish mumkinki, Oliy qonunchilik organi bo‘lgan MIQ fondida sog‘liqni saqlash sohasini tashkil etish bo‘yicha me’riy huquqiy hujjatlar qabul qilinishi, Xalq komissarlari soveti fondida esa qabul qilingan me’riy-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlashga oid hujjatlar jamlangan. Shuningdek, Sog‘liqni saqlash komissarligi bevosita bo‘ysunuvchi davlat organi sifatida o‘zining hisobotlarni XKSga topshirgan va hisobot bergan.

Sohaning moliyalashtirilishi, mablag‘larning ajratilishiga muhim hujjatlar Moliya xalq komissarligida saqlangan bo‘lsa, komissarlik har yili soha bo‘yicha statatistik ma’lumotlarni Statistika boshqarmasiga topshirgan. Ammo, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan arxiv fondlarining yig‘ma jildlaridan tashqari boshqa hujjatlarida ham sohaga oid ma’lumotlarni uchratish mumkin, ya’ni, ta’kidlab o‘tilgan yig‘majildlar bilan sohaga oid ma’lumot beruvchi manbalar cheklanib qolmagan.

Sohaga oid ma’lumot beruvchi manbalarning uchinchi turkumiga rasmiy hisobotlar kiradi. Ushbu turdagi hisobotlar Turkiston ASSR oliy organlari tomonidan nashr etilgan bo‘lib, ularning ayrimlari bugungi kunda arxivning kutubxonasida saqlanib qolgan. Shunday manbalardan biri, Turkiston XKS va Iqtisodiy Kengash tomonidan 1922 yilda nashr etilgan hisobot hisoblanadi[6]. Hisobot “Otchet Soveta narodnix komissariatov i Ekonomicheskogo Soveta Turkestanskoy Respubliki” deb nomlanadi. Ushbu hisobotda o‘lkadagi barcha komissarliklar bilan birga Sog‘liqni saqlash komissarligining hisoboti ham saqlangan.

Hisobotda d-r. N.A. Novikovning ma’ruzasi saqlangan bo‘lib, unda sog‘liqni saqlash sohasidagi shifoxonalar, kadrlar va boshqa masalalar bo‘yicha satistik ma’lumotlar berilgan[7].

Тўртинчи guruh manbalariga o‘sha davrda nashr etilgan sohaga oid ilmiy adabiyotlarni kiritish mumkin. Ammo ta’kidlash lozimki, ushbu turdagi manbalar o‘sha paytda Turkistonda ko‘p nashr etilmagan.

Davriy matbuot materiallari ham o‘ziga xos manbaviy ahamiyatga ega hisoblanadi. Turkistonda 20 dan ortiq gazetalar nashr etilgan bo‘lib, ularga “Nasha gazeta”, “Izvestiya”, “Ekonomika Turkestana” kabilarni misol keltirish mumkin. Turkiston ASSR davriga oid gazeta va jurnallar bugungi kunda O‘zbekiston Milliy arxivi, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Rossiya kutubxonalari va arxivlarida saqlanib qolgan.

Manbalarning yana bir turkumiga se’zd materiallarini ham kiritish mumkin. Vaqti-vaqti bilan o‘lkada turli masalalarga, shu jumladan, sog‘liqni saqlash sohasiga ham bag‘ishlab se’zd yig‘ilishlari o‘tkazilib turilgan. Shunday se’zdlardan biri 1922 yilda o‘tkazilgan bo‘lib, unda M. I.Slonim, R. S.Gershenovich, V. A.Smirnov, G.A.Xan-Akovbyans, V.V.Kosmachevskiy, I.A.Minkevich, N.N.Klodnitskiy, A.V.Fedulov, M.F.Mirochniklarning ma’ruza matnlari nashr etilgan [9].

**Xulosa va takliflar**. Xulosa qilib aytganda, arxiv hujjatlari opasida Sog‘liqni saqlash sohasiga oid malumotlar Turkiston ASSR tarixini ochib berishda aloxida o‘ringa ega bo‘lgan soxalardan biri hisob, Turkistonda sog‘liqni saqlash tarixiga oid ma’lumot beruvchi yagona manba yoki arxiv fondi mavjud emas. Ushbu mavzuga doir tarixiy manbalarning turlari ko‘p bo‘lib, ularning ma’lumot berish xususiyatlari ham o‘ziga xos hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan tadqiqotga oid manbalarni turkumlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tarixiy manbalarni turkumlashtirish ulardagi tarxiy ma’lumotlarning ishonchlilik darajasini aniqlash, ma’lumotlarni qiyosiy tahlil etish, o‘rganilayotgan tadqiqot mavzusini holis va haqqoniy yoritish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqotchiga manbalarning mavzu doirasida ma’lumot berish darajasini ham belgilab beradi.

## ADABIYOTLAR


1. ЎзМА, Р-40-фонд, 1-рўйхат сўнггидаги маълумотлар таҳлили
2. Salomova, L. I. (2022). Archive documents on health care issues of turkey ASSR. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, *2*(11), 78-83.
3. Иноятов Х.Ш. Октябрская революция в Узбекистане.-М.: Госиздат. 1957. –С. 306; Абдураҳимова Н.А., Исакова М.С., Сулейманова З.М. Давлат муассасалари тарихи.- Т.: Шарқ. 2007. -79 б.
4. ЎзМА, Р-37-фонд, 1-рўйхат кириш қисми.
5. ЎзМА, Р-37-фонд, 1-рўйхат даги йиғмажалдалар таҳлили.
6. Отчет Совета народных комиссариатов и Экономического Совета Туркестанской Республики на 1-ое октября 1922 г. Издания ТЭСа. –Ташкент: 1922 г. 520 стр.
7. Отчет Совета народных комиссариатов и Экономического Совета Туркестанской Республики на 1-ое октября 1922 г. Издания ТЭСа. –Ташкент: 1922 г. –С.470-476.
8. Salomova, L. I. (2021). Types of documents on the history of the Turkestan century kept in the National archives of Uzbekistan. *Current research journal of history*, *2*(11), 73-77.
9. Труды Первого научного с'езда врачей Туркестанской республики. Ташкент, 23-28 октября 1922 г. Слоним М. И., Гершенович Р.С., Смирнов В.А., Хан-Аковбянц Г.А., Корчиц, Космачевский В. В., Минкевич И. А., Клодницкий Н. Н. , Федулов А. В., Мирочник М. Ф. [и др.]

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 902. 6(575.151)

***Odiljon XAMIDOV,***
*Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD*
*E-mail: odiljonkhamidov@tersu.uz*
***Gulmira KATTAYEVA,***
*Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD*
*E-mail:kattayevag@tersu.uz*

*Termiz davlat universiteti professori, t.f.d Sh.Shaydullayev taqrizi asosida*

## NEW RESEARCHES ON THE OXUS CIVILIZATION PUBLISHED IN 2023: PART 2 (EXAMPLE OF ARCHAEOLOGY OF THE EURASIAN STEPPES JOURNAL)

Annotation
The Oxus civilization is one of the centers of civilization that was formed in the Bronze Age, 2500-1350 BC, in the Central Asian region. This civilization was combined Sapalli, Dashtli that were formed in the territory of Southern Uzbekistan and Nothern Afghanistan, and Namazgah cultures that was prevailed in the territory of Southern Turkmenistan. In recent years, researchers have published scientific articles on the history and archeology of the Oxus civilization in the most prestigious journals of the worlds in English and Russian. The Journal Archaeology of the Eurasian Steppes (Arkheologiia Evraziiskikh Stepei) is one the most popular journals, in which 3 articles that belong to the Oxus civilization were published in 2023. It is illuminated the scientific analysis of the articles that were published in the Journal “Archaeology of the Eurasian steppe” in this article.
**Key words:** Oxus civilization, journal “Archaeology of the Eurasian steppe”, Altyn-Depe, Namazga-Depe, Ulug-Depe, irrigation system of Central Asia.

## OKS SIVILIZATSIYASI BO‘YICHA 2023-YILDA NASHR ETILGAN YANGI TADQIQOTLAR: 2-QISM (“ARXEOLOGIYA YEVRAZIYSKIX STEPEY” JURNALI MISOLOIDA)

Annotatsiya
Oks sivilizatsiyasi Markaziy Osiyo mintaqasida bronza davrida shakllangan sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lib, xronologik jihatdan mill. avv. 2500-1350 yillar bilan davrlashtirilgan. Ushbu sivilizatsiya markazi Janubiy O‘zbekiston hududida shakllangan Sopolli, Shimoliy Afg‘onistonda tarqalgan Dashtli, Janubiy Turkmaniston hududida hukm surgan Namozgoh madaniyatlarini o‘z ichiga birlashtirgan. So‘nggi yillarda tadqiqotchilar tomonidan Oks sivilizatsiyasinining tarixi va arxeologiyasiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar dunyoning eng nufuzli jurnallarida ingliz va rus tillarida nashrdan chiqmoqda. “Arxeologiya Yevraziyskix stepey” jurnali shunday jurnallardan biri bo‘lib, jurnalda 2023-yilda bevosita Oks sivilizatsiyasi bo‘yicha 3 ta maqola chop etilgan. Ushbu maqolada “Arxeologiya Yevraziyskix stepey” jurnalida chop etilgan maqolalarning ilmiy tahlili yoritilgan.
**Kalit so‘zlar:** Oks sivilizatsiyasi, “Arxeologiya Yevraziyskix stepey” jurnali, Oltintepa, Nomozgohtepa, Ulug‘tepa, Markaziy Osiyo sug‘orilish tizimi.

## НОВЫЕ РАБОТЫ ПО ИСТОРИИ ЦИВИЛИЗАЦИИ ОКСА ОПУБЛИКОВАННЫЕ В 2023 ГОДУ: ЧАСТЬ 2 (НА ПРИМЕРЕ ЖУРНАЛА “АРХЕОЛОГИЯ ЕВРАЗИЙСКИХ СТЕПЕЙ”)

Аннотация
Цивилизация Окса – новый центр древневосточной цивилизации, объединивший культуры бронзового века (2300-1450 гг. до н. э.) Сополли, Даштли, распространенные в Южного Узбекистана и Северном Афганистане, культуры Намазгоха, сформировавшиеся на территории Южного Туркменистана. Его расцвет приходится на период XXIII-XVIII веков. В последние годы исследователи опубликовали научные статьи по истории и археологии цивилизации Окса в самых престижных мировых журналах на английском и русском языках. «Археология Евразийских степей» — один из таких журналов, в котором в 2023 году опубликовано 3 статьи непосредственно о цивилизации Окс. В данной статье представлен научный анализ новых исследований, опубликованных в журнале «Археология Евразийских степей».
**Ключевые слова:** Цивилизация Окса, журнал «Археология Евразийских степей», Алтын-депе, Намазга-депе, Улуг-депе, система ирригации Центральной Азии.

**Kirish.** Oks sivilizatsiyasi Markaziy Osiyo mintaqasida bronza davrida shakllangan sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lib, xronologik jihatdan mil. avv. 2500-1350-yillar bilan davrlashtirilgan [1]. Ushbu sivilizatsiya markazi Janubiy O‘zbekiston hududida shakllangan Sopolli, Janubiy Afg‘onistonda tarqalgan Dashtli, Janubiy Turkmaniston hududida hukm surgan Namozgoh madaniyat-larini o‘z ichiga birlashtirgan. Mil. avv. 3000 va 1500-yillarda O‘rtaer dengizidan Hind daryosi vodiysigacha va Fors ko‘rfazidan Markaziy Osiyo janubigacha bo‘lgan keng hududda bronza davri sivilizatsiyasi paydo bo‘lishi, hukmron elita qatlami tomonidan boshqariladigan jamiyat, shuningdek, urbanizatsiya va hunarmandchilik turlarining rivojlanishiga olib keldi va ushbu hududlar o‘rtasida madaniy integratsiyani kuchaytirdi [5]. G.L. Possel tadqiqotida ushbu davr «O‘rta Osiyo o‘zaro ta’sir doirasi» («Middle Asian Interaction Sphere» yoki «MAIS»)[6] sifatida talqin qilingan bo‘lib[7:477-480], ushbu atama mil. avv. III ming yillik o‘rtalaridan - II ming yillik o‘rtalarigacha bo‘lgan davr oralig‘ida mintaqada joylashgan madaniyatlar, jumladan Meluhha (Hind sivilizatsiyasi), Marhashi (Halilrud sivilizatsiyasi), Magan sivilizatsiyasi (Ummon), Dilmun sivilizatsiyasi (Fors ko‘rfazining shimoliy

qismi), Elam (Janubiy-G‘arbiy Eron), Shumer (Mesopotamiya), Oks (O‘rta Osiyo) o‘rtasida savdo va madaniy aloqalar rivojlanib, o‘ziga xos madaniyatlararo integratsion muhit vujudga kelgan [5, 6]. Buning natijasida ushbu hududlar o‘rtasida bir-biriga o‘xshash moddiy madaniyat buyumlari tarqalgan.

So‘nggi yillarda Oks sivilizatsiyasini ilmiy, tarixiy va arxeologik jihatdan o‘rganish ko‘plab tadqiqotchilarning tadqiqot maydoniga aylanmoqda. "Arxeologiya Evraziyskix stepey" jurnalida so‘nggi yillarda nashr etilgan maqolalarda ham Oks sivilizatsiyasining tarkibiga kiruvchi madaniyat-larning antropologiyasi, moddiy madaniyat buyumlari va migratsion jarayonlar haqida juda qimmatli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

"Arxeologiya Yevraziyskix stepey" jurnali – Yevrosiyo cho‘l mintaqasi arxeologiyasi, shuningdek, tarix va tabiiy fanlarning asosiy muammolariga bag‘ishlangan, Scopus bazasida indeksatsiya qilingan Q4 kvartilli xalqaro ekspertiza jurnali hisoblanadi. Jurnal 2007-yildan beri A.X.Xalikov nomidagi Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti tomonidan nashr etiladi. "Arxeologiya Yevraziyskix stepey" jurnalidagi maqolalar bir yilda olti marta rus tilida, shuningdek rus va ingliz tilidagi annotatsiyalari bilan birgalikda nashr etiladi. "Arxeologiya Yevraziyskix stepey" ilmiy jurnali Rossiya Federatsiyasi Ta’lim va fan vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasi Prezidiumining qarori bilan fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar natijalari e’lon qilishning "Asosiy ilmiy nashrlar ro‘yxati" ga kiritilgan (08.07.2019-y.) bo‘lib, asosan, ikki guruh mutaxassisliklari bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalarini chop etish uchun akkreditatsiyadan o‘tgan: 07.00.02 – Ichki tarix (tarix fanlari), 07.00.03 – Umumiy tarix (tegishli davr) (tarix fanlari), 07.00.06 – Arxeologiya (tarix fanlari).

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**. "Arxeologiya Yevraziyskix stepey" jurnalida 2023-yilda bevosita Oks sivilizatsiyasi bo‘yicha 3 ta maqola chop etilgan, jumladan, A.M.Qurbonovning "Oltintepa – Markaziy Osiyodagi eng qadimgi diniy ibodatxona" ("Алтын-Депе – древнейшее культовое место в Средней Азии")[2], G.Sh.Shaydullayeva va A.M.Qurbonov hammuallifligida nashrdan chiqqan "Markaziy Osiyoning bronza davri ibodatxonalarida zardushtiylikning aks etishi"(" Отражение зороастризма в храмах Средней Азии эпохи бронзового века")[3], U.X.Shapulatovning "O‘rta Osiyoda bronza davri sug‘orish tarixini o‘rganish masalasiga doir" ("К вопросу изучения истории ирригации на территории Средней Азии в эпоху бронзы") [4] maqolalari shular jumlasidandir.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Mazkur maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida zamonaviy fan rivojlanishining qonuniy tendensiyasi bo‘lmish fanlararo yondashuv usulidan foydalanilgan. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

**Tahlil va natijalar**. Birinchi maqola "Arxeologiya Evraziyskix stepey" jurnalining 2023 yildagi 1-sonida nashrdan chiqqan A.M.Qurbonovning "Oltintepa – Markaziy Osiyodagi eng qadimgi diniy ibodatxona" ("Алтын-Депе – древнейшее культовое место в Средней Азии") [2] nomli maqolasi bo‘lib, unda Ilk va O‘rta bronza davrlariga oid (mil. avv. 3-ming yillikning oxiri - 2-ming yillik boshlari) O‘rta Osiyoning janubida joylashgan (hozirgi Turkmaniston hududi) monumental me’morchilikka ega bo‘lgan Oltintepa yodgorligi haqida ma’lumot qayd etilgan. Oltintepada mil. avv. III ming yillikning ikkinchi yarmida, o‘rta bronza davrida protosivili-zatsiyaga asos solinganligi, umumiy maydoni 25 gektar bo‘lgan bu yodgorlikda monumental arxitekturaga ega bo‘lgan ibodat markazi, tabaqalashgan jamiyatni ko‘rsatuvchi uy qurilishi uslublari, yuqori rivojlangan kommunikatsiya, keng ko‘chalar, aravalar harakatiga mo‘ljallangan va yuqori fortifikatsiya uslubi asosida qurilgan shahar darvozasi kabi me’moriy majmualar o‘rganilganligi, ushbu inshootlar - Oltintepa monumental majmuasining o‘ziga xos xususiyatidan dalolat berishi tadqiqotda alohida qayd etilgan. Oltintepada ochib o‘rganilgan ibodatxonaning shakllanishida Qadimgi Sharq sivilizatsiya markazlarining ta’siri, xususan, Oltintepa diniy ibodatxonasining paydo bo‘lishi Qadimgi Mesopotamiya, Elam va Hind sivilizatsiyalarining madaniy ta’siri va iqtisodiy kengayishi natijasi sifatida tadqiqotchi tomonidan ilmiy tahlil qilingan. Maqolada nafaqat Oltintepa qadimiy ibodatxonasida zikkuratning joylashuvi va qurilish texnologiyasi haqida ma’lumot berilgan, balki ko‘rib chiqilayotgan majmuaning funktsional maqsadi ham tahlil qilingan.

Ushbu maqola muallifning dastlabki tadqiqoti bo‘lib, umumiy xarakterga ega. O‘ylaymizki, muallif tomonidan Oks sivilizatsiyasi ritual joylari va ibodatxonalari katalogi yaratilib, ularni Qadimgi Sharq ibodatxonalari kesimida o‘rganilgan tadqiqot yaratiladi.

Ikkinchi maqola "Arxeologiya Evraziyskix stepey" jurnalining 2023-yil 4-sonida nashrdan chiqqan G.Sh.Shaydullayeva va A.M.Qurbonov hammuallifligidagi "Markaziy Osiyoning bronza davri ibodatxonalarida zardushtiylikning aks etishi"("Отражение зороастризма в храмах Средней Азии эпохи бронзового века")[3]nomli maqola hisoblanadi. Tadqiqot Markaziy Osiyo hududida olov kultining paydo bo‘lishi va moddiy madaniyatda, shuningdek, yozma manbalarda aks etishining ilmiy tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda mualliflar ilmiy xulosa berishda turli avlod olimlari tomonidan ushbu mintaqa hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ilmiy ma’lumotlarga va "Rigveda" va "Avesta" kabi yozma manbalarga tayangan. Tadqiqotda, olov kulti juda ko‘plab dunyoviy dinlar ta’limotiga asos bo‘lib xizmat qilganligi, jumladan hind-eron va hind-ariy xalqlari dinlarining shakllanishida ham olov asosiy diniy atribut bo‘lib xizmat qilganligi ko‘plab arxeologik manbalarda hamda "Regveda" va "Avesta"da ham e’tirof etilganligi alohida qayd etilgan. Tadqiqotda shuningdek, Hindistonning eng qadimiy diniy matnlar to‘plami hisoblangan Vedalarda Qadimgi hindlar mifologik dunyosi uch qismdan iboratligi: osmon, yer va antariksha (yer va osmon orasidagi makon), ularning har biri o‘z ma’budlariga ega deb hisoblaganligi haqida to‘xtalgan. Samo ma’budalari qatoriga quyosh ma’budasi Suriya, tong ma’budasi Ushas va falak tartiboti ma’budasi Varuna kirgan. Yer ma’budalari ichida olov ma’budasi Agna va ichkilik ma’budasi Somaga ko‘proq e’tiqod etilgan. Antariksha ma’budalari qatorida momaqaldiroq ma’budasi Rudra, shamol ma’budasi Vayyu va qudratli ma’buda Lindrani ko‘rsatish mumkin. "Rigveda" madhiyalarining katta qismi aynan ularga bag‘ishlangan, ma’buda Agna esa alohida ehtiromga ega bo‘lgan va odamlar bilan ma’budalar o‘rtasida vositachi vazifasini bajargan. Quyosh ma’budasi Suriya go‘yo har tongda otash rangli otlar qo‘shilgan aravada namoyon bo‘lgan. U atrofni yoritib hayotbaxsh issiqlik taratadi deb hisoblanganligi alohida qayd etilgan. Bundan tashqari, Xarappa madaniyatiga oid ko‘plab muhrlardagi tasvirlar qadimgi Hindistonda olovga sig‘inish eng rivojlangan kultlardan biri ekanligini ko‘rsatishi, Lotxal, Kalibangan shahar xarobalarida qayd etilgan altarlar esa bu fikrni to‘liq tasdiqlashi mualliflar tomonidan qayd etilgan.

Maqolada olov kultining zardushtiylik dinida tutgan o‘rniga ham alohida to‘xtalgan. Xususan, mualliflar, zardushtiylikda "olov" iborasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ibodatxona bilan chambarchas bog‘lanishi, negaki, zardushtiylik ibodatxonalari otashkada deb ataladi va "olov uyi" degan ma’noni anglatishi qayd etilgan, olov eng ilohiy kult bo‘lib, unga e’tiborsiz bo‘lish yoki ifloslantirish gunoh

hisoblanganligi, hattoki, dindorlarning nafasi uni iflos qilmasligi uchun niqob taqishi lozim bo‘lganligiga alohida to‘xtalgan. Zardushtiylikning eng asosiy diniy e’tiqodlaridan biri olovga sig‘inish bo‘lgan. Olov (Atar) esa Axura – Mazdaning ramzi hisoblangan. Zardushtiylikning eng asosiy arkonlaridan biri bo‘lgan olov O‘rta Osiyoda eneolit davridan boshlab kult sifatida keng tarqalganligini, altarlarning (otashgoh) paydo bo‘lganligini Sarazm va Oltindepe yodgorliklaridan topilgan arxeologik manbalar asosida tahlil qilingan.

Baqtriya va Marg‘iyonaning bronza davriga oid yodgorliklarida o‘rganilgan monumental inshootlarni ilk zardushtiylik ibodatxonalari, tarixiy til bilan aytganda “otashkada”lar deb atalishi, mazkur otashkadalarda o‘tkazilgan tadqiqotlar Baqtriya va Marg‘iyonada xaomani kuylash, olovni e’zozlash kabi an’analar nihoyatda kuchli bo‘lganligidan dalolat berishi mualliflar tomonidan alohida qayd etilgan. Ushbu maqola shu yo‘nalishda yozilgan tadqiqotlardan yozma va arxeologik manbalarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlanganligi bilan alohida ajralib turadi.

Uchinchi maqola “Arxeologiya Yevraziyskix stepey” jurnalining 2023- yildagi 6-sonida nashrdan chiqqan U.X.Shapulatov muallifligidagi “O‘rta Osiyoda bronza davri sug‘orish tarixini o‘rganish masalasiga doir”(“ К вопросу изучения истории ирригации на территории Средней Азии в эпоху бронзы”)[4]nomli maqola hisoblanadi.

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo bronza davri aholisi iqtisodiyotining asosi hisoblangan irrigatsiya dehqonchiligining mil. avv. III-II ming yillikda bronza davri madaniyatlarida sun’iy sug‘orilish tizimining tutgan o‘rni masalalari yoritilgan. Ushbu irrigatsiya tizimi mintaqada, asosan, daryolar bo‘yida: Amudaryo (yuqori, quyi, o‘rta), Murg‘ob va Surxon vohalarida joylashgan ilk davlat tuzilmalarining shakllanishiga xizmat qilganligi, bunday holatni esa birinchi jahon sivilizatsiyalari – Misr (Nil daryosi) va Mesopotamiya (Dajla daryosi va Frot daryosi) misolida ham ko‘rish mumkinligi, ushbu hududlarning sug‘orish tarixini o‘rganish jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga va natijada davlatchilikning shakllanishiga olib kelgan omillarni aniqlashga yordam berishi qayd etib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada Markaziy Osiyoda sug‘orish tizimining paydo bo‘lishi va rivojlanishi V.V.Bartold, D.D.Bukinich, V.M.Masson, G.N.Lisitsina, N.G.Minashin, K.A.Akishev, S.P.Tolstov, Ya.G.G‘ulomov, B.V.Andrianov, E.V.Rtveladze, A.A.Asqarov, Sh.B.Shaydullayev va O.A.Hamidov tadqiqotlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqotda bronza davriga oid katta va kichik daryo va soylar tarixi ham yoritilgan.

Muallif bronza davridagi Markaziy Osiyo irrigatsiya tizimini o‘rganish tarixini uchta bosqichga bo‘lgan:

1-bosqich – XIX asr oxiri va XX asr boshlarini o‘z ichiga olib, ushbu bosqich arxeologik yodgorliklarni qayd etish asosida qadimiy sug‘orish kanallari haqida ma’lumot yig‘ish davri hisoblanadi;

2-bosqich – 1920-1991-yillarni o‘z ichiga olib, bronza davriga oid sug‘orish tizimi rayonlarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlar davri;

3-bosqich – 1992 - yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, mazkur bosqichda Markaziy Osiyoning bronza davri yodgorliklarida xalqaro arxeologik ekspeditsiyalar natijalari asosida qo‘lga kiritilgan ilmiy ma’lumotlar asosida yozilgan tadqiqotlar kiritilgan.

Ushbu tadqiqot ishi, asosan, tarixshunoslik xarakteriga ega bo‘lib, kelgusida muallifdan Markaziy Osiyoning bronza davri irrigatsion tizimi haqida aniq tahliliy ma’lumotlarga asoslangan tadqiqotni kutib qolamiz.

**Xulosa va takliflar**. “Arxeologiya Yevraziyskix stepey” jurnalida 2023-yilda bevosita Oks sivilizatsiyasi tarixi va arxeologiyasiga bag‘ishlangan 3 ta maqola chop etilgan(1-, 4- va 6-sonlarida). Birinchi maqola A.M.Qurbonovga tegishli bo‘lib, ushbu maqolada O‘rta Osiyoning janubida joylashgan (hozirgi Turkmaniston hududi) monumental me’morchilikka ega bo‘lgan Oltintepa yodgorligi haqida ma’lumot qayd etilgan. Ikkinchi maqola G.Sh.Shaydullayeva hammuallifligi ostida nashrdan chiqqan bo‘lib, maqolada Markaziy Osiyo hududida olov kultining paydo bo‘lishi va moddiy madaniyatda, shuningdek, yozma manbalarda aks etishi ochib berilgan. Uchinchi maqola U.X.Shapulatovga tegishli bo‘lib, maqolada Markaziy Osiyo bronza davri irrigatsiya dehqonchiligining mil.avv. III-II ming yillikda Bronza davri madaniyatlarining sun’iy sug‘orilish tizimida tutgan o‘rni masalalari yoritilgan. Umuman olganda, ushbu maqolalar Oks sivilizatsiyasi tarixining ma’lum jabhalari yoritilishi bilan 2023-yildagi tadqiqotlar orasida o‘z o‘rniga ega.

## ADABIYOTLAR


1. Боқиев А.А. Окс цивилизациясининг ижтимоий характери. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация матни. – Термиз, 2021.
2. Курбонов А.М. Алтын-Депе – древнейшее культовое место в Средней Азии // Археология Евразийских степей, №1 2023. С. 107-110.
3. Шайдуллаева Г.Ш., Курбонов А.М. Отражение зороастризма в храмах Средней Азии эпохи бронзового века // Археология Евразийских степей, №4 2023. С. 294-301.
4. Шапулатов У.Х. К вопросу изучения истории ирригации на территории Средней Азии в эпоху бронзы // Археология Евразийских степей, №6 2023. С. 271-281.
5. Mutin B., Lamberg- Karlovsky C.C. The relationship between the Oxus Civilization and the Indo-Iranian borderlands // Lyonnet B., Dubova N.A. (Eds.). The World of the Oxus Civilization (1st ed.). – Routledge-London, 2020. P. 551-589.
6. Possehl G.L. The Middle Asian Interaction Sphere. Trade and Contact in the 3rd Millennium BC. Expedition 49(1), 2007. – P. 40-42.
7. Miroshnikov L.I. Appendix: A note on the meaning of the term Central Asia as used in this book // Dani A.H., Masson V.M. (Eds.) History of Civilization of Central Asia. The dawn of civilization: earliest times to 700 B.C. – Paris, 1992. – P. 477-480.